



TADQIQOTLAR

TADQIQOTLAR

jahon ilmiy metodik jurnal

 tadqiqotlar.uz

17



17- son



1 - qism



Iyul



OPEN



ACCESS



Google
Scholar



JOURNALS
MASTER LIST

www.tadqiqotlar.uz

TADQIQOTLAR

Jahon ilmiy – metodik jurnali

17 - SON

Iyul– 2023



Google
Scholar

ICJ JOURNALS
MASTER LIST



**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING DARSLARGA
BO'LGAN QIZIQISHLARINI UYG'OTISH VA BILIMLARINI OSHIRISH.****Rashidova Saida Ravshonbek qizi***Guliston davlat universiteti**pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim**yo'nalishi 3-bosqich talabasi**E-mail: saidarashidova0@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini fanlarga bo'lgan mustaqil va ongli fikrlashga o'rgatishda innovatsion texnologiyalar, boshlang'ich sinf o'quvchilarning qiziqishlarini o'rganish, axborot texnologiyalari va ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'рни haqida batafsil bayon qilingan.

Resume: This article describes in detail the role of innovative technologies, the study of the interests of elementary school students, information technology, and advanced pedagogical technologies in teaching elementary school students to think independently and consciously about science.

АННОТАЦИЯ: В данной статье подробно описывается роль инновационных технологий, изучения интересов младших школьников, информационных технологий, передовых педагогических технологий в обучении младших школьников самостоятельно и осознанно мыслить о науке.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiya, mustaqil fikrlash, ilg'or pedagogika, zamonaviy o'qitish.

Ключевые слова: инновационные технологии, педагогические технологии, самостоятельное мышление, передовая педагогика, современное обучение

Keywords: innovative technologies, pedagogical technology, independent thinking, advanced pedagogy, modern teaching.

O'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil qilishda ham an'anaviy usullardan farqli ravishda, yangicha pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish va ta'lim jarayonida foydalanish zamon talabi sanaladi.

Dars jarayonida yangicha muhitni takomillashtirish, zamonaviy ko'rgazmalardan, interfaol metodlardan foydalanib mazmunli olib borish kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari boshqarishga moyil, qiziquvchan, ta'sirchan bo'lganliklari uchun ham o'qituvchidan o'quvchilarning yosh xususiyatlariga xos bo'lgan, darsni oson o'zlashtirishlarini, bilimlarni mustahkam o'rganishni kafolatlaydigan metodlarni tanlashi va foydalanishi talab qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Pedagogik texnologiyalardan foydalanishda ta'limning mohiyatini belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchilarning bilimlarni keng egallashi va ma'naviy fazilatlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash ularni ob'ektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilingan o'qish darslari vaqtida erkin va mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishi natijasida, o'quvchilar atrof olamdagi, jamiyatdagi qonunlarni, hamda asardagi ijobiy va salbiy qahramonlar orqali insoniy fazilatlarini anglash, bilimlarni chuqur o'rganish, keng fikrlash, tegishli qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi. Boshlang'ich sinf o'quv jarayonlarida o'quvchilarini ijodkorlikka o'rgatishning o'ziga xos psixologik xususiyatlari mavjud bo'lib, ular har bir bolada o'zgacha paydo bo'ladi. Psixologiyada shaxsiyatning xususiyatlari, o'zlarini doimiy tarzda namoyon qiladigan muhim xususiyatlarning hamma turlarini qamrab oladi. Masalan, har bir kishi tasodifiy zarur ma'lumotlarni unutishi mumkin, lekin umuman olganda hammasi unutilmaydi. Yagona holatlar belgilar xususiyatining mavjudligini ko'rsatmaydi.

Qarama-qarshilikka uchragan insonlarning xarakteristikalarini odat va bezovtalik kabi xususiyatlarni o'z ichiga olishi mumkin, lekin bu boshqalarga g'azablanishga qodir bo'lgan har bir kishi ziddiyatli shaxs bo'lishini anglatmaydi. Shuni aytib o'tish joizki, inson hayot tajribasini yig'ib oladigan hamma fazilatlar oladi.

Hissiyot idrok, sezgi, xotira yordamida, shuningdek tafakkur va boshqalar bilan insonga hayotdan olgan taassurotlar zaxirasiga ega bo'lishni taqozo qiladi va ushbu sohada turli faoliyatlarni amalga oshiradi, shuningdek, mehnatning eng oliy darajasi sanalgan ijod bilan hamohang yondashadi.

Shunday qilib, mehnatning oliy shakli ijoddir. Har bir inson dunyoni idrok qiladi, tasavvur qiladi, yaqqolroq his qilib boradi. Kuzatishlar orqali ko'pdan-ko'p taassurotlar olib, eshitib, o'qib xotirada ancha yorqin saqlab qolishga harakat qiladi. Bular asar yaratishda juda ham kerak, qaysiki, xotirada faqat o'z mazmunida borliqqa estetik, hissiy munosabat aks etib turuvchi voqealar aks etadi. Irodaviy xususiyatlarning paydo bo'lishi, irodaviy imkoniyatlarni so'zsiz, quyidagi psixik jarayonlar - xayol, sezgi, xotira, tasavvur kabilar bilan bog'laydi.

Shunday qilib, iroda katta kuch sifatida ijodni faollashtiradi, yuqori natijalarga erishishi va yana o'quvchining yetuk shaxs sifatida rivojlanishiga yuzaga chiqadi. Mana shu zaruriy jarayonda o'qituvchi o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari uchun imkoniyat yaratib bera olsa, o'quvchilar birin - ketin muvaffaqiyatga erishib boradilar. Agar ta'lim berishda noto'g'ri metod yoki yo'nalish tanlansa, ya'ni o'quvchi tanqidga uchrasa bunday vaziyatda unda

kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali takomillashtirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi.

O'quvchilarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli rivojlantirish mumkin. O'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning aqliy va ijodiy tafakkurini, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish, fanlararo bog'liqlikni ta'minlash, bugungi pedagogikaning asosiy vazifalaridan. Darslarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o'quvchilarni mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga o'rgatish, o'qitilayotgan fanni o'zlashtirish sifatini oshirish ustuvor vazifa sanaladi. Bu sohada boshlang'ich ta'limni o'qitishda ham turli xil uslublar foydalanilmoqda. Shulardan biri zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishdir.

Boshlang'ich sinf o'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni nazarda tutadi. Bular ichida hikoya janriga taalluqli asarlar alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan muhim maqsad o'zlikni anglash, istiqloq, Vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularni uyg'otishdir. Ijodiy qobiliyatlarni takomillashtirish masalasini tahlil etish ushbu konsepsiyaga kiritilgan tarkib bilan belgilanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, psixologik nuqtai nazardan, boshlang'ich maktab yoshi ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish uchun sezgir davrdir. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar juda qiziquvchan, ular atrofdagi dunyo bilan tanishish istagi bor. Kattalar, qiziquvchanlikni rag'batlantirish, bolalarga bilimlarni yetkazish, ularni turli tadbirlarga jalb qilish bolalarning tajribasini kengaytirishga yordam beradi va tajriba va bilimlarni to'plash kelajakdagi ijodiy faoliyatning muhim shartidir.

Oddiy hayotda qobiliyatlar, birinchi navbatda, ma'lum bir kishining xususiyatlari sifatida paydo bo'ladi. Muayyan kishiga murojaat qilish, ayniqsa ta'lim jarayonida, biz qobiliyatlar rivojlanib, individual xususiyatga ega ekanligini ko'ramiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Dilova N.G. Pedagogik hamkorlik jarayonining mazmunk va uni tashkil etish tamoyillari. 2021.
2. Dilova N.G. . O'quvchilarning shaxsiy sifatleri - pedagogik hamkorlikning dastlabki tamoyili. 2021.
3. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Sariyev Sh. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda qiziqishlarni o'rganish.T.,TDPU. 2008.
4. G'oziyev. E Jabborova. A "Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi" T. 2003.

HOZIRGI KUNDA KELAJAK AVLOD YOSHLARINING TARBIYASIDAGI MUAMMOLARI**Rashidova Saida**

*Guliston davlat universiteti pedagogika
fakulteti boshlang'ich ta'lim va sport
tarbiyaviy ishi yo'nalishi 3-bosqich
talabasi*

Tayanch so'zlar: Yosh avlod, milliy mafkura, farzand, tarbiya, yuksak ma'naviyat, pedagog, qadr-qimmat, ijtimoiy muhofaza, ehtiyojmand, ma'naviy qo'llab-quvvatlash

Ключевые слова: Молодое поколение, национальная идеология, дети, воспитание, высокая духовность, педагог, достоинство, социальная защита, нуждающиеся, духовная поддержка.

Keywords: Young generation, national ideology, children, upbringing, high spirituality, teacher, dignity, social protection, those in need, spiritual support.

ANNOTATSIYA: Maqolada mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Yosh avlodni dunyo qarashini shakllantirishda milliy istiqlof mafkurasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Negaki, milliy mafkuraning bosh negizi yosh avlod ruhini tarbiyalashdagi bosh omillaridan biridir.

АННОТАЦИЯ: В нашей стране принимаются меры по формированию гармонично развитого поколения, по воспитанию молодежи духовно, нравственно и физически здоровой, по превращению ее в активных участников проводимых реформ.

Целесообразно использовать идеологию национальной независимости в формировании мировоззрения подрастающего поколения. Ведь основная основа национальной идеологии - один из главных факторов воспитания духа подрастающего поколения.

Resume: The article analyzes in our country, measures are being taken to form a harmoniously developed generation, to educate young people spiritually, morally and physically healthy, to turn them into active participants in the ongoing reforms. It is advisable to use the ideology of national independence in shaping the outlook of the younger generation. After all, the main basis of national ideology is one of the main factors in the upbringing of the spirit of the younger generation. All general education schools are responsible for the upbringing and development of our children. These

assignments are a key factor in the development of all students' abilities, the creation of creative aspirations.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, "Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham g'oyat muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan". Kelajagimizning qanday bo'lishi hozirgi kundagi yoshlar tarbiyasiga bog'liq. Biz farzandimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan inson bo'lib, XXI asr talablariga javob beradigan, barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlarni va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz.

Respublikamizda umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatimizni asoslarini e'tiborga olib ta'lim-tarbiya mazmunini va milliy mafkurani shakllantirib boorish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bunga xalq og'zaki ijodi, pedagogikasi, mutafakkir, ma'rifatparvar pedagog va olimlarning tarbiyaga axloq-odobga doir g'oyalarini o'rgatib komil insonni ishlari amalga oshmoqda." Kelajak bugundan boshlanadi"³ deydi dono xalqimiz. Yosh avlodni kelgusi hayoti uni inson qilib ko'rsatuvchi ruhiy va ma'naviy jarayonning mezonini belgilaydi. Bu borada ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish ta'limni ilg'or tajribalar asosida boyitib borish, yangi pedagogic tajribalar asosida olib boorish ayniqsa muhimdir. Xalq musiqasi og'zaki ijodiyoti, an'analari, urf-odatlar asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish ularni ko'proq o'z millatini sevishga g'ururlanishga shorqano g'oya va ta'limotlarni o'rganib ularni kelajakka tadbiq etishga zamin yaratiladi. Mustaqil Respublikamizda milliy madaniyatimizni o'ziga xosligini tiklash, umumta'lim maktablarida o'quvchilarni badiiy, axloqiy tarbiyalash va kamol toptirish hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Ma'naviy yetuk millat qadriyatlarini to'g'ri baholashga va uni yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Demak, jamiyat ma'naviyatining o'sishi qadriyatlardan keng foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaratib, qadriyatlarni yanada rivojlantirishga zamin hozirlaydi. Qadriyatlar ta'rifidan kelib chiqib, umuminsoniy qadriyatlarni quyidagicha ta'riflash mumkin. Umuminsoniy qadriyatlar-millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq holdagi qadriyat shaklidir. Umuminsoniy qadriyatlar millatning tarixini yashash tarsi, ma'naviyati, madaniyati orqali namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonida umuminsoniy qadriyatlar ijtimoiy-tarixiy hodisani ifodalaydi. Ma'naviyat milliy urf-odatlar, tarbiya an'analari, axloq-odob aqidalari, e'tiqod, madaniy-ma'rifiy jarayonlar majmuasidir. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuchdir" deydi Birinchi yurtboshimiz I. A. Karimov o'z asarlarida.

Ma'naviy qadriyatlar-bu falsafiy va ijtimoiy tushunchalar bo'lib, insonni o'rab olgan atrof-muhitni amaliy jihatdan o'zlashtirish natijasida vujudga keladi. Ta'lim tarbiya jarayonida ma'naviy qadriyatlar ijtimoiy tarixiy hodisani ifodalaydi. Umuman xulosa qilib aytganda bugungi yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalashdan maqsad, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish bilan birga jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy salohiyatini ko'tarishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishuvi ta'lim va tarbiyani milliy shakllantirishga va rivojlantirishga keng yo'l ochib berdi. Milliy tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, adabiyot, etika, estetika, pedagogika, psixologiya kabi fanlardan foydalanadi. Milliy tarbiya hayotning mohiyati ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Bugungi kunda shunchaki bilim egasi bo'lgan yoshlar emas, ijodkor, iste'dodi bilan ajralib turuvchi o'quvchilarni tarbiyalash zamon talabidir. Maktabda ta'lim olish davrida milliy tarbiya o'quvchilarni turli qobiliyatlarini rivojlantiradi. Tabiatga, jamiyatga qarash tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch quvvatlari yanada mustahkamlanadi. Jiga kata e'tibor bergan O'rta Osiyolik mashhur musiqachilar orasidagi olim rBolaning Yoshi ulg'aygan sari bu faoliyat tobora ko'proq mustaqil xususiyatga ega bo'lib boraveradi. Tabiat va jamiyat turmushda uchraydigan hodisa va sharoitlarni tushunishga ham idrok etib o'z atrofida tilarga munosabatda bo'lishiga ko'nikib boradi.

Yoshlarning ta'lim-tarbiyasi har bir ota-onaning, o'qituvchi, tarbiyachining Vatan oldidagi muqaddas burchidir. Olib borilayotgan islohatlarning vazifasi Respublikamizda o'sib kelayotgan yosh avlodning orzu-istaklariga monand ta'lim tarbiyaning ham nazariy, ham amaliy muammolarini milliy qadriyatlar asosida to'g'ri hal etishga qaratilgan. Barkamol avlodni tarbiyalash g'oyat nozik san'at bo'lib, unga juda jiddiy yondashish kerak. Yosh avlodni dunyo qarashini shakllantirishda milliy istiqloq mafkurasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Negaki, milliy mafkuraning bosh negizi yosh avlod ruhini tarbiyalashdagi bosh omillaridan biridir. Farzandlarimizni tarbiyalash va ularning shaxsini har tomonlama kamol toptirish barcha umumta'lim maktablari zimmasiga yuklatilgan. Bu vazifalar o'quvchilarda barcha qobiliyatni o'sishiga, ijodiy intilishni vujudga keltirishga asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Ilg'or g'oyalarni davrimizda ro'y berayotgan o'zgarishlarni, shuningdek, tarixiy mavzularni zamonaviy ruhda tushuntirish o'g'il va qizlarda g'oyaviy e'tiqodni ma'naviy dunyoqarashni tarbiyalash uchun boy manba bo'lib hisoblanadi. Shundagina yosh avlod ruhiga his-hayajonli ta'sir ko'rsatadigan ularda mardlik, jasurlikni, tashabbuskorlikni tarbiyalaydigan mustahkam milliy tarbiya tizimi tarkib topadi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilar musiqa madaniyati, tarixi, urf-odatlarini, an'analarini bilan yaqindan tanishadilar. Vatanparvarlik tarbiyasining dolzarbligi xalqaro vaziyatning hafsizligi, uning mudofa quvvati, qurolli kuchlarni mustahkamligi, milliy birdamlik, ahlilik, hamdardlik kabi ma'naviy omillar bilan belgilanadi. Batanparvarlik deganda, ona zaminga bo'lgan muhabbat, uni sevishtirish, ardoqlash va uning ravnaqi uchun

g'amxo'rlik qilish tushuniladi. Vatanparvarlik jamiyatimizdagi barcha insonlarni, millat va elatlarni birlashtiruvchi muhim omil ekanligi hammamizga ma'lum. Vatanparvarlik deganda – Vatanga sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shish, milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish demakdir. “Vatan” arabcha so'zdan olingan bo'lib, “Ona yurt” degan ma'noni anglatadi. Vatan insonning kindik qoni to'kilgan, ajdodlarimiz tug'ilib o'sgan joyga hurmat, yurt tinchligini asrash va unga xizmat qilish kabi fazilatlar tushuniladi. Vatanparvarlik g'oyalarini o'quvchilarimiz ongida tarkib toptirish, oila, bog'cha, maktabdan boshlanadi. Bu jarayon bobolar o'giti, onalar mehri, otalar ibrat, ustozlar namunasi orqali amalga oshiriladi. Vatanparvarlik g'oyalarini o'quvchilar ongi va qalbiga singdirishda adabiyot, tasviriy san'at, musiqa, tarix fanlarining ahamiyati katta, chunki, musiqa tarbiyasi vositasida, o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash qo'shiqlar va turli-tuman mazmundagi musiqa sadolari bilan amalga oshiriladi. Aql-idrokni o'sib borishi bilan Vatan tuyg'usi kundalik odatdan iymon, e'tiqodga aylana boshlaydi. Vatanparvarlikni e'tiqodga aylanishi, har bir inson qalbiga ichki ma'naviyatining ifodasini belgilab beradi. Milliy Vatanparvarlik deganda esa biz o'zbek xalqining qoniga singib ketgan iymon va insof, mehr-muhabbat, oqibat, shavqat, or-nomus, ona yurtiga, o'z eliga sadoqat, axloqiy ma'naviy qadriyatlar yig'indisini tushunamiz.

Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Jumladan, maktabgacha ta'limning zamonaviy tizimi, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim joriy qilinmoqda, zamonaviy oliy ta'lim muassasalari hamda nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda.

Yoshlarning bandligini ta'minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish bo'yicha ishlarni mutlaqo yangi tizim asosida tashkil etish va amalga oshirish maqsadida “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi qabul qilindi.

Yoshlar bilan doimiy muloqot qilish mazkur sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash va hal etishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga, amalga oshirilgan ishlarning tahlili bu borada ayrim muammolar saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda. Xususan:

-birinchidan, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g'oya va qarashlarning salbiy ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarli darajada samara bermayapti;

-ikkinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, shuningdek, ekstremizm, terrorizm va

boshqa buzg'unchi g'oyalarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish yuzasidan davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyati hamon talab darajasida emas;

-uchinchidan, o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo'lgan madaniy-ko'ngilochar obyektlar, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta'lim to'garaklari, sport seksiyalarining yetishmasligi bolalarning sog'lom ruhda tarbiyalanishiga va to'g'ri hayot yo'lini tanlashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

-to'rtinchidan, o'qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqei va nufuzi pasayib ketganligi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi bugungi kun talabiga mutlaqo javob bermasligi yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash hamda mustaqil dunyoqarashini shakllantirish borasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda;

-beshinchidan, yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga qamrab olinish darajasi pastligi, yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi malakali kadrlarning yetishmasligiga va olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsadga to'liq erishilmasligiga sabab bo'lmoqda;

-oltinchidan, sohada qonun buzilishi holatlarining saqlanib qolayotganligi, shu jumladan, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga ajratilayotgan mablag'larning maqsadli sarflanishida nazoratning yetarli darajada emasligi tizimli muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

Qayd etilgan muammolarni bartaraf etish, yosh avlodni tarbiyalash borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, o'qituvchilik kasbining nufuzini oshirish maqsadida, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq:

1. Quyidagi ustuvor yo'nalishlarni nazarda tutuvchi Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi (keyingi o'rinlarda Dastur deb yuritiladi) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

-yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo'lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash;

-yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash;

-pedagog xodimlarning qadr-qimmatini va nufuzini oshirish, ularning moddiy-ma'naviy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;

-yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish;

-yoshlar jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish;

-o'quvchi-yoshlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ijtimoiy ehtiyojmand oilalar farzandlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur. T.2019-y. 23-avgustdagi videoselektor nutqidan.
2. SH.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi 2016-yil
3. SH.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak 2017-yil
4. O'ylaymiz, o'ynaymiz aqlimizni charxlaymiz. Toshkent. 2006.
5. Kaldibekova A.S., Xodjayev B.X. O'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari T., 2006.

TABIATGA EHTIROM AJDODLARDAN MEROS

Rashidova Saida Ravshonbek qizi

Guliston davlat universiteti

Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

3-kurs talabasi

Tayanch so'zlar: buyuk makon, nozu-ne'matlar maskani, bebaho qadriyat, ekalogik muammo, Qizil kitob, ekalogiya, jahon okeani, suv havzalari, ona tabiat.

Key words: great space, place of treasures, priceless value, environmental problem, Red Book, ecology, world ocean, water bodies, mother nature.

Ключевые слова: огромное пространство, сокровищница, бесценная ценность, экологическая проблема, Красная книга, экология, мировой океан, водоемы, матушка-природа.

Annotatsiya: Maqolamda asosan tabiatni sevishga unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga undaganman. Haqiqatdan ham atrofimizdagi tabiatga, ajoyib va qiziqarli narsalar ko'pligiga, undan odamlar naqadar ko'p boyliklar olishiga ishonch hosil qilasiz. Odamlar tabiatning boy in'omlaridan foydalanibgina qolmay uni muhofaza qilish va boyliklarini yanada ko'paytirishga harakat qiladilar. Tabiat bilan har doim hamnafas bo'lishimiz, uni xuddi onamizday ko'rishimiz kerakligini asosiy o'rinda qo'yganman.

Abstract: In my article, I mainly encouraged to love nature and treat it with care. You will be sure of the nature around us, the many wonderful and interesting things, and how many riches people can get from it. People try not only to use the rich gifts of nature, but also to protect it and increase their wealth. I put it in the main place that we should always be in harmony with nature, we should see it as our mother.

Аннотация: В своей статье я в основном призывал любить природу и относиться к ней бережно. Вы убедитесь в окружающей нас природе, в том, сколько всего прекрасного и интересного, и сколько богатств люди могут получить от нее. Люди стараются не только использовать богатые дары природы, но и беречь ее и приумножать свое богатство. Я ставлю на главное место то, что мы всегда должны быть в гармонии с природой, мы должны видеть в ней свою мать.

Tabiat - bu insoniyat yashashi uchun buyuk makon, nozu-ne'matlar manbai bo'lib, uni asrash har bir insonning burchi, bu borada xalqimiz uzining milliy-tarixiy an'alariga ega. Bu an'alar doimo rivojlantirilib, boyitib kelingan.

O'tmishdan ma'lumki, tabiat insoniyat uchun bebaho qadriyatdir. Tabiat, tug'ilish, yashash, o'sish-faoliyat maydoni. Inson tabiat bilan birga yashaydi, o'sadi, rivojlanadi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng tabiatni muxofaza qilishga oid ma'naviy qadriyatlar ham xalq hayotida to'laroq namoyon bo'la boshladi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda "Ekologiya" so'zi juda ommaviylashib ketdi. Ko'pincha atrof – muhitning nomaqbul holati haqida gapirganda bu so'z tez-tez tilga olinadi. Ba'zan bu atama "Jamiyat", "Oila", "Inson", "Salomatlik" kabi so'zlar bilan birgalikda ishlatiladi. Ekologiya biologiya fanlari turkumiga mansub bo'lib, hozirgi vaqtda mus-taqil fan sifatida shakllanadi. Shuningdek, bugungi kunda ekologiya fani ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanmoqda.

Ekologiya atamasi mazmunidan ham ma'lumki, butun tabiat o'z uyimiz. Demak, qilayotgan xatolarimizdan o'zimiz jabr ko'ramiz. Tabiatga bo'lgan mehrimiz ham kun kelib o'zimizga qaytadi.

Mexanik cho'kmalar nurash mahsulotlarining loyqa, chang, sudraluvchi va dumalovchi bo'laklar ko'rinishida muzliklar, shamol, daryo va dengiz suvlari ta'sirida siljishi va saralanishi natijasida hosil bo'ladi. Mexanik cho'kma konlarni ikki turga, ya'ni bo'lakli jins va sochma konlarga ajratish mumkin. Bulardan birinchisi qurilish mate-riallari sifatida, ikkinchisi esa, turli qimmatbaho minerallar sifatida sanoat ahamiyatiga ega.

Mustaqillik tufayli yurtimizda qadim-qadim zamonlarda kechgan davlatchilik taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotni atroflicha taxlil va tadbik etish imkoniyati vujudga keldi. Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekistonda bu muammoning yechimiga intilish uzoq tarixga ega. Zero, "Sivilizasiya belgilarini asrab-avaylash qanchalik zarur bo'lsa..., yer va suvni asrab-avaylash ham shunchalik muhimdir. Yer, havo, suv va olov (Quyosh) Markaziy Osiyoda qadimdan e'zozlab kelingan, ajdodlarimizning zardushtiylikdan tortib to islomgacha bo'lgan barcha dinlari tomonidan munosib kadrlab kelingan".

Tabiat va inson o'rtasidagi munosabat ma'lum bir qonunlar orqali boshqariladi. Ularga rioya qilmaslik ertami, kechmi, albatta ekologik halokatga olib keladi. Bu muammo o'zining insoniyatga keltirayotgan va keltirishi mumkin bo'lgan fojiali oqibatlarini jihatidan yadro urushi halokatidan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Inson tabiatning bir bo'lagi bo'lgan holda, u bilan munosabat orqali ekologik madaniyat shakllana borishi tufayli tabiatni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solishda uni boshqarish uchun tabiat qonunlarini kashf qilib kelgan. Ammo inson o'zining tabiatga ta'siri orqali undagi muvozanatni buzdi va tabiat hodisalarining davriy ketma-ketligini izdan chiqardi.

Xalqimizda "Buloq suvi qurimaguncha inson uning qadriga yetmaydi" degan ibratli maqol bor. Darhaqiqat, necha asrlar davomida inson o'zining taraqqiyoti jarayoni bilan birga ekologiya inqirozi jarayonini tezlashtirdi.

Qadim davrlarda ham ajdodlarimiz inson salomatligi, kayfiyati va barcha hayotiy jarayonlarning ob-havo va boshqa tabiiy hodislarga bog'liqligini yaxshi bilganlar. Inson salomatligiga tabiiy iqlim sofligining ta'siri haqida dastlabki yozma manbalar eramizdan avval paydo bo'lgan. Masalan, Hindistonda bundan 4000 yil avval quyosh nuri, momaqaldiraq va yomg'irlar tufayli o'simliklar shifobaxsh xususiyatga ega bo'lishi haqida yozib qoldirilgan. Qadimgi Yunon tib olimi Gippokrat o'zining "Aforizmlar" asarida odam organizmi yil mavsumlariga qarab turlicha bo'lishini yozib qoldirgan. Shu jumladan sharq allomalaridan Abu Ali Ibn Sino "Agar chang va g'ubor bo'lmaganida edi, inson ming yil yashagan bo'lar edi" degan edi.

Zardushtiylarning "Avesto" kitobida, sharq mutafakkirlari Farobiy, Beruniy asarlarida va umuman sharq falsafasida to'rt unsur-suv, havo, tuproq va olov muqaddas hisoblanganligi haqida aytib o'tilgan.

Agar e'tibor bersangiz, aksariyat jonivorlar faqat bir kunlik yegulik topish bilan cheklanadi. Ertaga yoki bir haftadan keyin iste'mol qilish uchun zaxira to'plash ular uchun mutlaqo yot. Har kuni ko'rganimiz qushlarga nazar solsak, ularning birortasi, masalan, kechqurun yeyish uchun don g'amlab qo'yganini ko'rmaganmiz. Odamlar-chi? Tabiatdan shuncha rizq –nasiba olayotgan, uning boyliklarini beminnat o'zlashtirayotgan shu odamlarning hammasi ham Ona tabiatni sevadimi, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'ladimi?! Afsuski, tug'ib voyaga yetkazgan onasini hurmat qilmaydigan, uning yuziga oyoq bosishdan toymaydigan nobakor farzandlar bo'lgani kabi, tabiatdan faqat olishga, uning boyliklarini behisob o'zlashtirishgagina o'rgangan kimsalar ham oramizda ko'pchilikni tashkil etadi. Bu xil kishilar nazarida tabiatning boyliklari hech qachon tugamaydi. Uni parvarish qilish, asrab-avaylash, unga g'amxo'rlik ko'rsatish ham shart emas. Bugun yer yuzida murakkab ekologik muammolar paydo bo'lmoqdaki, ular nafaqat ayrim davlatlar balki, butun insoniyatning kelgusi hayotini, mavjudiyat tirikligini xavf ostida qoldirmoqda. Bu kabi muammolar sirasiga atmosfera ozon qatlaminin yemirilishi, chuchuk suv zahiralarining kamayishi, "abadiy" muzliklarning eriyotgani, jahon okeanining va kosmik fazoning ifloslanishi, dunyo "Qizil kitobi"ga kiritilgan noyob o'simlik va hayvonlarning keskin kamayib borayotgani va boshqa ko'plab holatlarni kiritish mumkin.

Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy madaniyati xalqni atrof muxitga nisbatan ekologik madaniyatining ko'pkirrali bo'lganligini ko'rsatadi. U tarixan taraqqiy etib kelgan insoniyat tajribalari davomiyligining muhim omili bo'lganligidan darak beradi.

Ekologik madaniyat nima? Bu atrof-muhit to'g'risid chuqur bilimga, tabiatni asrash tuyg'usiga ega bo'lish, o'simliklar hamda hayvonlarga nisbatan g'amxo'rlik

ko'rsatishga, tabiat zahiralardan oqilona foydalanish, ularni ko'paytirish borasida qayg'urishga qaratilgan amaliy faoliyatning yuksak ko'rsatkichidir. Iste'moldan ortiqcha suv jo'mraklardan oqishiga yo'l qo'ymaslik, suv havzalarini ifloslantirmaslik, axlatni duch kelgan joyga to'kmaslik, turar-joylarni ozoda saqlash, hayvonlarga g'amxo'rlik qilish, qushlarni parvarishlash kabi harakatlarni amalga oshirish ekologik madaniyatning eng oddiy ko'rinishlari sanaladi. Bu muammolar bir qaraganda juda jo'n bo'lib ko'rinishi mumkin, aslida esa muammolarning boshlanishi ana shunday biz e'tibor qaratmaydigan "mayda" muammolardan kelib chiqadi.

XX asr o'rtalarida fan-texnika sohasida ro'y bergan inqilobiy o'zgarishlar inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarga kuchli ta'sir ko'rsata boshladi. Tabiatshunoslik sohasida erishilgan buyuk yutuqlar, biotexnologiya va geninjeneriyaning rivojlanishi inson hayotini yaxshilash uchun qator qulayliklar yaratibgina qolmay, murakkab muammolarni ham keltirib chiqardi: qudratli texnika yordamida tabiatning jadal o'zlashtirilishi ekologik inqiroz vujudga kelishiga, tabiiy energetika manbalarining keskin kamayishiga, atmosferaning zaharlanishiga, juda ko'plab noyob o'simlik va hayvonlar turining qirilib ketishiga olib keldi. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni ilmiy asosda tadqiq etish, ekologik ong va madaniyatni rivojlantirish, yangi texnologiyalarning ekologik xavfsizligini ta'minlash, har bir ilmiy kashfiyotning oqibati uchun olimning shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish, fan etikasi kabi omillar jiddiy hayotiy muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

XX asr boshlarida N. Berdiyayev, O. Shpengler singari buyuk muta-fakkirlar fan-texnika inqilobining xatarli oqibatlari Yevropa madaniya-tining umumiy inqirozi bilan bog'liq ekanligini alohida ta'kidlagan edilar. Fan-texnika ravnaqi inson va tabiat o'rtasida yangicha munosabatlarni shakllantirishni, ekologik madaniyatni rivojlantirishni talab eta boshladi. Oliy o'quv yurtlarida ekolog-mutaxassislar tayyorlash, ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya sifati va samaradorligini oshirish ulug' ajdodlarimizning yer, suv, o'simlik va hayvonot olamini avaylab-asrashga da'vat etuvchi ma'naviy qadriyatlarini tiklash — ekologik madaniyatni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridir. qator rivojlangan mamlakatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish uchun faol kurashayotgan «yashillar partiyasi» tajribasini o'rganish, ekologik toza hududlar vujudga keltirish, ayniqsa, muhimdir.

Milliy mustaqillik xalqimizning umummilliy madaniyati rivojida yangi davrni boshlab berdi. Mustabid sovet tuzumi davrida xalq xo'jaligining ekstensiv yo'l bilan rivojlantirilishi, qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirishga zo'r berilishi, mo'l hosil yetishtirish uchun yer, tuproq, suv va havoning zaharlanishi singari salbiy holatlarni bartaraf etish, Orol dengiziiii halokatdan saqlab qolish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Prezident I. A. Karimovning qator asarlarida, nutq va maqolalarida ekologik xavf-xatarlarni bartaraf etishning asosiy yocnalishlari belgilab berildi.

Milliy xavfsizligimizga jiddiy tahdid solayotgan ekologik inqirozlarni oqilona bartaraf etishda xalqimizning ekologik madaniyatini yuksaltirish, ayniqsa, muhimdir. «Tabiatga qo'pol va takabburlarcha munosabatda bo'lishga yo'l qo'yib bo'lmaydi, — deb yozadi I. A. Karimov. — Biz bu borada achchiq tajribaga egamiz. Bunday munosabatni tabiat kechirmaydi. Inson — tabiatning xo'jayini, degan soxta sotsialistik mafkuraviy davo, ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida ko'plab odamlar, bir qancha xalqlar va millatlarning hayoti uchun fojiga aylandi. Ularni qirilib ketish, genofondning yo'q bo'lib ketishi yoqasiga keltirib qo'ydi»¹.

Xullas, madaniyat va tabiat bir-biri bilan uzviy bog'liqdir: madaniyat rivoji tabiat taraqqiyotini tezlashtiradi, tabiat esa, o'z navbatida, mada-niyatning ravnaqi uchun moddiy asos bo'lib xizmat qiladi. Tabiatga bo'lgan munosabat insoniyat madaniy taraqqiyotining o'ziga xos mezon hisoblanadi. Turli tarixiy davrlarda madaniyatning tabiatga ta'siri turlicha mazmun va xarakterga ega bo'lgan. Ijtimoiy mulkchilik munosabatlari hukm surgan sotsialistik jamiyatda tabiatga nisbatan shafqatsizlik, uni talon-taroj qilish odatiy holga aylandi. Xususiyl mulkchilik, tadbirkorlikning rivojlanishi, milliy mustaqillikni mustahkamlash sharoitida tabiatga insonlarcha madaniy munosabatda bo'lish, uning ne'matlaridan oqilona foydalanish, ekologik madaniyatni rivojlantirish milliy taraqqiyot asosi bo'lib qoldi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, tabiat insonlarning barcha moddiy va ma'naviy, ruhiy ehtiyojlarini qondiruvchi asosiy manbadir. Shunday ekan, tabiat bizga emas, biz tabiatga muhtojmiz! Tabiatni asrash va undan oqilona foydalanish barchamizning muqaddas va konstitutsiyaviy burchimizdir. Zero, ona tabiat ajdodlardan qolgan meros emas, balki avlodlardan olingan va kelajak uchun qoldirishimiz zarur bo'lgan boylikdir!

ANALYSIS OF THE CONCEPT OF "BEAUTY" IN UZBEK AND ENGLISH LINGUISTICS

RANO IKRAMOVA

*Lecturer, Uzbekistan State
University of World Languages***Abstract**

In this article analyzes the understanding of the philosophical-aesthetic essence of "beauty". The problem of analyzing the expression of the concept of "beauty" in language (in English and Uzbek national cultures) has not been studied from the point of view of cognitive linguistics and linguistic culturology. The relevance of the article is determined by the study of the aesthetic landscape of the world in the English and Uzbek languages, the possibilities of expressing and reflecting the concept of "beauty" in the phraseological and lexical layers of the language, cultural characteristics and cognitive linguistics, linguoculturology, general linguistics.

Keywords: *language, picture of the world, concept, value, cognitive linguistics, beauty, the ethno-cultural features, inner beauty.*

Introduction: Research on the basis of the language-speech dichotomy of the concept "beauty", which received the status of an aesthetic category in the framework of some languages is one of them. In contemporary linguistics the language is studied in conjunction with the culture, values and thinking of the individual, it becomes necessary to study the concept of "beauty" in the framework of axiological theories and anthropocentric paradigms. In this regard, the question of a complete study of the expression of the concept of "beauty" in English and Uzbek national cultures from the point of view of linguistic culturology and cognitive linguistics has not been an object of study to this day. Consequently, the aesthetic picture of the world in English and Uzbek, the definition of values in various cultures, the expression of the concept of "beauty" in the phraseological and lexical planes of the language, the possibility of its manifestation, a comparative analysis of linguocultural features and study within the framework of linguoculturology demonstrate the importance of the research. In English and Uzbek national cultures, values are the main components of concepts. Such an approach has created in our country, as well as in world linguistics, a school for the analysis of national languages from the point of view of anthropocentricity. Taking into account modern concepts, the concept of Beauty is based on a triple of the main components - values, thinking, language. Being a rational being, a person animates "beauty" in his own consciousness, that is, evaluates, values and expresses it through signs with the help of mental units, which has material value, creates frames - a

knowledge system in the process of transmission from generation to generation, or forms another conscious stone frame slot. For this slot frame can not be found in other national cultures.

Material and methods: The scientist considers integrity an important element of beauty, which implies the correspondence of content with form. The consideration of integrity (gestalt) as an important element in the perception of beauty is not the rejection of parts, but the perception of consciousness of integrity under the influence of parts. If we consider beauty from an objective point of view as part of nature, we will find where exactly we can see it, or how nature expresses it. And only a rational being can understand it, and not only understand, but also feel it. An unconscious and inanimate being is not capable of this. For example, a stone cannot realize the beauty of a stone. And a person can distinguish one stone from another. Evaluation of one stone above the second indicates the value of the first for a person. Because the value factor plays an important role in the concept of culture.

First of all, the individual himself evaluates a social phenomenon and forms a national consciousness. Thus, a person in his thinking animates beauty, that is, evaluates and expresses it with the help of symbols through mental units. This gains value and creates a system of knowledge - frames in the process of transmission from generation to generation, or forms another aesthetic slot in the Uzbek consciousness. This frame slot may not be found in other national cultures. I. Literature Review Most studies in the direction of anthropocentrism define the picture of the world: A.E. Mamatov writes: "The picture of the world is of paramount importance for human communication, ... in the linguistic picture of the world, a person is the main figure. The whole diverse picture of the world, the whole human life is reflected in the language and remains the meaning of communication".

According to the Russian linguist V.I. Karasik, the linguistic and cultural direction is appropriate in understanding the concept and picture of the world, since the concept is the main unit of culture.

According to the German philosopher G. Rickert, if science wants to distinguish culture from natural signs, and first of all, it should be based on the principle of values. The knowledge of a person accumulated over his entire life is reflected in consciousness, and the idea has repeatedly been expressed that mental representation reflects national cultural activity. In particular, V. Humboldt believed that "The internal structure and originality of one language is a phenomenon directly related to the ability of the spirit of a nation to see originality", N.F. Alefirenko says that "Language is fixed important for the bearers of this culture objects that are reflected for world consciousness, linguistic consciousness captures what seems to be especially significant for a given linguistic culture ". He also emphasizes that the national-

cultural, value picture can be presented as a field. And he comes to the conclusion that its core is the national cognitive base”.

According to Sh. Safarov: “A concept that occupies the central shell of the semantic structure of a word, in relation to content and scale, as well as the meaning itself, has a national tendency. As evidence, he points to existing differences in the linguistic names of individual objects and events in different languages. We believe that the indicated positions seem quite justified and the proposed author’s interpretation of the semantic field of national values is a key basis for the lexical-semantic space, as well as a motive for creating this space.

Method of conceptual analysis, method of component analysis, comparative and cross-cultural methods are the main methods to shed light to the investigation of Language and culture. Various objects, concepts and phenomena have a certain value in accordance with the general essence and level of need for a human being. Sometimes in one subject both value and flaw can be embodied. The explication of the theory of the semantic field of national values consists in the fact that the lack of words in the lexical-semantic field of the concept of beauty was illustrated in the work to explain the content of the concept of beauty. The values of Beauty in one national culture can cause hedonistic (like / dislike), normative (right / wrong), ethical (moral/ immoral), psychological (interesting / uninteresting, pleasant / unpleasant) or xenological (acquaintance, friend / stranger, stranger) feelings in another national culture [Khusanov, 2004, p.12]. For example, the Uzbek folk proverb Yerga Rosh, kizga kosh (the Earth - berm, the girl - eyebrows) may not provide anything for understanding for the English people or may even create a dissonance. There is a core and periphery of this field. The core is created on the basis of the cognitive base, and the periphery as a result of the formation of prototypes of national values, signs and symbols and newly formed values.

Result and discussion: The analysis of lexical units related to the concept of “beauty” in English and Uzbek is very important. Including nouns in English: beauty, beau, and others, adjectives: Beautiful, pretty, handsome and others, verbs: to beautify, to adorn, to ornament and others; in Uzbek dictionaries: nouns: go‘zallik, husn, chixra, and others, adjectives: go‘zal, chiroyli and others, verbs: chiroy ochmoq, ko‘rkamlashmoq and others;

In the same way, we analyzed the values in the semantic field of national values “beauty” in all three languages and divided them into thematic groups: 1. Possession of beauty, 2. Attracting power, good phenomenon, desired by heart and soul, 3. Pure and without flaws, 4. Unprecedented, amazing, 5. Animals, birds, insects and others. The language uses characteristic images to verbalize the categories of all three languages.

English the same category is verbalized using images of daisy, lily, damask rose. “The peculiarity of the expression of the conceptual field of beauty in English and Uzbek cultures” analyzes the features of the expression of the concept of beauty in literary texts, in the texts of the Koran, the reflection of the concept of Beauty in the Bible based on the theory of conceptual metaphor. Beauty can be verbalized in the following 5 cases in a lexical and grammatical identity: 1) Assessment of the appearance of a person and other objects; 2) A value judging through hearing; 3) A value that aesthetically evaluates human movements; 4) Expresses pleasant personal experiences through the sense of smell, taste and tactile sensations (prototype characteristic of the English language); 5) A value that aesthetically positively evaluates the moral aspects of man. Each situation above has its own frame, because grammatical and lexical forms and categories exist as frame pointers. So the above 4-case, being a characteristic feature of the English language, is reflected in the speech with the help of the phrases taste beautiful, find attractive, feels beautiful and forms frames that are distinctive from the Uzbek language.

For example: 1. Beautiful, guzal, zebo 1. Expresses the beauty of which the object possesses. Its frame: Subject - to see (symbolic and traditionally semantic signals) - object - sensation.

- This object is nice, nice;
- I like its structure and it has good signals and signs;
- And so I feel good (I admire, smile).

The above emotional processes are pronounced in conceptual metaphors. The idea of J. Lakoff and M. Johnson also confirms the formation of the conceptual figurative content of the metaphorical concept. In the conceptually metaphorical theory of J. Lakoff, M. Johnson, Gerard Steen, Raymond Gibbs, N.D. Arutyunova, V. Telia, A. Vezhbitskaya, D.U. Ashurova, M.R. Gallieva metaphor is a cognitive process and is reflected in the language. The metaphor is the key to the foundations of thinking, as well as the creator of the national identity of the universe and the universal image. In the process of scientific research, 22 different types of metaphors were revealed to express the concept of beauty. These are: light, color, paint; love, magic power, kindness; magnet, temperature, fire; flower and others. W.Shakespeare presents beauty as a conceptual metaphor for light and a bright ray. From the point of view of the XVI-XVII centuries, it appears in the form of fiery lanterns and an imaginary mixture (blend) is formed, that is, an imaginary square point with lit lanterns. Romeo's courtesy of Juliet is also created on this point of view “Thou dost teach the torch to burn bright”. Blends, that is, imaginary mixtures that shaped Romeo's speech: luminous beauty - a teacher; a lantern is a student. And secondary mixtures prepare the basis for creating an individual metaphor characteristic of the author, through the conceptual metaphor of beauty, ray. Such a conceptual picture of the author's world as thy shadow ... like a

jewel hung in ghastly night; I tell the day, to please him thou art bright; when sparkling stars twire not thou gilds the heaven in his sonnets paves the way for the formation of new metaphors and the strengthening of the beauty metaphor light, ray as a conceptual metaphor (twinkling blue eyes). As a result of this orientation metaphor, beauty –up will be expressed in phrases: pin up girl; doll up; make up. In fiction when describing beauty, not only words are used that are included in the lexical semantic field of beauty. When describing parts of the body, the concept of beauty was formed, effectively using images of the semantic field of national semantic values of beauty.

Conclusion: The picture of the world is reflected in the value system. This creates a criterion for actions and priorities as an important component in a system that serves to comprehend reality. The most important characteristic of aesthetic assessment is that it manifests itself depending on the parameters of the characteristics of the world, which has a subjective value, and not depending on the objective nature of reality. The process of realization in speech is the result of the classification of religious and national values of the people. Signs of objects can be verbalized using images of nature, space, social imaginations and create a semantic field of national values. In this way:

a) The words in the core of the English lexical semantic field are borrowed from French and Latin, the words on the periphery of the Uzbek lexicosemantic field are borrowed from Turkish and Arabic, the words of the Turkish field are borrowed from the Arabic language.

b) Linguistic features of the Uzbek language, that is, stylistic, and word-forming characteristics contribute to simplifying the verbalization of the concept of “beauty”.

c) In all three national cultures, beauty is an intense emotional positive assessment and has a universal purpose to arouse feelings of joy.

d) receiving the pleasures of all three national cultures from different values and their choice of different images in the process of verbalization in the language are the hallmarks of national cultures.

e) According to the etymological analysis, the presence of “good, positive sem” in lexical units is a universal feature of the English and Uzbek national cultures. In the Uzbek language, one can notice a transition from a concrete meaning to an abstract, while in the English language there is a formation of an aesthetic assessment from a general positive assessment.

Xodimlarning bakleriologik tashuvchilik muammosini ham esda tutish kerak. Bunda burun-halqumdan, siydik yo‘llari, qin va to‘g‘ri ichakdan qo‘zg‘atuvchilar ajralishi katta rol o‘ynaydi. Xodimlar ko‘pincha (50—60%) tillarang stafilokokk tashuvchilari bo‘lib, erkak tashuvchilar ayollardan 10 marta ko‘proq uchraydi. Stafilokokk doim odam terisida (qo‘l panjasida, qo‘ltiq ostida, tana, boshning sochli qismida) joylashgan bo‘ladi.

Olimlarning fikricha, bakteriyalarning asosiy qismi operatsiya xonasi, bog‘lov xonalari havosiga burun-halqumdan emas, balki xodimlar terisidan tushadi. Tekshirish natijasiga ko‘ra, keyingi yillarda qo‘zg‘atuvchilar tuzilishida ancha o‘zgarishlar kuzatilgan. Avvallari tillarang stafilokokk asosiy qo‘zg‘atuvchi deb hisoblansa, hozir grammanfiy shartli patogen mikroorganizmlar asosiy hisoblanadi. Bular protey, ko‘k yiring tayoqchasi, klebsiyellalar, sitrbakter va boshqalardir. Bu mikroorganizmlar oziq vositalari bo‘lgan joylarda (rakovina, vanna, dori vositalari, malhamlar, fiziologik eritmalarda) yashab rivojlanish xususiyatiga ega. Xodimlar qo‘li faqat bemorlar bilan ishlashda emas, balki tibbiy buyumlar va tozalash buyumlari bilan ishlashda ham ifloslanadi. Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, grammanfiy flora keltirib chiqargan infeksiya rivojlanishi, xodimlar qo‘lida bo‘lgan mikroorganizmlar bilan bog‘liq bo‘lib, qo‘shimcha enterobakteriyalarni tashkil qiladi.

Shifoxonadagi infeksiyani qo‘zg‘atuvchilar ta’rifi va ular yuqadigan yollar

Infeksiya qo'zg'atuvchilarining yuqish yo'lini tushunib olishdan avval ular bilan tanishish kerak. Bu ta'rif quyidagi jadvalda keltirilgan.

Grammanfiy va grammusbat mikroorganizmlarning qiyosiy ta'rifi

Grammanfiy (enterobakteriyalar)	Grammusbat (kokklar)
Klebsiyelalar, ichak tayoqchasi, protey, sitrobakter va boshqalar	Tillarang va epidermal stafllakokk, streptokokkva boshqalar

Joylashishi Tabiiy yashash joyi

Ichak, siydikva nafas yo'lla- rining shilliq qavati	Yuqori nafas yo'llari Teri
---	----------------------------

Tashqi muhitdan saqlanishi

Bir necha daqiqada nobud bo'ladi	Yashash xossasi saqlanib qoladi
Tashqi muhitdagi rezervuar—nam lattada, qo'l yuvish cho'tkalarida, nafas apparatlarida, eritmalar- da, rakovinada, jo'mraklarda, nam va namlanib turadigan yuzalarda	Tashqi muhitdagi rezervuar — teri, bemorlarning parvarish bu- yumlari, mebel, o'rin-ko'rpa, kiyim-kechakda

Atrof-muhitdagi buyumlarda ko'payishi

Tashqi muhitda, organizmdan tashqari ochilgan suyuq dorilarda, past konsentratsiyadagi dezinfeksion eritmalarda ko'payadi	Tashqi muhitda faqat noto'g'ri saqlangan oziq-ovqatda ko'payadi
---	---

O'tish mexanizmi

Kontakt-maishiy yo'l, havo-tomchi yo'li	Havo-tomchi yo'li, kontakt- maishiy yo'l
---	--

Quyidagi jadvalda kasalxonadagi infeksiya manbayi keltirilgan

Mikroorga- nizm	Tashqi muhitdagi rezervuar	Odam organizmidagi rezervuar	Infeksiya ning joylashishi
--------------------	----------------------------------	------------------------------------	-------------------------------

Klebsiyella	Sun'iy nafas jihozlari	Hiqildoq, ichak, siydik yo'llarida	Nafas yo'llari, jarohatlar, siydik yo'llari, qon, ichak
Entrobakteriya	Infuzion suyuqliklar, SUV	Qo'l, ichak, siydik yo'llari	Nafas yo'llari, qon, siydik yo'llari
Serratsiya	Sun'iy nafas jihozlari	Qo'l, siydik yo'llari	Siydik yo'llari, qon, nafas yo'llari, jarohatlar
Ko'kyiring tayoqchasi	Suv, dez erit-malar, sun'iy nafas jihozlari	Qo'l, hiqildoq, ichak, siydik yo'llari	Siydik yo'llari, jarohatlar, nafas yo'llari
Protey	Suv	Qo'l, siydik yo'llari	Qon, siydik yo'llari, jarohatlar
Sitrobakter	Suv	Qo'l	Qon, miya pardalari, siydik yo'llari, jarohatlar
Tillarang va epidermal stafillokokk	Yo'q	Qo'l, buran bo'shlig'i	Qon, jarohat, ifloslangan asboblar
Difteroid-Lar	Yo'q	Qo'l	Qon, ifloslangan asboblar
Atipikmikobakteriya	Vodoprovod suvi, ifloslangan respirator lar	Nafas yo'llari ajralmasi	Jarohatlar

Jadvaldagi malumot tahlil qilinganda, mikroorganizm rezervuari, asosan, qon, siydik, najas hisoblanadi. Bemor va xodimlarning sanitariya madaniyatining pastligi, davolash-profilaktika muassasalarida sanitariya-gigiyena rejimining buzilishi kasalxonadagi infeksiyaning vaqt-vaqti bilan ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra, yiringli xastalar kardioxirurgiya bolimida umumiy bemorlarning 26—55% ni, travmatologiya bolimida 45—70% ni, urologiya va jadal terapiya bo'limlarida 30% dan ortiqrogini tashkil qiladi.

Shifoxonadagi infeksiya chaqaloqlar o'limining ortishiga sabab bo'ladi.

Ko'pincha patogen mikroblar xodimlarning ifloslangan qoli va yaxshilab dezinfeksiya va sterilizatsiya qilinmagan buyumlar orqali yuqishini quyidagi ma'lumotlardan ko'rish mumkin

Xavf guruhlari

Ko‘pincha davolash muassasasiga biror kasallik bilan yotqizilgan bemorga davolanishi davrida boshqa patogen faktor keltirib chiqargan superinfeksiya yuqtirish mumkin. Bu superinfeksiya dori vositalariga nisbatan chidamliligi va turg'unligi bilan farq qiladi. Masalan, shifoxonaga qandli diabet bilan yotqizilgan trofik yarali bemor yarasida bakteriologik tekshiruvlarda tillarang stafilokokk, birmuncha vaqtdan keyin yana tekshirib ko'rilganda ko'k yiring tayoqchasi borligi aniqlansa, kasallik rivojlanib, bakteriyemiyaga sabab bo'ladi. Bu vaqtda ikkilamchi infeksiyaning rivojlanishi haqida o'ylash kerak.

Shifoxonadagi infeksiya tarqalish xatari bo'yicha urologiya, kuyish bo'limlari birinchi o'rinda turadi. Jarrolilik bo'limlarida yotgan bemorlar nafas yo'llari infeksiyasiga ko'proq chalinadi. Ichak infeksiyasi parvarish buyumlari, xodimlar qo'li, kamdan kam holatlarda havo yo'li bilan o'tishi mumkin. Shifoxonada kuzatiladigan salmonellyoz esa palatalarda bemorni zich joylashtirish, bemorlar palata hamda davolash muassasasi bo'limlarida ko'chib yurishi natijasida kelib chiqadi.

Kasallik natijasida bemorlarda immunitetning pasayishi, uzoq vaqt antibiotiklar bilan davolanish tananing me'yoriy florasi o'zgarishiga sabab bo'lib, ulaming infeksiyaga moyilligini oshiri- shi hammaga ma'lum. Acliitqi zamburug'lari og'iz bo'shlig'i kasalliklarini, qin kasalliklarini keltirib chiqaradi.

Reanimatsiya (jonlantirish) va jadal terapiya bo'limlari ham o'ta xavfli hisoblanadi. Bu bo'limlarda, bir tomondan, havo- tomchi yo'li bilan, ikkinchi tomondan, bevosita va turli parva- risih buyumlari, ko'rpa, yostiq jildlar, bog'lov materiallari, asboblar, apparatlar orqali infeksiya yuqishi mumkin. Bir bemordan ikkinchisiga infeksiya yuqishida xodimlar qo'li alohida ahamiyat kasb etadi. Ko'pincha bu bo'limlarda tomirlar kateterizatsiyasi bilan bogliq bo'lgan flebitlar kuzatiladi. Shuning uchun kateter- lar bilan ishlaganda, parvarish qilish ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilish kerak.

Oldini olish va nazorat choralari

Shifoxonadagi infeksiyaning oldini olish uchun bemor parvarishini ta'minlashda va davo tashxisi muolajalarini bajarishda faqal aseptika qoidalariga qat'iy rioya qilish talab etiladi. Xodimlar qo'li infeksiya tarqalishi sababchisi ekan, qo'lni tozalashni bilish va unga katta mas'uliyat bilan qarash kerak.

Xodim muolajadan oldin va keyin qo'lini qanday yuvishi kerakligi haqida

Ma'lumki, qo'l terisida doimiy va vaqtincha o'rnashgan mikroorganizmlardan iborat mikroflora mavjud. Doimiy terida yashab, ko'payib boraveradi, vaqtinchaliklari esa ifloslanish natijasida paydo bo'ladi. Teri yuzasida 80—90% mikroorganizm bo'lib, qolganlari terming chuqur qatlamlarida joylashadi. Qo'l oddiy sovun bilan yuvilganda teridagi vaqtinchalik mikroflora

yo‘qoladi, qo‘ldagi doimiy mikroorganizmlarni yo‘qotish uchun esa bakteritsid sovun ishlatiladi. Doimiy mikroorganizmlarning ko‘pgina qismi, teri kasalliklaridan tashqari, boshqa infeksiyaga sabab bo‘lmaydi. Ular to‘qimalarga chuqurroq o‘tib, immunitet susayib ketgandagina patogen omil sifatida kasalxonadagi infeksiyaga sabab bo‘ladi. Xodimlar va bemorlar terisidagi vaqtinchalik mikroorganizmlar esa kasalxonadagi infeksiyaga sabab bo‘ladi.

Internet saytlari ro‘yxatlar

1. www.med.uz
2. www.lex.uz
3. www.wikipedia.uz
4. www.medicum.ru
5. www.medtext.ru
6. www.doktor.ru
7. www.mirmed

**MAGNIT BO'RONLARI VA UNI INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI
MAVZUSINI KASBGA YO'NALTIRISH****Roziyeva Mehriniso Mirzayevna***Qarshi tuman 1- sonli kasb hunar maktabi
fizika va astranomiya fani oqituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqola fizika va astranomiya fanidan ta'lim berish sifatini oshirish maqsadida magnit bo'ronlari va uni inson salomatligiga ta'siri mavzusini kasbga yo'naltirish borasida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar:

KIRISH**ASOSIY QISM**

Mustaqil O'zbekistonda ta'lim tizimida talabalarni tarbiyasiga nisbatan qo'yayotgan eng muxim talablardan biri, layoqatli, ijodiy va mustaqil fikrlovchi, shaxslararo munosabatlarni tashkil qilishga o'quvli mutaxassislarni tarbiyalashdan iboratdir.

Zero, bugungi globallashuv davrida yuksak texnologiyalarni boshqarishga layoqatli mutaxassislarni etishtirishga erishilsa, ezgu niyatlar ijtimoiy hayotda qaror topgan bo'lar edi¹.

Ijtimoiy taraqqiyotni ro'yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko'tarmoq lozim, fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o'z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan, raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og'ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatatsharvar, iymon-e'tiqodli insonlar bo'lib voyaga etishadi².

Buning uchun uzluksiz ta'lim tizimining barcha jabhalarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ahamiyati kattadir.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda faoliyat masalasi muhim masala xisoblanadi. Jonli mavjudotni muayyan tarzda va muayyan yo'nalishda xarakat qilishga undaydigan extiyojlar shaxsning faolligi manbai bo'lib xisoblanadi. Extiyoj – jonli mavjudotning xayot kechirishning konkret shart-sharoitlariga uning qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi xolatidir.

¹ Xaydarov F.I., Xalilova N.I. "Umumiy psixologiya". - Toshkent: Mumtoz so'z, 2019. – 97 b

² G'oziev E.G'. Ontogenez psixologiyasi - Toshkent: Noshir, 2018. - 73 b.

Yer atrofida magnit maydoni mavjudligi insonlarga juda qadimdan malumdır. Shuning uchun ham Yerni juda katta magnitga o'xshatish yoki Yer markazida joylashgan ML magnit dipoli mavjud deb qarash mumkin. Bu magnit dipolning magnit qutblari Yerning geografik qutblariga yaqin joylashgan. Lekin Yerning magnit maydonining janubiy qutbi (S) shimoliy (Sh) geografik qutbga yaqin, shimoliy qutbi (L) uning janubiy (J) geografik kutbiga yaqin joylashgan³.

Yer sirtida shunday joylar borki, bu joylarda magnit maydoni induktsiyasi boshqa joylardagi maydon induktsiyasidan keskin farq qiladi. Bunday joylar magnit anomaliyasi mavjud bo'lgan joylar deyiladi. Magnit anomaliyasining mavjudligi shu joylarda temir rudasi to'planganligini bildiradi. Yer sharining har bir nuqtasidagi Yer magnetizmi elementlari vaqt o'tishi bilan asta-sekin o'zgarib borishi mumkin. Ammo, shunday paytlar bo'ladiki, Yerning magnit maydoni bir necha soat ichida keskin o'zgaradi. Bu hodisaga magnit bo'roni deyiladi. Magnit bo'ronining vujudga kelishi Quyosh aktivligining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, Yer sharoitidagi hayotga salbiy ta'sir etishi mumkin⁴.

Yerning magnit maydonini tadqiq qiluvchi juda ko'p asboblardan biri va eng oddiy kompasdir. Kompas Br N α S vertikal o'q atrofida aylana oladigan magnit strelka bo'lib o'q atrofida aylanishi magnit maydon induktsiyasining gorizont talashkil etuvchisi (Br ϖ) ning ta'siriga asoslangan. Bu ta'sir natijasida kompas strelkasining bir uchi shimolni (Sh) ikkinchi uchi janubni (J) ko'rsatadi⁵.

Kishining faolligi extiyojlarning qondirilishi jarayonida namoyon bo'ladi. Kishining extiyoji uni tarbiyalash jarayonida shakllanadi. Demak, kishining o'z extiyojlarini qondirish jarayoni ijtimoiy taraqqiyot bilan belgilanadigan faoliyat shakli egallashning faol, muayyan maksadga yo'naltirilgan jarayon sifatida aloxida ajralib turadi.

Inson kasb faolligida «xarakat», «faoliyat», «xulq» tushunchalari bilan chambarchas bog'liq. Shaxs aynan turli kasb faolliklar doirasida shakllanadi, o'zligini namoyon qiladi xam. Demak, kasb faolligi yoki inson kasb faoliyati passiv jarayon bo'lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson kasb faolligini mujassamlashtiruvchi xarakatlar jarayoni kasb faoliyati deb yuritiladi.

8-9 sinf o'quvchilarida kasbga yo'naltirish ishlari mazmuni shaxsning ma'naviy xislatlari va jamiyat oldidagi burchi javobgarlik xislatlarini shakllantirish bilan ajralib turadi. Bu esa ulardan mustaqillik, tashabbus bilan chiqish, mustaqil qaror qabil qilish xatti-xarakatlari natijasini bilishi va faoliyatini nimaga olib kelishini sezishi bilan belgilanadi.

³ Nazarov O'.Q. «Umumiy fizika kursi» 2-qism (Elektr va elektromagnetizm) 2021.

⁴ Safarov A.S. «Umumiy fizika kursi» (Elektromagnetizm va to'lqinlar), Toshkent, «O'qituvchi», 2022 yil.

⁵ V.I. Kozlov. Obshiy fizicheskiy praktikum. Elektrichestvo i magnetizm Moskva, 2017 g.

8-9 sinf o'quvchilarida oldingi bosqichlarda olgan bilimlari va tajribalari asosida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha kasbga yo'naltirish faoliyat amalga oshiriladi.

1. O'quv va maxsus fanlarni chuqur o'rganish asosida;
2. Diqqatini tanlagan faoliyatida kasbiy muxim sifatlarini shakllantiririshida;
3. Kasbiy rejalari ustidan nazorat va ularni asoslanish darajasini ochib berishda;
4. Kasbiy faoliyatga o'zini tayyorlash yo'llari, o'ziga tashxis qo'yish, natijalarini baxolashda;
5. Ijtimoiy kasbiy ko'nikish, kasbni tanlash sabablari, kasbiy yo'nalish asoslari shakllanishida⁶.

XULOSA

O'quvchilarni ta'lim tizimida mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb-hunarini o'z qobiliyatlariga yarasha to'g'ri kasb tanlashlariga erishish uchun maktab o'qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik (shuningdek, akademik, tashkilotchilik, pertseptiv va h.k.) qobiliyatlari yuksak bo'lishi, fan asoslarini turmush bilan bog'lab o'rganilishi, to'garak va qo'shimcha, yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb-hunar to'g'risida ma'ruzalar o'qilishi, suhbatlar, munozaralar o'tkazilishi, sayohatlar, uchrashuvlar, kasb-hunar fotoko'rgazmalari tashkil qilishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. "Umumiy psixologiya". - Toshkent: Mumtoz so'z, 2019. – 97 b
2. G'oziev E.G'. Ontogenez psixologiyasi - Toshkent: Noshir, 2018. - 73 b.
3. Nazarov O'.Q. «Umumiy fizika kursi» 2-qism (Elektr va elektromagnetizm) 2021.
4. Safarov A.S. «Umumiy fizika kursi» (Elektromagnetizm va to'lqinlar), Toshkent, «O'qituvchi», 2022 yil.
5. V.I. Kozlov. Obshiy fizicheskiy praktikum. Elektrichestvo i magnetizm Moskva, 2017 g.
6. Nabijonova D. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish psixologiyasi. Toshkent: 2012. - 38 b

⁶ Nabijonova D. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish psixologiyasi. Toshkent: 2012. - 38 b

FAZODA TEKISLIKLARNING PERPENDIKULYARLIGI

*Tosheva Firuza Usmon qizi**Qarshi tumani 1-sonli kasb hunar maktabi
matematika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada matematika fanining chizma geometriyasi bo'limidagi eng asosiy tushuncha fazoda tekisliklarning perpendikulyarligi to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: matematika, chizma geometriyasi, tekislik perpendikulyarligi, fazo,

ASOSIY QISM

Fan va texnika jadal suratda rivojlanayotgan hozirgi paytda ta'lim sohasida ko'pgina o'zgarishlar kuzatilmoqda, jumladan pedagogik ta'lim klasteri modeli ishlab chiqildi. Pedagogik ta'lim rivojlanishining klaster modeli ta'lim berish, o'quv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta'lim va tarbiya uzviyligi bilan bog'liq umumiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradi. Bu esa muammoning umumiy metodologik xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Ayni paytda bu umumiy yo'nalishlar ta'limni boshqarish va tashkillashtirish, ta'lim turlari va yo'nalishlari, uzviylik va integratsiyani ta'minlash, o'qitish metodlari va vositalari kabi yo'nalishlarda xususiylashadi¹. Ta'limda uzviylik va integratsiyalashuv bilan birgalikda o'qitish metodlari va vositalarini ham yangilash va qayta ko'rib chiqish lozim. Jamiyatimizda ro'y berayotgan turli xil o'zgarishlar o'qituvchilar oldiga muhim vazifalar qo'yimoqda. Bu vazifalar har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlay oladigan, ijodkor, aqlli va nozik didli yoshlarni tarbiyalashdan iborat bo'lib, hozirgi zamon o'qituvchisidan tinmay ijodiy izlanish, o'qish va o'qitishga yangicha munosabatni, fidoiyligni talab qiladi².

Kesishuvchi ikkita tekislikning kesishgan to'g'ri chizig'iga perpendikulyar bo'lgan uchinchi tekislik ularni perpendikulyar to'g'ri chiziqlar bo'yicha kesib o'tsa, bu ikki tekislik perpendikulyar tekisliklar deyiladi.

Tekisliklarni perpendikulyarlik alomati. Agar tekislik ikkinchi tekislikka perpendikulyar to'g'ri chiziq orqali o'tsa, u holda ular o'zaro perpendikulyar bo'ladi³.

Perpendikulyar tekisliklar haqidagi teoremlar:

¹ Ботирова Ш.И. (2020). Об обучении студентов филологии основам анализа и литературным терминам. Преподавание языка и литературы, 7(7), 82-83.

² Buxarkina M., Mosiyeva V. Ta'lim tizimida yangi pedagogik va axborot texnologiyalari. – M., 2018.

³ Galitskiy M.A. va boshqalar. Algebra va matematik analiz kursini chuqur o'rganish. – T.: O'qituvchi, 1995. 4. Колягин Ю.Н. и др. Методика преподавания математики в средней школе. Общая методика. – М.: Просвещение, 2018.

a) Agar ikki tekislik perpendikulyar bo'lib, ulardan biriga tegishli bo'lgan to'g'ri chiziq ularning kesishish chizig'iga perpendikulyar bo'lsa, u holda bu to'g'ri chiziq ikkinchi tekislikka perpendikulyar bo'ladi.

b) Agar ikki tekislik perpendikulyar bo'lib, ulardan biriga kesishgan chiziqdan perpendikulyar o'tkazilsa, u holda bu perpendikulyar butunlay ikkinchisiga tegishli bo'ladi.

Fazoda to'g'ri chiziq va tekisliklar o'zaro joylashishi haqidagi tushunchalar o'rganilayotganida asosan ularning quyidagi holatlari qaraladi: to'g'ri chiziqlar parallellik va perpendikulyarlik holati, ayqash to'g'ri chiziqlar, to'g'ri chiziq va tekislikning paralleligi va perpendikulyarligi, tekisliklarning o'zaro paralleligi va perpendikulyarligi. Bu tushunchalarning o'rganish jarayonida o'quvchilar, umuman olganda fazoda to'g'ri chiziq va tekislik vaziyatlarni tahlil qilib, ularda fazoviy tasavvurlarning rivojlanish imkoniyatlari vujudga keladi.

Fazoda tekisliklarning perpendikulyarligi haqida ikita ta'rifni aytishimiz mumkin:

1-ta'rif. Agar fazoda berilgan to'g'ri chiziqlar orasidagi burchak 90^0 ga teng bo'lsa, ular o'zaro perpendikulyar to'g'ri chiziqlar deyiladi.

a va b to'g'ri chiziqlarning perpendikulyarligi $a \perp b$ ko'rinishda yoziladi. Ta'rifdan, perpendikulyar to'g'ri chiziqlarning o'zaro kesishuvchan, shuningdek, ayqash bo'lishi kam kelib chiqadi.

2-ta'rif. Agar a to'g'ri chiziq, α tekislikdagi, u bilan kesishish nuqtasi A orqali o'tuvchi ixtiyoriy to'g'ri chiziqqa perpendikulyar bo'lsa, a to'g'ri chiziq α tekislikka perpendikulyar deyiladi.

1-teorema (to'g'ri chiziq va tekislikning perpendikulyarligi alomati). Agar a to'g'ri chiziq, uning α tekislik bilan kesishish nuqtasi orqali o'tuvchi ikkita to'g'ri chiziqqa perpendikulyar bo'lsa, a to'g'ri chiziq α tekislikning o'ziga kam perpendikulyar bo'ladi.

Isboti: a to'g'ri chiziqning α tekislik bilan kesishish nuqtasi A orqali a to'g'ri chiziqqa perpendikulyar bo'lgan, ikkita AB va AC to'g'ri chiziqlar o'tkazilgan bo'lsin (15.2-chizma). a to'g'ri chiziq α tekislikdagi A nuqta orqali o'tuvchi yana bitta AD to'g'ri chiziqqa perpendikulyar bo'lishini isbotlash lozim bo'ladi.

α tekislikda, AB va AC to'g'ri chiziqlarni, masalan, B va C nuqtalarda kesib o'tuvchi BC to'g'ri chiziq o'tkazamiz, u AD to'g'ri chiziq bilan D nuqta kesishadi.

a to'g'ri chiziqdagi A nuqtaning har xil tomonlarida o'zaro teng, $AA_1 = AA_2$ kesmalarni joylashtiramiz. So'ngra A1 va A2 nuqtalarni B, C va D nuqtalar bilan tutashtiramiz. Natijada, ikkita teng yonli A_1A_2B va A_1A_2C uchburchaklarni hosil qilamiz: teng proeksiyalarga ega og'malar sifatida, $A_1B = A_2B$ va $A_1C = A_2C$. Unda, tomonlari teng uchburchaklar sifatida, $\triangle A_1BC = \triangle A_2BC$ bo'ladi. Bundan, $\angle A_1CB =$

$\angle A_2CB$ bo'lishi kelib chiqadi. Endi $\triangle A_1CD$ va $\triangle A_2CD$ larni taqqoslaymiz. Ularda CD - umumiy tomon, $A_1C = A_2C$ kamda $\angle A_1CD = \angle A_2CD$, shuning uchun, ular ikki tomoni va ular orasidagi burchagi bo'yicha, o'zaro teng. Bundan, $A_1D = A_2D$ bo'lishini olamiz. Uchta tomonlari bo'yicha, $\triangle A_1AD = \triangle A_2AD$ bo'ladi. Bundan, $\angle A_1AD = \angle A_2AD$ bo'lishi kelib chiqadi. Bu burchaklar – qo'shni burchaklar bo'lganligidan, ularning har biri 90° ga teng, ya'ni $A_1A_2 \perp AD$, teorema isbotlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva N. Boshlang'ich matematika o'qitish metodikasi predmeti va maqsadi. Scientific Journal Impact Factor, 2(9). 2021, P. 113-117.
2. Iminova H. Geometrik mazmundagi masalalarni o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. Scientific Journal Impact Factor, 2(9). 2021, P. 109- 112.
3. Galitskiy M.A. va boshqalar. Algebra va matematik analiz kursini chuqur o'rganish. – T.: O'qituvchi, 1995. 4. Колягин Ю.Н. и др. Методика преподавания математики в средней школе. Общая методика. – М.: Просвещение, 2018.
4. Buxarkina M., Mosiyeva V. Ta'lim tizimida yangi pedagogik va axborot texnologiyalari. – M., 2018.

ALKANLARNING NOMENKLATURASI, OLINISHI

Qarshi tuman 1- sonli kasb-hunar maktabi kimyo fani o'qituvchisi
Roziyeva Dilbar Ibodullayevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada alkanlarning nomenklaturasi, olinishi, alkanlarning kimyoviy xossalari va ishlatilishi, fizik xossalari, alkanlarning izomeriyasi va nomlanishi haqida batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: alkanlar, nomenklatura, izomeriya, kimyoviy xossalar, to'yingan uglevodorodlar.

Kirish:

To'yingan uglevodorodlarda uglerod atomlari sp^3 – gibridlangan holda bo'ladi. Uglerod – uglerod, uglerod – vodorod atomlari o'zaro kovalent bog' hosil qilib, ularning elektron buluti, atomlarning bog'lanish o'qlari bilan bir chiziqda joylashadi. Bunday bog'lanish turi σ – sigma belgisi bilan belgilanadi. Elektron zichligining muhim massasi atom yadrolari orasida kichik masofada joylashgani uchun σ bog' juda mustahkam hisoblanadi.


Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

To'yingan uglevodorodlarning birinchi vakili – metan. Metandagi to'rtta vodorod atomidan birini – CH_3 guruhga almashtirsak, alkanlarni ikkinchi vakili etan hosil bo'ladi. Vodorod atomini metil guruhga almashtirishni davom etadigan bo'lsak, kimyoviy tuzilishi tomondan o'zaro o'xshash, tarkibi bir-biridan CH_2 guruhga farq qiladigan birikmalar gomologlar hosil bo'ladi.


Gomologlar guruhi gomologik qator deyilib, ular orasidagi CH_2 guruhi farqini gomologik qator tafovuti deb ataladi. Alkanlarning gomologik qatorining umumiy formulasi: C_nH_{2n+2} .

Uglerod atomlari o'zaro birikkanda tarmoqlanmagan tuzilishdagi uglerodlar normal (n) uglevodorodlar deb ataladi. Tarmoqlangan zanjirli uglevodorod deb normal tuzilishdagi uglevodoroddagi vodorod atomlari o'rnini uglevodorod radikallari egallagan moddalarga aytiladi.


Pentanda 3 ta izomer bor:



n-pentan



2-metilbutan
(izopentan)



2,2-dimetilpropan
(neopentan)


Pentandagi uglerod atomlari o‘zaro birikib, to‘g‘ri zanjirni hosil qilgan. Bunday tuzilishga ega bo‘lgan birikmalar normal birikmalar deb ataladi va n harfi bilan ifodalanadi. Izopentandagi uglerod zanjiri esa tarmoqlangan. Bunday birikmalar izobirikmalar deb ataladi. Yuqorida keltirilgan pentanning izomerlari bir-biridan uglerod zanjirining turlicha tuzilganligi bilan farq etiladi. Bunday izomeriya struktura izomeriya yoki uglerod skeletining izomeriyasidir. Uglevodorod molekulasidagi uglerod atomlarining soni oshib borishi bilan izomerlarning soni ham juda tez ortib boradi.

Natijalar:


Shuningdek, alkanlarning molekulasidagi har bir uglerod atomi o‘zi bilan bevosita bog‘langan boshqa uglerod atomlarining soniga ko‘ra, birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to‘rtlamchi uglerod atomlariga bo‘linadi. Agar uglerod atomlari o‘zidan boshqa faqat bitta uglerod atomi bilan bog‘langan bo‘lsa, ikkilamchi, uchta uglerod atomi bilan bog‘langan bo‘lsa, uchlamchi va to‘rtta uglerod atomi bilan bog‘langan bo‘lsa, to‘rtlamchi uglerod atomi deb ataladi. Vodorod atomlari ham birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi vodorod atomlariga bo‘linadi.

Muhokama:


To‘yingan uglevodorodlarni sistematik nomenklatura bo‘yicha nomlash uchun avvalo asosiy zanjir (uglerod zanjiri) raqamlanadi. Raqamlash radikal joylashish yoki chetga yaqin turgan tomondan boshlanadi.



Agar radikallar asosiy zanjirning ikki uchidan baravar uzoqlikda joylashgan bo‘lsa, raqamlash oddiy radikallar joylashgan tomondan boshlanadi:



Agar zanjirda bir necha bir xil radikal joylashgan bo‘lsa, raqamlash radikallar ko‘p joylashgan tarafdin boshlanib, ularning sonini ko‘rsatish uchun radikallar nomi oldiga di-, tri-, tetra- so‘zlari yoziladi. Radikallarning uglerod atomiga birikkan joylari raqam bilan ko‘rsatiladi:



Shunday qilib, sistematik nomenklatura bo‘yicha moddalarni nomlashda molekuladagi asosiy zanjir aniqlanib, undagi uglerod atomlari raqamlanadi. Uglerod atomlarida joylashgan oddiy va murakkab radikallarni ko‘rsatuvchi raqamlar radikal nomi oldiga defis asosida qo‘yiladi va ular asosiy zanjirga mos keluvchi uglevodorodlar nomi oldiga qo‘shib o‘qiladi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, alkanlar son ko'rinishdan ko'p bo'lib, ularning molekullari o'xshash tuzilishga ega: uglerod atomlari bir-biriga va vodorod atomlari bitta kovalent bog'lar bilan bog'langan. Shu tufayli alkanlarning kimyoviy xossalari o'xshash bo'ladi. Hamma alkanlar past kimyoviy faollik bilan ajralib turadi. Ular kislotalar, asoslar, tuzlarning eritmalari bilan o'zaro ta'sirlashmaydi. Ularga KMnO_4 kabi kuchli oksidlovchi va ishqoriy metallar kabi kuchli qay taruvchi moddalar ta'sir qilmaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. M.M.Abdulxaeva, M.Mardonov. Kimyo – «O'zbekiston», Toshkent 2002.
2. I.R.Asqarov, K.Gopirov Kimyo asoslari – «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», Toshkent 2011.
3. Umarov B.B. Organik kimyo.- T.: "Iqtisod-Moliya", 2007.
4. Shoymardonov R.A., Ergashov M.Y. Organik kimyo.- T.: Muharrir, 2013.

O'TLOQI SAZ TUPROQLARDAGI SUVNI MIQDORINI ANIQLASH**G'ulomjon Yuldashev***Farg'ona Davlat Universiteti Qishloq xo'jalik fanlari doktori professor***Bozorboyev Shohruxbek***Farg'ona Davlat universiteti Magistratura bo'limi**Eksperimental agrokimyo yo'nalishi 1- bosqich magistranti*

Annotatsiya: Tuproqdagi suvning tarkibi va harakati tuproqning turi va tarkibi bilan chambarchas bog'liq. Har xil turdagi tuproqlarning fizik xususiyatlari keskin farqlarni ko'rsatadi. Tuproqning tarqoq hududida qalinligi 1 mm bo'lgan qumni topish mumkin. Ammo bu qatlam tuproq yuzasining juda kichik qismini tashkil etsa-da, qatlamlar orasidagi o'tkazuvchanlik kanallarida muhim ahamiyatga ega. Boshqa qatlamda qalinligi 2 mm bo'lgan gil qalam kuzatiladi. Bu qatlam sezilarli darajada kattaroq sirtini egallasa-da, qatlamlar orasidagi organik aloqa kanallarida kamroq rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: Tuproq, singdirish xususiyati, mexanik singdirish xususiyati, tuproq kolloidi, tuproq g'ovaklari.

Tuproqni chirindi kabi organik moddalar (organik moddalarning parchalanishi natijasida hosil bo'lgan modda) yordamida loy qatlami bilan aralashtirish natijasida hosil bo'lgan donadorlik tuproqdagi suv aylanishi va havo aeratsiyasi jarayonlarini biroz yaxshilaydi. Tuproq kuchli yomg'ir yoki kuchli suv oqimi bilan sug'orilganda, to'plangan suv tortishish ta'sirida qatlamlar orasida pastga siljiydi va ma'lum bir qismi bu kanallar orasidagi havo tufayli qatlamlar orasida ushlab turiladi. Tuproqdagi suv uning qatlamlari orasidagi sirtlarga yopishtirilgan yoki qatlamlararo bo'shliqlarda to'planishi mumkin. Qumli tuproqlarda qatlamlararo bo'shliqlar nisbatan katta bo'lib, ular orqali suv oqib o'tishi mumkin va tuproq tarkibidagi suv faqat qatlamlarning sirtlarida yopishqoq holatda saqlanishi mumkin. Loy tuproqlarda kanallar kam, shuning uchun suv erkin oqimlarni hosil qilmaydi va u biroz siqilgan holatda sodir bo'ladi. Suv saqlovchi tuproqlar namlikni saqlash manbalari hisoblanadi. Bu buloqlar tuproq suv bilan ho'l bo'lganda kerakli namlikni saqlab qoladi va ortiqcha suvning erkin oqib ketishiga imkon beradi. Loy tuproqlar yoki gumusga boy tuproqlar ko'p miqdorda namlikni saqlaydi. Bir necha kunlik to'yingandan so'ng, bu qatlamlar suvning 40% gacha ushlab turadi. Qumli qatlamlar bir necha kunlik to'yingandan keyin faqat 3% suvni saqlaydi. Keyingi bo'limlarda biz o'simliklar tomonidan suvning ildiz orqali qanday so'rilishini, tuproqdagi suv harakati va tuproqdagi suvning teskari bosimi tuproqning suv rejimini qanday o'zgartirishini ko'rib chiqamiz. Tuproq suvining qarshi gidrostatik bosimi tuproqning suv rejimini pasaytiradi. O'simliklarning suv salohiyati

kabi tuproqning suv salohiyati ham ikkita asosiy elementga, osmotik va gidrostatik bosimlarga asoslanadi. Tuproqdagi suvning osmotik bosimi (3-bo'lim) deyarli juda past, undagi erigan moddalar miqdoriga qarab, u 0,02 MPa gacha bo'lishi mumkin. Tuproqdagi tuzlarning miqdoriga qarab, tuproqdagi bosim 0,2 MPa yoki undan kam. Tuproqning suv rejimining keyingi omili gidrostatik bosimdir. Nam tuproqlarda Rn indikatori nolga yaqin. Tuproqning qurishi natijasida Rn indikator darajasiga tushishi mumkin. Savol tug'iladi, tuproqdagi suvning teskari bosimi qanday paydo bo'ladi? Biz 3-bo'limda kapillyarlik hodisasini muhokama qildik. Suv yuqori sirt yopishqoqligiga ega, u havo va suv interfeysini minimal darajada ushlab turishga intiladi. Tuproqning qurishi natijasida suv birinchi navbatda tuproqning katta qismlaridan ajratiladi. Yopishqoq kuchlar ta'sirida tuproqning kichik qismlarida suv saqlanib qoladi va tuproq yuzasining katta qismida suv-havo sirtlari paydo bo'ladi. Tuproqdagi suv miqdori kamayishi natijasida suv tuproqning bo'shliq qismlariga qarab harakatlanadi. Havo-suv yuzasi havo-suv qismlarining o'zaro bog'lanishi natijasida hosil bo'ladi. Ushbu sirt qatlamlari orasidagi suvning orqa bosim ta'siri kuchayadi. Buni quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin. Tuproqdagi suvning Rn ko'rsatkichi to'g'ridan-to'g'ri havo qatlamidagi suv yuzasiga bog'liq bo'lib, quruq tuproqlarda juda kichik yoki teskari ko'rsatkich bo'lishi mumkin. Masalan, suvni ushlab turish yuzasi (g) 1 mm ga teng bo'lsa, uning orqa bosimi ta'siri $R_n = -0,15$ MPa ga teng. natijada -1MPa dan -2 MPa gacha o'zgarishi mumkin. Suv tuproq qatlamlari orqali oqadi. Suv gradient bosimi ta'sirida tuproq qatlamlari bo'ylab harakatlanib, oqim yo'nalishlarini yaratadi. Bundan tashqari, suv bug'ining tarqalishi ham suvning harakatidir. O'simliklarning tuproqdan suvni shimib olishi natijasida tuproqning o'simlik ildizlariga yaqin qismlarida suvsizlanish sodir bo'ladi. Bu suvsizlanish ildiz atrofidagi tuproqning Rn qiymatini pasaytiradi va qo'shni, yuqori Rn tuproq maydonlari o'rtasida bosim gradyanini hosil qiladi. To'ldirilgan suv tufayli tuproq bo'shliqlari o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud va bu kanallar orqali gradient bosimi ta'sirida suv oqim shaklida ildiz yuzalariga qarab harakatlanadi. Tuproqdagi suvning harakat tezligi ikki omilga bog'liq: bosim gradienti ko'rsatkichi va tuproqning gidravlik o'tkazuvchanligi. Tuproqning namlik o'tkazuvchanligi uning hajm ko'rsatkichi sifatida qaralib, suvning tuproq bo'ylab harakatlanishiga bog'liq bo'lib, u tuproq va suvning tarkibiga qarab o'zgaradi. Qumli tuproqlar tarkibidagi mayda zarrachalar katta bo'shliqlar hosil qilishi mumkinligi sababli yuqori gidravlik o'tkazuvchanlikka ega bo'lsa, gil tuproqlar esa zarrachalar orasidagi bo'shliqlar kam bo'lganligi sababli sezilarli darajada past gidravlik o'tkazuvchanlikka ega. Tuproqdagi suv miqdori o'zgarganda, uning gidravlik o'tkazuvchanligi darhol pasayadi. Ushbu ko'rsatkichning kamayishi, birinchi navbatda, qatlamlar orasidagi suv bilan havo almashinuvi natijasida yuzaga keladi. Havo qatlamlari va ilgari to'plangan suv o'rtasidagi joylarning almashinuvi natijasida suvning harakati kanallar tarmoqlari bilan cheklangan. Tuproq o'tkazuvchanlik

kanallarining havo bilan almashinuvi ortib borishi bilan suv kichikroq kanallar bo'ylab harakatlana boshlaydi va gidravlik o'tkazuvchanlik pasayadi. Juda quruq tuproqlarda suv salohiyati pasayishi mumkin.

Bu doimiy qurg'oqchilikka olib keldi. Bu vaqtda suv salohiyatining etishmasligi tufayli o'simliklar rivojlanishni to'xtatadi. Bu shuni anglatadiki, o'simliklarning suv salohiyati ($\Psi_u >$) o'simlik osmotik salohiyati ko'rsatkichidan (Ψ_8) kam yoki unga teng. O'simlik hujayrasi bo'lganligi sababli, suv almashinuvining doimiy jarayonlari tuproqning o'ziga xos xususiyati hisoblanmaydi. Bu jarayon bevosita o'simliklarning turlariga va boshqa omillarga bog'liq. Ildizlar orqali suvning so'rilishi. Ildizlar va tuproq o'rtasidagi kuchli sirt aloqalari ildizlar orqali suvni singdirish samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ildiz va ildiz kurtaklari o'sishi evaziga bu bog'liqlik suvni singdirish hajmini oshirish uchun yuqori darajadagi suvni yutuvchi sirt hosil bo'lishini ta'minlaydi. Ildiz kurtaklari ildiz epidermis hujayralarining kengayishi natijasida hosil bo'ladi. Ular ildiz yuzasini sezilarli darajada oshiradi va tuproqdan suv ionlarining maksimal Emilishini ta'minlaydi. Karabug'day o'simligining 4 oylik rivojlanishini kuzatganimizda, uning ildiz kurtaklarining umumiy yuzasi ildiz yuzasining 60% ni tashkil etishi kuzatildi. Suv ildizlar orqali ildizlarga osongina o'tadi. Ildizning katta qismlari ekzoderma va epidermis deb ataladigan tashqi himoya qatlamiga ega, bu qatlamlar hidrofobik (suv o'tkazmaydigan) va ularning devorlaridan suvni singdirish deyarli mumkin emas.


Xulosa:

Tuproqning shikastlanishi natijasida ildiz yuzasi va tuproq o'rtasidagi mustahkam aloqalar osongina buziladi. Shu sababli, birinchi kunlarda yangi ko'chirilgan ko'chatlarni suv yo'qotishdan himoya qilish kerak. Yangi tuproq muhitida ildiz-tuproq aloqasining paydo bo'lishi bilan o'simliklarning suv yo'qotish stressiga chidamliligi ortadi. Endi biz ildizdagi suvning harakatini va ildiz tomonidan suvni singdirish tezligini ta'minlaydigan omillarni ko'rib chiqamiz. Suv tuproqdan o'simliklar orqali atmosferaga o'tishi davomida ko'plab oraliq muhitlardan o'tadi.

Reference:

1. Protasov P. V., Niyozaliev I. N., Toirov T. 3., Paxtachilikdaagroximiya, Toshkent 1981[1]
2. Zokirov T. S, Pochvenno-agroximicheskiye Osnovi xlopkovodstva, Toshkent 1987.[2]
3. I. N. Niyozaliev, T. Z. Toirov. Agrokimyo, Toshkent 2010[3]
4. Numonjonov M.G., Parpiyev A.T., Bozorboyev Sh.A., Vakhobova Sh.A. Alkaloids in some medicinal plants (CAPPARIS L, HYPERICUM L, ACHILLEA L,) their structure and significance. SCIENCE AND EDUCATION scientific journal ISSN 2181-0842 volume 1, ISSUE 4. July 2020[4]

5. Bozorboyev Shokhrukhbek, Hamzaliyeva Madinabonu. TECHNOLOGY OF GROWING, HARVESTING AND STORAGE OF LEMON PLANTS. Volume 2 Issue 9, September 2022 ISSN 2181-2020
6. Bozorboyev Shohruxbek Abduvoxid o'g'li, Abaraliyeva Sarvinoz Farxodjon qizi .CHUCHUK SUV LOYQASIDAN NOAN'ANAVIY O'G'IT TAYYORLASH VA UNI QO'LLASH USULLARI. <http://tadqiqotlar.uz/> 128 15-son_2-to'plam_Iyun-2023



**TUPROQNING TARKIBI O'RGANISH HAMDA UNDAGI
MIKROORGANIZMLARNING AHAMIYATI****G'ulomjon Yuldashev***Farg'ona Davlat universiteti Qishloq xo'jalik fanlari doktori professor***Bozorboyev Shohruxbek***Farg'ona Davlat universiteti Magistratura bo'limi**Eksperimental agrokimyo yo'nalishi 1- bosqich magistranti*

Annotatsiya: Tuproq biogen tuzilishga ega bo'lgan yerning ustki g'ovak qatlami bo'lib, u tabiatda hayot jarayonlarining kechishida, biosferada moddalar almashinuvini ta'minlashda muhim rol uynaydi. Namlik, issiqlik va mikroorganizmlar ta'sirida tuproqda organik moddalar doimo parchalanib va sintezlanib turadi.

Kalit so'zlar: Tuproq, o'simlik, organik moddalar, mikroorganizmlar, mikroelementlar, makro organizm.

Tuproqqa aralashgan o'simlik va hayvon qoldiqlaridagi organik moddalar mikroorganizmlar yordamida parchalanadi ya'ni chiriydi. Hosil bo'lgan bu chirindilar esa tuproqdagi mineral birikmalar bilan birga o'simlik tanasiga o'tadi va unda o'zaro reaksiyaga kirishib, yangi organik moddalarni hosil qiladi. Bu organik moddalardan inson va hayvon ozuqa sifatida foydalanadi. Kelajakda ular o'simlik, odam va hayvon qoldiqlari bilan yana tuproqqa qaytadi va yana parchalanish jarayoniga uchraydi. Shu asnoda organik va mineral moddalar «tuproq-o'simlik-hayvon-tuproq» tizimidagi yopiq zanjirda aylanib yuradi. Bu esa, o'z navbatida, tabiiy holda tuproq unumdorligining saqlanib turishiga asos soladi. Unumdor tuproq tabiatning bebaho boyligidir. Tuproqshunos olim V.V. Dokuchayev o'z vaqtida, rus qora tuprog'i toshko'mirdan ham, neftdan ham, oltindan ham qimmatliroqdir, deb yozgan edi. Darhaqiqat u tirik tabiatni oziq-ovqat, dori-darmon va substrat bilan ta'minlaydigan yagona manbadir. Tuproq paydo bo'lishida ona jins tog' jinslari hisoblanadi. Ularga issiqlik, namlik, o'simlik va hayvonlar uzoq vaqt mobaynida ta'sir ko'rsatib nuratishdan tuproq hosil bo'ladi. Tuproqning hosil bo'lishida ayniqsa issiqlik va namlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki bu omillar jinsdagi o'simlik va mikroorganizmlarning rivojlanishiga, u yerdagi biologik va kimyoviy jarayonlarning jadallashishiga va shu asosda jinsning yemirilishi tezlashishiga yordam beradi. O'simliklar, bakteriyalar, zamburug'lar va hayvonlarning ham tuproqqa ta'siri kuchli. O'simliklar o'zlarining ildizi yordamida tuproqdagi mineral moddalarni o'zlashtiradi. Bu moddalar keyinchalik organik moddalar holida yana tuproqqa qaytib parchalanadi. Tuproqda moddalarning parchalanishi va havodagi erkin azotning o'zlashtirilishi mikroorganizmlar tomonidan amalga oshiriladi. Mikroorganizmlarning

tuproqda ko'pligi parchalanish va chirish jarayonlarining tezligini belgilaydi. Shuningdek tuproqda ro'y beradigan modda almashinuvi jarayoniga unda yashovchi umurtqasiz va umurtqali hayvonlarning ham ta'siri bor. Chuvalchang, hasharotlar va ularning lichinkalari tuproqdagi organik moddalar bilan oziqlanib, ularning parchalanishga va tuproqqa aralashishiga yordam beradi. Yer ostida in qazib yashovchi kemiruvchi hayvonlar tuproqning chuqur qatlamlarini qazib yuzaga chiqarib tashlashi bilan uning donadorligi va g'ovakligini yaxshilaydi. Tuproqning g'ovakligi, uning suv va havo o'tkazuvchanligi, issiqlik rejimi va shunga o'xshash xususiyatlari undagi biokimyoviy jarayonlarni tezlashtiruvchi xususiyatlar bo'lib hisoblanadi. Tuproq tabiatning murakkab tuzilgan hosilasi bo'lib, u qattiq, suyuq, gazsimon va tirik tarkibiy qismlardan iborat. Tuproqning qattiq qismi asosan mineral va organik moddalardan hamda qattiq zarrachalardan tarkib topgan bo'lib, bular tuproq umumiy massasining ma'lum bir qismini tashkil qiladi. Uning qolgan qismini esa zarrachalar orasidagi bo'shliqlarni egallagan suv, havo va tirik organizmlar tashkil qiladi. Bu tarkibiy qismlarning nisbati tuproq unumdorligini belgilaydi. Tuproqning unumdorligi ko'p jihatdan undagi makroelementlar ya'ni unda birikma holda uchraydigan mineral moddalar – alyuminiy, temir, kaliy, magniy, kaltsiy, fosfor, oltingurgurt, kremniy, shuningdek mikroelementlar va organik moddalar asosini tashkil qiluvchi gumus miqdoriga bog'liq. Tuproqning suyuq qismi yoki boshqacha aytganda, tuproq eritmasi, uning harakatchan tarkibiy qismi bo'lib, u tuproqdagi ozuqa moddalarini eritadi va suyuq holda o'simlik ildiziga yetkazib beradi. Tuproqning gazsimon qismi asosan kislorod va karbonat angidrididan iborat bo'lgan tuproq havosidir. Bu havoning mavjudligi tuproqda yashovchi aerob mikroorganizmlar hamda boshqa hayvonlarni hayot sharoiti bilan ta'minlovchi omildir. Tuproqdagi tirik jonivorlarning ahamiyati to'g'risida yuqorida aytib o'tildi. Bu jonivorlar orasida ayniqsa mikroorganizmlar ko'p bo'lib, ular tuproq zarrachalari orasidagi bo'shliqlarda joylashgan. Taniqli o'zbek olimi M.V. Muxamedjonov ma'lumotiga qaraganda 1 gektar unumdor tuproqdagi mikro-organizmlar soni 3-3,5 mlrd bo'lib, yarim metr qalinlikdagi 1 gektar tuproqda ularning massasi 8-12 tonnaga yetadi. Yil davomida bu mikroorganizmlar avlodi 18-27 martagacha almashadi. Rus olimi V.A. Kovdaning hisoblariga ko'ra tuproqdagi mikroorganizmlar biomassasining yillik yig'indisi o'sha maydonda o'sgan o'simlik fotomassasiga teng, ba'zi unumdor yerlarda esa hatto undan 1,5-2 baravar ortiq. Qora tuproqlarda va boshqa unumdor yerlar tuprog'ida mikroorganizmlar biomassasining yillik yig'indisi gektariga 20-50 tonnaga yetadi.

Shunday qilib, tuproqning unumdorligini ta'minlashda uning barcha tarkibiy qismlari ishtirok etadi. Shuning uchun ham hakli ravishda aytish mumkin-ki, tuproq o'zining bu tarkibiy qismlari bilan birgalikda organik hayotning manbaidir va shu bilan birga uning o'zi ham organik hayotning hosilasidir, binobarin ular bir-biri bilan doimo o'zaro ta'sirda bo'ladi. Darhaqiqat, o'simlik tuproqdagi oziq moddalar va suvni

o`zlashtirib o`sadi va rivojlanadi. Hayvonlar o`simliklar bilan ozuqlanadi. Natijada iste'mol qilingan oziq moddalar yana tuproqqa qaytadi va unda parchalanib yana o`simlik o`zlashtiradigan mineral moddalarga aylanadi. Shunday qilib, tuproq «hayot» deb ataluvchi zanjirning muhim halqalaridan biridir. U o`simliklar uchun, demak hayvonlar va pirovardida inson uchun ham zaruriy omildir. Tuproqning inson va hayvonlar uchun yana bir ahamiyati shundaki, tuproq tarkibidagi mikroelementlar tirik organizmlar tarkibida ham uchraydi. Hozirgi vaktida o`simlik va hayvonlar organizmida 60 ga yaqin kimyoviy modda borligi aniqlangan. Bu kimyoviy moddalar biomikroelementlar sifatida oziq-ovqat bilan odam organizmiga tuproqdan o`tadi. Odam qoni tarkibida aniqlangan 24 xil va ona sutidagi 30 xil mikroelementlarning barchasi inson uchun zarur moddalar bo`lib, tuproqda u yoki bu elementning yetishmasligi ularning oziq - ovqat mahsulotlarida va demak odam organizmida ham yetishmasligiga olib keladi. Buning ta'sirida organizmda modda almashinuvi buzilib, kishi turli kasalliklarga chalinishi mumkin.

Xulosa:

Tuproqning tirik mavjudotlar uchun sanitariya-gigiyena va meditsina nuqtai nazaridan ham katta ta'siri bor. U ayni vaqtda ko`pgina kasalliklarni tug`diradigan mikroorganizmlarning yashash muhiti hamdir. Tuproqda vabo, o`lat, ich terlamasi, sil, dizenteriya, brutsellyoz kasalliklarini qo`zg`atuvchi mikroblarning yashashi uchun yetarli sharoit mavjud. Shuningdek tuproq ba'zi gelmintlar, hasharotlar, kanalar va ularni tarqatuvchi kemiruvchilar uchun ham o`ziga xos inkubatordir. Lekin shu bilan birga tuproq ko`pgina iflosliklarni o`zidagi mikroorganizmlar yordamida parchalab zararsizlantiradi. Demak, tuproq o`zini o`zi tozalash qobiliyatiga ega bo`lib, uning bu xususiyati biosferada moddalar aylanib yurishiga asos soladi.

Reference:

1. Protasov P. V., Niyozaliev I. N., Toirov T. 3., Paxtachilikdaagroximiya, Toshkent 1981[1]
2. Zokirov T. S, Pochvenno-agroximicheskiye Osnovi xlopkovodstva, Toshkent 1987.[2]
3. I. N. Niyozaliev, T. Z. Toirov. Agrokimyo, Toshkent 2010[3]
4. Numonjonov M.G., Parpiyev A.T., Bozorboyev Sh.A., Vakhobova Sh.A. Alkaloids in some medicinal plants (CAPPARIS L, HYPERICUM L, ACHILLEA L,) their structure and significance. SCIENCE AND EDUCATION scientific journal ISSN 2181-0842 volume 1, ISSUE 4. July 2020[4]
5. Bozorboyev Shokhrukhbek, Hamzaliyeva Madinabonu. TECHNOLOGY OF GROWING, HARVESTING AND STORAGE OF LEMON PLANTS. Volume 2 Issue 9, September 2022 ISSN 2181-2020
6. Bozorboyev Shohruxbek Abduvoxid o'g'li, Abaraliyeva Sarvinoz Farxodjon qizi. CHUCHUK SUV LOYQASIDAN NOAN'ANAVIY O'G'IT TAYYORLASH VA UNI QO'LLASH USULLARI. <http://tadqiqotlar.uz/> 128 15-son_2-to'plam_Iyun-2023

LAVANDA O'SIMLIGINING FOYDALI XUSUSIYATLARI

Obidov Muzaffar*Farg'ona davlat universiteti Phd***Mamajonova Mahliyo***Farg'ona Davlat universiteti Magistratura bo'limi**Biologiya yo'nalishi 1-bosqich magistranti***Abdullayeva Fotimaxon***Farg'ona Davlat universiteti Magistratura bo'limi**Biologiya yo'nalishi 1-bosqich magistranti***Ahmedova Mohinur***Farg'ona Davlat universiteti Magistratura bo'limi**Biologiya yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Lavanda (Lavandula) — labguldoshlilar oilasiga mansub buta yoki doim yashil chala butalar turkumi, efir moyli ekin. O'rta Dengiz sohillarida 25 dan ortiq turi uchraydi. Asosan, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Vengriya, Moldaviya, Qrim, Rossiyaning Krasnodar o'lkasida ensiz bargli L. (L. angustifolia) turi yetishtiriladi.

Kalit so'zlar: Lavanda, labguldoshlilar oilasi, efir moyi, xalq tabobati, an'anaviy tibbiyot, to'pgul.

1. Annayeva D. G. Y., Azzamov U. B., Annayev M. O. S. O'SIMLIGIDAN ENDOFIT MIKROORGANIZMLAR AJRATIB Olish. - 2022.

2. Azimovich A. U., Sultonovich B. K., Zokirovna M. M. STREPTOKOKK AVLODIGA MANSUB BAKTERIYALARNING PATOGENLIK XUSUSIYATLARINING TAHLILI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. - 2022. - T. 1. - №. 13. - C. 95-101.

3. Annayeva, D. (2022). CICHORIUM INTYBUS LISOLATION OF ENDOPHYTIC MICROORGANISMS FROM PLANTS AND IDENTIFICATION OF BIOTECHNOLOGICAL POTENTIAL. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2(6), 54-61. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/1755>

4. Annayeva, D. G. Y., Azzamov, U. B., & Annayev, M. (2022). ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O'SIMLIGIDAN ENDOFIT MIKROORGANIZMLAR AJRATIB Olish. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5-2), 963-972.

<https://cyberleninka.ru/journal/n/oriental-renaissance-innovative-educational-natural-and-social-sciences>

5. Azimovich, A. U. B., G'iyosovna, S. D., & Zokirovna, M. M. (2022).

XLAMIDIYANING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRINI MIKROBIOLOGIK

TAHLILLI VA DIOGNOSTIKASI. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali,

6. Ismoilov Kahramonjon. (2022). SUFI WOMEN IN ISLAM (on the basis of foreign researches). INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 11(12), 429–431. Retrieved from

<http://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/1475>

7. Ismoilov Kahramonjon. (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF SULAYMAN BAKIRGANI AND "BOOK OF BAKIRGAN" BASED ON FOREIGN SOURCES. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 11(09), 402–405. Retrieved from

<http://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/1318>

ДАЪВО МУДДАТИ ИНСТИТУТИНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ

Судьялар Олий мактаби магистранти
Рахматов Аббор Алиевич

Фуқаролик кодексининг 150-моддасида умумий даъво муддати 3 йил қилиб белгиланган.

Фуқаролик-ҳуқуқий институтларнинг муҳим институтларидан бири бу фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларни барқарорлаштиришга қаратилган даъво муддатидир. Фуқаролик оборотида вужудга келадиган мураккаб, ғавқулдда ва турли хил муносабатларни тартибга солиш учун умумий ва махсус даъво муддатларини белгиламоқ керак. Бундай ёндашув нафақат фуқаролик оборотини барқарорлаштириш, балки субъектив ҳуқуқни ҳимоя қилишда самарали восита ҳисобланади. Шу сабабдан ушбу институтнинг айрим жиҳатларини ўрганиш ҳозирги кунга қадар ўз долзарблигини йўқотмаган. Бу йўлда амалиёт умумлаштирилмоқда. Бу даъво муддатига нафақат моддий-ҳуқуқий балки процессуал-ҳуқуқий аҳамият касб этади.

Қонун чиқарувчи умумий даъво муддатларидан ташқари у ёки бу ҳуқуқий муносабатлар учун махсус даъво муддатини белгилаб қўйган. Масалан, сифати талаб даражасида бўлмаган товарлар, ишларнинг сифати юзасидан даъво қилиш муддати, юк ташиш шартномалари бўйича даъво қилиш муддатлари махсус қоида билан тартибда солинади.

Даъво муддатининг ўтишни бошлади Фуқаролик кодексининг 154-моддаси билан белгилаб қўйилган бўлиб, унга кўра даъво муддати шахс ўзининг ҳуқуқи бузилганлигини билган ёки билиши лозим бўлган кундан ўта бошлайди.

Аммо ҳар доим ҳам шунда бўлмаган. Масалан қадимги Рим ҳуқуқида даъво муддати ўтишни бошлашини ҳисоблашнинг объектив ва субъектив (ҳозирда миллий қонунчилигимизда амалдаги) усули бўлган. Объектив усул сифатида товарлар, ршлар, хизматлар бажарилган кундан бошлаб даъво муддати ўтишни бошлаши.

Фуқаролик кодексининг 52-бобида суғуртага оид муносабатларни тартибга солувчи қонун нормалари келтирилган, аммо мулкӣ суғурта шартномаси юзасидан даъволашиш учун махсус даъво муддатлари назарда тутилмаган.

Амалдаги қонунчилигимиз мажбуриятлар билан боғлиқ даъволар бўйича даъво муддати ўтишни бошлайдиган вақт жиҳатидан 2 гуруҳга ажаратади: Муайян ижро муддатига эга бўлган мажбуриятлар бўйича даъво муддати ижро муддати тамом бўлганидан кейин ўта бошлайди.

Ижро этиш муддати белгиланмаган ёки талаб қилиш пайти ижро этиш муддати билан белгиланган мажбуриятлар бўйича даъво муддати кредиторда

мажбуриятни бажариш тўғрисида талаб қўйиш ҳуқуқи пайдо бўлган вақтдан ўта бошлайди, борди-ю, қарздорга бундай талабни бажариш учун имтиёзли муддат берилса, даъво муддати имтиёзли муддат тамом бўлганидан кейин ҳисоблана бошлайди.

Даъво муддатининг ўтишни бошлайдиган вақтни субъектив усулда аниқлаш, судлар учун амалиётда муҳим роль ўйнаши керак.

Оила кодексининг 27-моддаси 9-қисмида, Никоҳдан ажралган эр ва хотиннинг умумий мол-мулкни бўлиш тўғрисидаги талабларига нисбатан уч йиллик даъво муддати қўлланилади.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 20.07.2011 йилги “Судлар томонидан никоҳдан ажратишга оид ишлар бўйича қонунчиликни қўллаш амалиёти тўғрисида”ги қарорининг 28-бандида, Оила кодекси 27-моддасининг тўққизинчи қисмида никоҳдан ажратилган эр-хотиннинг биргаликдаги умумий мулкни бўлиш учун белгиланган уч йиллик даъво муддатининг ўтишини никоҳ тугатилган вақтдан (яъни, ФХДЁ органларида никоҳдан ажратиш қайд этилган ёки суднинг ҳал қилув қарори қонуний кучга кирган кундан) эмас, балки шахс ўз ҳуқуқи бузилганлигини билган ёки билиши лозим бўлган кундан бошлаб ҳисоблаш лозим деб тушунтириш берилган.

Тасаввур қилайлик эр-хотин никоҳдан ажрашганига 3 йилдан ортиқ вақт ўтган. Улар ўртасида биргаликдаги турмуш даврида орттирилган умумий мулкка эгалик қилиш, фойдаланиш юзасидан келишмовчилик бўлмаган.

Бундай ҳолатда эр ёки хотин даъво қўзғатганида, улар ўртасида мол-мулкни бўлиш юзасидан низо қачон вужудга келганлиги даъво муддати ўтишни бошлайдиган вақт бўлиши керак.

Амалиётда эса, ушбу ҳолатларни тўлиқ текшириб, тақдим қилинган далилларни ўрганиш қонуний, асосли ва адолатли қарор чиқарилишига олиб келиши мумкин.

ҚОНУН БЎЙИЧА ВОРИСЛИК МУАММОЛАРИ

Бердимуратова Зульфия Джолдасбаевна
Фуқаролик ишлари бўйича Тошкент шаҳар
Шайхонтоҳур туманлараро судининг судьяси
Юлдашов Алишер Олимович
Судьялар олий мактаби тингловчиси

Аннотация: Мазкур мақолада Қонун бўйича ворислик ҳуқуқи муаммолари кўриб чиқилган.

Калим сўзлар: Ворислик ҳуқуқи, мерос, қариндошлик, қонун бўйича ворислик навбати.

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемы наследственных прав по Закону.

Ключевые слова: Наследственное право, наследование, родство, наследованию в порядке очередности, отчим, мачеха, пасынок, падчерица.

Ўзбекистонда мулк ва инвестициянинг ҳимоячиси қайсидир ҳоким ёки вазир эмас, фақат Конституция, қонун ва суд бўлади.

Ш.М.Мирзиёев¹

Жорий йил 30 апрелда бўлиб ўтган умумхалқ референдуми натижасида қабул қилинган янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 41-моддасида ҳар бир шахс мулкдор бўлишга ҳақли эканлиги, банк операцияларининг, омонатларнинг ва ҳисобварақларнинг сир тутилиши, шунингдек мерос ҳуқуқи қонун билан кафолатланиши қайд қилинди.²

Шунингдек, Конституциянинг 66-моддасига кўра, мулкдор ўзига тегишли бўлган мол-мулкка ўз хоҳишича эгалик қилади, ундан фойдаланади ва уни тасарруф этади.³

Мулк ҳуқуқининг вужудга келиш асосларидан бири эса Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 182-моддасига мувофиқ мулкни мерос қилиб олиш ҳисобланади.⁴

Мерос ёки ворислик ҳуқуқи албатта, аввало шахснинг мулкдор бўлишига асосланади ҳамда ўз мулкига нисбатан хоҳиш-иродасида ифодаланади. Шу билан бирга, мерос шахснинг ўлими ёки вафот этган деб топилиши натижасида

¹ Президент Ш.Мирзиёевнинг Олий мажлис ва Ўзбекистон халқига мурожаатномаси 2022 йил 20 декабрь - <https://president.uz/uz/lists/view/5774>

² Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси - <https://lex.uz/uz/docs/6445145>

³ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси - <https://lex.uz/uz/docs/6445145>

⁴ Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси - <https://lex.uz/uz/docs/111189>

ўзига тегишли қонун йўл қўйган ҳуқуқ ва мажбуриятларнинг меросхўрларга ўтиши ҳамдир.

Бугунги кунда фуқаролик ишлари бўйича судларда кўрилатган ишлар салмоғи ва ўзининг мураккаблиги бўйича ворислик ҳуқуқига оид, хусусан, қонун бўйича мерос низолари кўпчиликти ташкил қилади.

Жумладан, 2019 йилда ушбу тоифадаги низолар 1428 тани ташкил қилган бўлса, 2020 йилда ушбу кўрсаткич 1021 тани ташкил қилган.

Эътиборли томони, биринчи босқич судларида кўрилган мазкур тоифадаги фуқаролик ишларнинг 2019 йилда 327 (22,3%)таси, 2020 йилда 230 (22,5%)тасига нисбатан апелляция ёхуд кассация тартибда шикоятлар кўриб чиқилиб, 2019 йилда 81 та, 2020 йилда 72 та биринчи инстанция судларининг қарорлари ўзгартирилган ёхуд бекор қилинган.⁵

Кўриниб турибдики, мерос муносабатларига оид кўрилган фуқаролик ишлари бўйича чиқарилган ҳал қилув қарорларига нисбатан, аксар ҳолларда шикоят келтирилиб, мавжуд низонинг юқори инстанцияларда кўрилишига олиб келган.

Чунки, мерос муносабатларига оид низоларни тартибга солувчи қонун ҳужжатлари ва уларни суд амалиётида қўллаш соҳасида аниқ механизмлар ҳамда ечимлар ишлаб чиқилмаган.

Масалан, фуқаролик ишлари бўйича Шайхонтохур туманлараро судининг 2022 йил 9 декабрдаги даъвогар Х.Арипджанованинг жавобгарлар С.Арипджанов ва бошқаларга нисбатан васиятнома бўйича меросга бўлган ҳуқуқ тўғрисидаги гувоҳномани, келишув шартномасини ҳақиқий эмас деб топиш ва хусусийлаштирилган уй-жойдаги ҳиссаларни белгилаш ҳақидаги даъво аризаси бўйича ҳамда фуқаролик ишлари бўйича Яккасарой туманлараро судининг 2022 йил 18 майдаги даъвогар Н.Кулдошев ва бошқаларнинг жавобгарлар У.Қўлдашева, Х.Кулдошев ва Зангиота туманидаги 4-сонли давлат нотариал идорасига нисбатан умумий мулкни тақсимлаш ҳақидаги келишувни ҳамда қонун бўйича ворислик ҳақидаги гувоҳномани ҳақиқий эмас деб топиш ҳақидаги даъво талаблари бўйича кўрилган фуқаролик ишларида нотариал идоралар томонидан очилган мерос иши доирасида меросхўрлар доирасининг тўлиқ аниқланмаганлиги судга даъво аризаси киритилишига сабаб бўлган.

Бунинг сабаби, биринчидан мерос муносабатларига оид низоларни кўришда иштирок этувчи ташкилотлар ҳамда уларнинг фаолият доираси аниқ белгиланмаган бўлса, иккинчидан ушбу ташкилотларнинг меросхўрлар доирасини аниқлашдаги ҳаракатлари мукаммал эмас.

⁵ 2019-2020 йилларда кўрилган мерос ҳуқуқи билан боғлиқ фуқаролик ишлари бўйича суд амалиётини умумлаштириш натижалари тўғрисида Маълумотнома - Олий суд Раёсатининг 2021 йил 30 сентябрдаги РС-53-21-сонли қарорига илова.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 1146-моддасида мерос очилган жойдаги нотариус меросхўрнинг илтимосига кўра унга меросга бўлган ҳуқуқи тўғрисида гувоҳнома бериши шартлиги кўрсатилган.⁶ Шунингдек, ушбу кодекснинг 1150-моддасига кўра, меросни тақсимлаш меросхўрларнинг келишувига кўра ўзларига тегишли улушларга мувофиқ, келишувга эришилмаган тақдирда эса, суд тартибида амалга оширилади.⁷

Аммо, хусусийлаштирилган турар жойларга эгалик қилиш, хусусийлаштириш иштирокчиси деб топиш, улуш белгилаш ва тасарруф этиш масаласи бошқа хусусийлаштириш иштирокчилари ўз улушларидан нотариал тартибда бошқа иштирокчи фойдасига воз кечганда, умуман тарафлар ўртасида низо бўлмаганда ҳам суд томонидан кўриб чиқилади. Мазкур ҳолатда тарафлар келишувга эришган ҳолатда ҳам хусусийлаштирилган турар жойларга эгалик қилиш, хусусийлаштириш иштирокчиси деб топиш ва тасарруф этиш масаласининг судларда кўрилиши қонундаги ноаниқликни келтириб чиқарган.

Мазкур муаммонинг Фуқаролик кодексига мувофиқлаштирилиши судларда ушбу тоифадаги кўриладиган низосиз ишларни истисно қилиб, фуқаролик судларида иш юқламасини камайтиради.

Ҳозирги кунда нотариуслар томонидан меросхўрлар доирасини аниқлаш учун асосан икки усул: меросхўр ёки унинг вакилидан меросхўрлар доираси кўрсатилган ҳолда мерос иши очиш тўғрисида ариза олиш ёки мерос қолдирувчи яшаган маҳалла фуқаролар йиғинидан шакл-4 маълумотнома олиш билан чегараланилади.⁸

Лекин, бу ҳам мерос қолдирувчининг бошқа яқин қариндошларини тугал аниқлаш имконини бермайди. Зеро, бошқа ҳудудда, бошқа никоҳдан ёки никоҳсиз туғилган фарзандлар ёки бошқа қариндошларни кўрсатилган икки усулда тўлиқ аниқлаш қийин. Бу эса, тегишли мерос гувоҳномаси берилганидан ёхуд суд қарори чиқарилганидан кейин бошқа меросхўрларнинг пайдо бўлиши ва суд қарорининг бекор бўлишига олиб келмоқда.

Бундай ноаниқликларни олдини олишнинг энг самарали усули эса, ФХДЁ органлари томонидан туғилганлиги тўғрисидаги маълумотномалар архив ҳужжатларининг жисмоний шахснинг шахсий идентификация рақами билан (ЖШШИР) тўлиқ автоматлаштирилган тизимга қўшилишидир.

Бундан ташқари, суд қарорларини мазкур ҳолатда бекор бўлмаслиги учун меросхўрлар доирасини аниқлаш учун амалга ошириши керак бўлган хатти-ҳаракатларини аниқ белгилаб бериш керак.

⁶ Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси иккинчи қисм - <https://lex.uz/uz/docs/180552#198603>

⁷ Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси иккинчи қисм - <https://lex.uz/uz/docs/180552#198603>

⁸ Ж.Пардаев “Яна мерос масаласи...” “Бугунги Ўзбекистон” газетаси 2023 йил 18 апрель, 7-сон

Мерос муносабатларига оид низоларни судда кўришдаги яна бир муаммо, қонун ҳужжатларидаги қарама-қаршилик ёхуд мавҳумлик билан боғлиқ. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 1119-моддасида нолойиқ меросхўрлар доираси белгиланган бўлиб, бунда мазкурмодданинг биринчи қисмига мувофиқ мерос қолдирувчини ёки эҳтимол тутилган меросхўрлардан бирортасини қасддан ўлдирган ёки уларнинг ҳаётига суиқасд қилган шахслар васият бўйича ҳам, қонун бўйича ҳам мерос олиш ҳуқуқига эга эмаслар.⁹ Ўз навбатида эса, кодекснинг меросдан мажбурий улуш олиш ҳуқуқига бағишланган 1142-моддасида мерос қолдирувчининг вояга етмаган ёки меҳнатга қобилиятсиз болалари, шу жумладан фарзандликка олган болалари, шунингдек, меҳнатга қобилиятсиз эри (хотини) ва ота-онаси, шу жумладан, уни фарзандликка олганлар, васиятноманинг мазмунидан қатъи назар, қонунбўйича ворис бўлганларида улардан ҳар бирига тегиши лозим бўлган улушнинг камида ярмини (мажбурий улуш) мерос қилиб олишлари белгиланган.¹⁰ Бунда қайд этилган нормалар ўртасидаги зиддият шунда намоён бўладики, мерос қолдирувчининг нолойиқ меросхўри деб топилган шахсларга ҳам меросдан мажбурий улуш олиш ҳуқуқи бор ёки йўқлиги белгиланмаган.

Шу билан бирга, Фуқаролик кодексининг 1138-моддаси биринчи қисмида қонун бўйича тўртинчи навбатдаги ворислар жумласига “мерос қолдирувчининг олтинчи даражагача” қариндошлари киришини¹¹ белгиласа, Ўзбекистон Республикаси Оила кодексига қариндошликнинг фақат тўртинчи даражасигача назарда тутилган. (57-моддаси еттинчи қисми).¹² Бу ҳолатда олтинчи даражагача қариндошларга кимлар киришини қонун нормалари билан белгиланиши мақсадга мувофиқ.

Мерос муносабатларига оид низоларни кўришда, шунингдек, қарз ва кредит муносабатлари бўйича низоларда жавобгарнинг ворисларини белгилашдаги энг асосий ва катта муаммо эса, бу меросни қабул қилиш ёки воз кечиш муддатининг белгиланмаганлиги билан боғлиқ.

Ушбу мавзу, устозимиз, ю.ф.д. профессор И.И.Насриевнинг “Одиллик мезони” журналининг 2023 йил январь сонига чоп этилган “Мерос мулкани қабул ҳам қилмайман, ундан воз ҳам кечмайман, деса бўладими?” деб номланган мақолаларида асослантирилиб, ёритилган. Яъни, вафот этган шахснинг меросхўрлари томонидан мерос мулкани (мажбуриятини) қабул қилмаслиги ёки ундан воз кечмаслиги, Ўзбекистон Республикасининг

⁹ Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси иккинчи қисм - <https://lex.uz/uz/docs/180552#198603>

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси иккинчи қисм - <https://lex.uz/uz/docs/180552#198603>

¹¹ Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси иккинчи қисм - <https://lex.uz/uz/docs/180552#198603>

¹² Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси - <https://lex.uz/uz/docs/>

2010 йил 14 сентябрдаги ЎРҚ-255-сонли Қонуни¹³ билан белгилаб берилганлиги ҳозирги кунда кўплаб кредиторларнинг ҳам ечимсиз муаммосига айланиб улгурди.

Баён этилганлар, ривожланаётган фуқаролик жамиятида мерос муносабатлари нақадар аҳамият касб этаётганлигини, уларни ҳал қилишда мерос тушунчасидан бошланиб, мерос муносабатларини тўлиқ қамраб оладиган ва мавжуд муаммолар бўйича ягона тартибни белгилайдиган алоҳида қонун ҳужжати қабул қилиниши ҳамда суд амалиётининг мувофиқлаштирилиб такомиллаштирилиши заруратини тақазо қилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси <https://lex.uz/uz/docs/20596#39092>;
2. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси <https://lex.uz/uz/docs/180552#198948>;
3. Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси lex.uz/uz/docs/104720#158971;
Президент Ш.Мирзиёевнинг Олий мажлис ва Ўзбекистон халқига мурожаатномаси 2022 йил 20 декабрь - <https://president.uz/uz/lists/view/5774>;
4. И.И.Насриев “Мерос мулкини қабул ҳам қилмайман, ундан воз ҳам кечмайман, деса бўладими?” “Одиллик мезони” журнали 2023 йил январь сони;
5. Ж.Пардаев “Яна мерос масаласи...” “Бугунги Ўзбекистон” газетаси 2023 йил 18 апрель, 7-сон.

¹³ И.И.Насриев “Мерос мулкини қабул ҳам қилмайман, ундан воз ҳам кечмайман, деса бўладими?” - “Одиллик мезони”-2023 йил январь

**ФУҚАРОЛИК СУДЛАРИДА ФАРЗАНДЛИККА ОЛИШ БИЛАН БОҒЛИҚ
ИШЛАРНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ***Судьялар Олий мактаби тингловчиси***Т.И.Исмоилов**

Оила қонунчилигида мавжуд бўлган фарзандликка олиш институти – ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болаларни жойлаштириш шаклларида бири ҳисобланади. Шу маънода фарзандликка олиш – болаларнинг манфаатларини ҳимоя қилиш мақсадида вужудга келадиган муносабат саналади. Мазкур муносабат вояга етмаган, ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болаларга нисбатан ихтиёрийлик асосида пайдо бўлиб, бевосита қонунга биноан биологик ота-оналик ҳуқуқий мақомига тенглаштирилган.

Фарзандликка олиш муносабатларини тартибга солувчи ҳуқуқий нормалар ота-онаси бўлмаган ёки ҳар хил сабабларга кўра улар тарбиясидан маҳрум бўлиб қолган болаларга оилавий тарбияни таъминлаб, болалар ҳуқуқ ва манфаатларини қўриқлашга қаратилган.

Фарзандликка олиш фарзандликка олувчи (ва унинг қариндошлари) ҳамда фарзандликка олинганлар (ва уларнинг бўлғуси авлодлари) ўртасида қонунда ота-она ва болаларга нисбатан белгиланган қонун ҳужжатларида махсус кўрсатилган ёки кўрсатилмаганлигидан қатъи назар, барча шахсий ва мулкӣ ҳуқуқ ҳамда мажбуриятларни вужудга келтиради, шунингдек фарзандликка олиш бу ҳуқуқий муносабатни вужудга келтирувчи ва бекор қилувчи ҳужжат бўлиб ҳисобланади.

Фарзандликка олишга доир низоли ишлар болалар тарбияси билан боғлиқ низолар туркумига кириб, оила ҳуқуқий муносабатлардан келиб чиқадиган ишлар сифатида қаралади. Бундай низоларнинг судлар томонидан тўғри ҳал этилиши бола ҳуқуқларининг муҳофазасини таъминлашга хизмат қилади. Фарзандликка олишга доир низоли ишлар фуқаролик суд ишларини юритиш тартибида даъво қўзғатиш усули орқали мазмунан кўрилиб, бундай муносабатлар Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси ва Фуқаролик процессуал кодекси нормалари орқали ҳуқуқий тартибга солинади. Чунки мазкур низоларнинг ҳуқуқий табиатини ўрганишда унинг моддий ва процессуал ҳуқуқий нормалардан иборат эканлигини назарда тутишга тўғри келади.

Фарзандликка олишга доир низолар икки туркумга, яъни фарзандликка олишни ҳақиқий эмас деб топиш тўғрисидаги ва фарзандликка олишни бекор қилиш тўғрисидаги низоларга ажратилади. Ушбу низоларнинг тааллуқлилиги фақат судлар ваколатига тегишли бўлиб, бундай низоларни ҳал қилиш судсиз

тартибда низони ҳал қилиш ваколатига эга бўлган давлат бошқарув органларига (ФХДЁ, васийлик ва ҳомийлик органларига) тааллуқли бўлмайди.

Мазкур тоифадаги кўрилган ишлар таҳлилини биргина Тошкент шаҳар судлари мисолида кўрадиган бўлсак, фуқаролик ишлари бўйича Тошкент шаҳар туманлараро судлари томонидан 2021 йилда фарзандликка олиш билан боғлиқ аризалар бўйича жами 369 та фуқаролик ишлари кўрилган бўлиб, шундан 345 таси ёки 93,5 фоизи бўйича аризалар қаноатлантирилган бўлса, 6 таси ёки 1.6 фоизи бўйича аризаларни қаноатлантириш рад қилинган ҳада 18 та ёки 4.9 фоиз аризалар кўрмасдан қолдирилган.

Таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, жами ўрганилган 242 та фуқаролик ишларининг 44 таси ёки 18.2 фоизи бўйича фарзандликка олувчилар ёлғиз аёллар бўлган.

Қолган 198 та ёки 81.2 фоиз ҳолатда фарзандликка олувчилар қонуний никоҳдаги эр-хотин бўлиб, шундан 77 та (жами қонуний никоҳда бўлган эр-хотинларнинг 38.9 фоизи) иш бўйича болалар эр-хотиндан биттаси томонидан фарзандликка олинган бўлса, 121 та (61.1 фоиз) ҳолатда болалар эр-хотиннинг ҳар иккаласи томонидан фарзандликка олинган.

Ушбу 242 та ишлар бўйича фарзандликка берувчилар таҳлил қилинганда, болаларнинг 62 таси ёки 25.6 фоизи ёлғиз оналар тарафидан, 15 таси ёки 6.2 фоизи ёлғиз оталар тарафидан, 120 таси ёки 49.6 фоизи қонуний никоҳда бўлган эр-хотинлар тарафидан фарзандликка берилганлиги ҳамда 45 та ёки 18.6 фоиз ҳолатда тарбия муассасаларида бўлган болалар фарзандликка олинганлиги аниқланди.

Суднинг ҳал қилув қарорларига асосан ўрганилган 242 та ишлар бўйича жами 275 та болалар фарзандликка берилган бўлиб, уларнинг 147 таси ёки 53,4 фоизи 4 ёшгача бўлган болаларни, 59 таси ёки 21,5 фоизи 5 ёшдан 9 ёшгача бўлган болаларни ҳамда 69 таси ёки 25,1 фоизи 10 ёшдан 17 ёшгача бўлган фарзандларни ташкил қилган.

Фарзандликка олинган 275 та болаларнинг 156 таси ёки 56,7 фоизи эркак жинсидаги, 119 таси ёки 43,3 фоизи аёл жинсидаги болалар бўлган.

Шунингдек, умумлаштириш жараёнида ўрганиш учун дастлаб тақдим этилган 94 та фуқаролик ишлари кўринишида фарзандликка берувчиларнинг фарзандликка олувчиларга нисбатан алоқадорлик даражаси таҳлил қилинганда, ушбу 94 та ҳолатдан 77 таси бўйича фарзандликка берувчилар фуқаролар эканлиги, қолган 17 таси бўйича тарбия муассасасида бўлган болалар фарзандликка берилганлиги аниқланди.

Жисмоний шахслар - фуқаролар томонидан фарзандликка берилган 77 та ҳолатдан 45 тасида ёки 58,4 фоиз ҳолатда фарзандликка берувчилар ва фарзандликка олувчилар ўзаро қариндош эканликлари, 18 та ёки 23,4 фоиз

ҳолатда эр ёки хотиннинг аввалги турмушидан бўлган болалар фарзандликка олинганлиги ҳамда 24 та ёки 31,2 фоиз ҳолатда фарзандликка берувчилар ва олувчилар ўзаро бегона эканликлари аниқланди.

Мазкур тоифадаги ишларни кўришда суд амалиётини такомиллаштириш учун қонунчиликка қуйидагилар таклиф этилади.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 14 ноябрдаги 387-сон [қарорига](#) 1-илова “Фуқаролик ҳолати далолатномаларини қайд этиш қоида”ларини 61-бандига асосан Фарзандликка олинаётган боланинг туғилганлиги тўғрисидаги ёзувлар дафтарига зарур ўзгартиришлар ФХДЁ органлари томонидан, фарзандликка олиш тўғрисидаги суднинг ҳал қилув қарори қонуний кучга кирган кундан бошлаб ўн кун мобайнида киритилади. ФХДЁ органига кўрсатиб ўтилган муддат тутагандан кейин мурожаат қилинган тақдирда суд қарорида ушбу қарор ўз кучини йўқотмаганлиги ҳақида ёзув бўлиши кераклиги белгиланган. Амалиётда белгиланган 10 кунлик муддатни кўпгина ҳолларда фарзандликка олувчи ўтказиб юборган ҳолда ФХДЁ органларига мурожаат қилади. Бироқ муддат ўтказиб юборилганлиги сабабли фуқаролар яна судга мурожаат қилишга мажбур бўлади. Юқоридаги ҳолат фуқароларни ортқча оворагарчилигига сабаб бўлмоқда. Шу сабабли мазкур низомда белгиланган 10 кунлик муддатни олиб ташлаш таклиф этилади.

Амалиётда судларда фарзандликка берилаётган болаларнинг туғилганлиги ҳақидаги гувоҳномасини аризага илова қилиниши сўралади. Бола туғилганда оталиги белгиланганлиги ёки ёлғиз она сифатида туғилганлик гувоҳномаси расмийлаштирилганлиги фақатгина болаларнинг туғилганлиги ҳақидаги далолатнома ёзувида қайд қилинади. Шу сабабли судлар томонидан аризага илова сифатида туғилганлиги ҳақидаги далолатнома ёзувини сўралса мақсадга мувофиқ бўларди.

**СУД ҲОКИМИЯТИ ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ
РАҚАМЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ****Хусаинова Р.А.***Судьялар олий мактаби тингловчиси*

Ҳозирда судлар фаолиятига ахборот технологияларини жорий қилиш, судларни рақамлаштириш, электрон суд ёки электрон одил судлов каби тушунчалар амалиётда кенг қўлланилмоқда, бироқ уларнинг мазмун-моҳияти батафсил таҳлил қилинмагани боис, уларни турлича талқин қилиш ҳолатлари мавжуд. Шу боис унинг назарий-методологик асосларини ва қонунчиликни амалиётда қўллашни тадқиқ этиб ўрганиш истиқболли йўналишлардан бўлиб ҳисобланади¹.

Дунё мамлакатларида долзарб бўлган судларни рақамлаштириш, суд амалиётида сунъий интеллект технологияларини қўллаш масалалари борасида ҳуқуқшунос олимлар, амалиётдаги ҳуқуқшунослар, судьялар, адвокатлар томонидан турлича фикрлар билдирилмоқда. Хусусан, айрим ғарб олимлари судларни рақамлаштиришдаги асосий муаммо сифатида бу уларнинг айна суд ишидаги вазият билан боғлиқ эмас, балки ҳисоблаш тартиб-қоидаларига асосланганлиги деб ҳисоблашса, айрим олимлар суд жараёнларига рақамли технологияларнинг кенг жорий этилиши натижасида шахсга доир маълумотларнинг ошқор бўлиш хавфи мавжудлигига урғу беришмоқда. Шунга қарамай, судлар фаолиятини рақамлаштириш сиёсати судларда ошқоралик, шаффофлик, маълумотларнинг очиқлигини таъминлашга хизмат қилишини илмий асослашга қаратилган тадқиқотлар давр талабидир.

Масалан, О.Тошев, Б.Муродқосимовларнинг фикрича, судларга замонавий ахборот технологияларини жорий этиш орқали судларнинг фаолияти самарадорлигини ошириш, электрон судлов тизимини соддалаштириш, суд фаолиятининг очиқлиги ва шаффофлигини таъминлаш, фуқароларга уларнинг судларга мурожаат этиш буйича конституциявий ҳуқуқларидан янада кенг фойдаланиш, ортиқча оворагарчиликнинг олдини олиш, ишларни кўриб чиқишнинг муддатларини сезиларли даражада қисқартириш, ишда иштирок этувчи шахсларни реал вақт режимида суд мажлиси жараёни ҳақида тўлиқ маълумотга эга бўлишини таъминлаш имконини беради².

¹ Арипов Д.У. Суд ҳокимияти мустақиллигини ташкилий-ҳуқуқий такомиллаштиришнинг замонавий тенденциялари. . Юридик фанлар доктори диссертацияси. -Т., 2022. -Б.102.

² Тошев, О., & Муродқосимов, Б. (2023). Судлар фаолиятини рақамлаштириш одил судловни таъминлашга хизмат қилади. *Цифровизация деятельности судов: текущие и перспективные задачи*, 1(1), 162–175. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-activity-courts/article/view/16614>

С.Кадиралиев эса технология судлар фаолиятиги жалб этилса-ю, лекин фукаро ундан самарали фойдалана олмаса, ислохотдан кўзланган мақсадга етиб бўлмайди. Шу сабабли ҳам, электрон суд дастурларидан фойдаланиш бўйича кичик хажмдаги йўриқномалар, брошюралар тайёрлаш ва уларни суд биносига келган фукарога бепул тарқатиш, фукароларнинг рақамлашаётган судлов фаолиятида муҳим иштирокини таъминлашга ўз хиссасини қўшган бўлар эди, деб таъкидлайди.

Ф.Нурбобоева фикрича, қуйидагилар рақамлаштиришга тўсиқ сифатида пайдо бўлиши мумкин: Биринчи муаммо, тизимни йўлга қўйишда эскирган ёндашувлардан фойдаланиш – бунда муаммонинг бир томони зарурий замонавий модулларнинг йўқлигида ифода этилади. Яъни рақамлаштириш номи остида судлар ўз иш фаолияти ҳужжатларини, қўлда узатиш, ҳаттоки нусха кўчириш эмас, балки қўлда теришга зарурият юзага келади. Бу эса, Суд ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолиятида рақамлаштириш судьялар учун ишни соддалаштириш ўрнига, ортиқча ишни кўпайтиради, холос. Иккинчи томондан кўплаб мутахассислар блокчейн технологияларини қўллаш ғоясини илгари суришади, аммо улар ушбу маълум маънодаги хавфли тенденциянинг келажақда қандай ишлаши, масалан, тизимнинг бутунлай ишдан чиқиши, маълумотлар узатишнинг техник имкониятлари, ўчиб кетиши ёки ўзгариши мумкинлиги ҳақида ҳеч қандай тажрибага эга эмас. Шунингдек, ҳуқуқий соҳага блокчейн технологияларини қўллаш бўйича тузилмалар ҳам такомиллашмаган. Иккинчи муаммо, умумий маълумотлар алмашинуви интерфейсининг мавжуд эмаслиги – бу биринчи навбатда, ҳужжатларни рақамли шаклга ўтказишда давлат дастурларида ахборотни сақлашнинг аниқ форматлари ва электрон ҳужжат айланиши стандартлари белгиланмаганлиги билан боғлиқ. Техник регламентларнинг йўқлиги ахборот тизимлари модуллари ўртасида ўзаро заифликни келтириб чиқаради, натижада, идоралараро алоқани йўлга қўйиш, ҳужжатлар алмашинувида муаммолар пайдо бўла бошлайди. Учинчи муаммо, маълумотларни ҳимоя қилиш, аппаратлардаги носозликлар – техник таъминот электрон суд тизими функцияларининг самарали ва аниқ ишлашида зарурий шарт ҳисобланади. Масалан, суд мажлисларининг мажбурий аудиоёзувини оладиган бўлсак, сақланган маълумотлар ҳажми яқин фурсатларда терабайтлардан ҳам ортиб кетиши мумкин. Тўртинчи муаммо, юридик кадрларнинг ИТ технологиялар бўйича тайёргарлик даражасининг етарлича эмаслиги – электрон суд ишларини юритилишида юристлардан ўз навбатида ИТ технологияларини ҳам чуқур билиш талаб этилади³.

³ Нурбобоева, Ф. (2022). Цифровизация - важный инструмент в достижении эффективности деятельности судов. *Актуальные вопросы и перспективы цифровизации судебно-правовой деятельности*, 1(01), 262–267. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/combating-offenses/article/view/14509>

Таъкидлаш жоизки, республикамызда суд тизимига ахборот технологияларини қўллаш жараёни босқичма-босқич амалга оширилмоқда. 2016 йилдан бери судлар фаолияти самарадорлигини оширишга қаратилган 30 га яқин норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилингани бунинг яққол далилидир.

Сўнгги йилларда амалга оширилган суд-ҳуқуқ ислохотлари суд ҳокимияти мустақиллигини ҳамда судлар фаолиятида очиқлик ва шаффофликни таъминлаш билан бир қаторда фуқаро ва тадбиркорларнинг ҳуқуқ ҳамда қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш кафолатларини кучайтириш имконини бермоқда.

Шу маънода, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 16 январдаги “Одил судловга эришиш имкониятларини янада кенгайтириш ва судлар фаолияти самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-11-сон Фармони⁴ билан «Янги Ўзбекистон — янги суд» тамойили доирасида аҳолининг одил судловга эришиш имкониятларини янада кенгайтириш суд-ҳуқуқ тизимини ислоҳ қилишни жадаллаштиришни, соҳага илғор халқаро стандартларни жорий этиш мақсадида “2023 — 2026 йилларга мўлжалланган суд тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқишнинг қисқа муддатли Стратегияси” тасдиқланди.

Стратегия доирасида одил судловни таъминлашнинг устувор вазифаларидан бири этиб судлар фаолиятини тўлиқ рақамлаштириш, сунъий интеллект технологияларини жорий этиш, идоралараро электрон маълумот алмашинувини яхшилаш, суд мажлисларида масофадан туриб иштирок этиш имкониятларини кенгайтириш белгиланди.


2023 — 2026 йилларга мўлжалланган суд тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқишнинг қисқа муддатли Стратегияси суд-ҳуқуқ тизимининг жадал ислоҳ қилинишини таъминлаш, шунингдек, аҳолининг одил судловга эришиш даражасини янада ошириш мақсадида ишлаб чиқилди.

Стратегия Ўзбекистон Республикасида суд ҳокимиятини ривожлантиришнинг стратегик мақсадлари, устувор йўналишлари ҳамда истиқболли вазифаларини белгилайди, шунингдек, соҳага илғор халқаро стандартларни янада кенг жорий этиш учун асос бўлиб хизмат қилади.

Айнан, судларда ахборот-коммуникация технологияларини жорий қилиш ва ахборот хавфсизлигини таъминлаш борасида суд ҳокимияти органлари фаолиятини рақамлаштириш ишларини янада жадаллаштириш, хусусан, Идоралараро ягона интеграцион платформа яратиш орқали судлар ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ўртасида маълумотлар алмашинувини тўлиқ рақамли технологияга ўтказиш, ягона платформа асосида ахборот тизимларини интеграция қилиш, ахборот ва маълумотларнинг киберхавфсизлигини

⁴ Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 18.01.2023 й., 06/23/11/0033-сон

таъминлаш, судлар фаолиятига фуқароларга ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш, суд ҳужжатларини автоматик тайёрлаш ва суд қарорларини таҳлил қилиш йўналишида сунъий интеллект технологияларини жорий этиш бўйича чоралар кўриш вазифалари белгилаб қўйилди.



CONCEPT OF EQUIVALENCE IN A FOREIGN LANGUAGE

DONIYOR DOVRONOVICH ERGASHEV*English teacher of the English language department**"Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural
Mechanization Engineers"**National Research University***Annotation**

In this article, the theory of valency in linguistics is discussed, the scientific hypotheses of various well-known scientists who have contributed to this field. In addition, the article cites a debate between linguists who say that verbs are primary valenced, yet others suggest that verbs are not primary valenced, but rather that other parts of the word group have its valence.

Key words: *concept of equivalence, actants, circumconstants, semes, lexical-semantic subject, classmes, order of sentences.*

Introduction

The study of words and sentences as the basic units of language is the most important task of linguistics. Valence theory plays an important role in its study, which has been one of the important areas of linguistics for several decades. For almost half a century, valence theory has gone a tedious way and turned into one of the most important areas of modern syntax. Despite a rather long tradition, the theory of valence remains relevant in our time. The reason lies in the interest of linguists in studying the sentence from the semantic point of view, and thus in describing its structure and trying to classify its individual parts (actants, sirconstants). The most important contribution of valence theory is to study the plan of content and the plan of expression, to study their relationship, to study the compatibility of words and sentence structure. Despite the fact that recently they have been talking about the valence of other parts of speech (nouns, adjectives and etc.), the concept of valence was originally combined with the verbal vocabulary and still it is mainly implied in relation not only to verbs but also other parts of speech.

K. B. Shodmonov tried to determine the valence of word formation at the lexical level in nouns that entered the English language from Latin in the valence theory. However, valence is limited by the material given in dictionaries about noun-forming suffixes.

In addition, N.P.Bilimovich, expressing his opinion about the lexical-semantic subject valence of verbs without a prefix, goes from the lexical level to the syntactic

level of the language and considers the combination of the subject and the participle of the sentence as valence .

As E. V. Kuznetsova rightly notes, the study of the compatibility (valence) of verbs can be approached from two sides, relying on the hypothesis of a one-to-one correspondence of syntax and semantics. In the first case, the so-called distributive-transformational method, in which linguists distinguish a class words based on their similar compatibility and, consequently, common semantic features. This approach is used, for example, in the Dictionary of Syntactic Compatibility by M. N. Lebedeva . Another approach to the study of valence is to identify lexico-semantic groups based on the commonality of semantic features and, consequently, to analyze the combinability capabilities of verbs included in this group.

Main part

Choosing the second approach to the study of compatibility (from semantics to form), researchers rely on the works of V. G. Gak, L. M. Vasiliev and E. V. Kuznetsova, in which semes of various levels of hierarchy are distinguished. It is these semes that determine, according to E. V. Kuznetsova, the valence of the verb, i.e. those positions (actants) with which this verb is combined. As E. V. Kuznetsova notes, “in the verb sememe there are semes that must necessarily be explicitly designated – they determine the obligatory valence of the verb, the obligatory positions of the actants – as well as semes whose explicit expression is optional – they form the optional valence (positions) of the verb.

Russian verb type compatibility of verbs of various lexico-grammatical groups has become the subject of research and the scientific group “Russian Verb” and is further developed in the dictionary of Russian Verb sentences: Experimental Syntactic Dictionary. This dictionary can be considered the fulfillment of the task set at the end of the 80s.

The twentieth century in the monograph Lexico-semantic groups of Russian verbs . The main goals of the representatives of the so-called lexical syntax are described there as follows:

1. to identify in the system of verbal Russian sentences the main semantic models that differ in the semantics of predicates;
2. to describe variants of these models that differentiate by a set of verbal actant positions.

The importance of the lexical meaning of the verb for the construction of a sentence is noted by E. V. Kuznetsova, who, paying attention to the active turn in syntax from the morphological characteristics of the sentence to the functional-semantic ones and, consequently, emphasizing the meaning of the lexical-semantic study of verbs, writes that “the verb contains in its meaning a “layout of the sentence, behind which there is

a certain situation. The semantics of the verb predicate is recognized as one of the important factors formation of the semantic structure of the sentence.

Studying the verbal vocabulary and working on the semantic classification of Russian verbs, she comes to the conclusion that "... the similarity of verbs belonging to the same lexico-grammatical group is not limited to the presence of a common categorial-lexical feature (archisemes, classemes). It also manifests itself in the presence of typical compatibility, in connection with certain semantic models of sentences, in certain the regularities of their paradigmatic relations within the group, in the broad development of their functional equivalence (synonymy in the broad sense of the word), organically associated with ambiguity.

The concept of a verb as a "sentence layout" is also found in S. D. Katsnelson, who writes that "... in terms of content, the verb predicate is something more than just a lexical meaning. Expressing a certain meaning, at that time it contains a layout of the future sentence. The predicate has "places" or "nests" filled in the sentence with words whose categorial features are in accordance with the categorial features of the nest.

The idea of a two-way relationship between the syntactic and semantic properties of language expressions is also expressed by Y. D. Apresyan. He is of the opinion that this two-way dependence is manifested in the fact that "language expressions with similar syntactic properties have similar meanings, and vice versa, language expressions with similar values have similar syntactic properties. This opens up opportunities for a strict description of the semantic aspect of the language, which has hitherto been difficult to formalize. Y. D. Apresyan thinks that meanings can be judged on the basis of the syntactic behavior of the corresponding language expressions, which lends itself to direct fixation. Thus, he makes an attempt to describe the semantics of Russian verbs through their syntactic properties, while considering that the direct object of research is not the verb as such, but the whole predicate expression organized by this verb. Based on the analysis of about 25,000 verbal phrases, he makes a list that includes 84 verbal nuclear constructions.

It should be noted that in recent years, the verb has been the focus of attention of linguists in the research of sentence structure. The basis of this is the result of the view put forward that the verb is the "center" of the sentence. Based on this, the verb valence has developed in all languages. But H.L. Somers stated that "...approaching valence only within the scope of the verb is limited by the number of complements it controls, which cannot fully justify the theory of valence".

In addition, A.M. Mukhin: "Considering the verb as the structural center of the sentence always leads to some ambiguities: firstly, the personal and impersonal forms of the verb are not considered a syntactic unit, they can be a syntactic unit only if they participate in the structure of the sentence with the help of internal syntactic links. This idea also applies to nouns and adjectives; secondly, there are sentences without verbs

in English or Russian, and it is impossible to find a solution of valence in such sentences from the point of view of the approach that the verb is the center of the sentence; thirdly, in addition to the description of valence in the sentence device, there are also features of lexical combination of verbs, and it is difficult to talk about valence without taking into account their meaning given in dictionaries.

Conclusion

In the structure of the sentence, valence is not only a phenomenon specific to the verb, but any syntactic unit is considered to be a mono-valent component if it participates in a sentence based on one syntactic relationship, if it is based on two syntactic relationships, it is considered to be poli-valent, and if it is based on three syntactic relationships, it is considered to be a three-valent component.

REFERENCES:

1. Doniyor Dovronovich Ergashev. (2023). Formation of independent education in students of higher education. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 4(6), 491–494. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/TEH28>
2. Abdullayeva, Markhabo (2022). THE APPEARANCE OF THE TERM “EDUCATION DICTIONARY” IN WORLD LINGUISTICS IS ANALYZED. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (Special Issue 28-2), 48-52.
3. Saodat S. THE BENEFITS OF USING CRITICAL INCIDENTS IN TEACHING LANGUAGES //Conference. PERSPECTIVES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL EXPERIENCE IN FOREIGN LANGUAGES TEACHING. – 2021. – T. 11. – C. 86-89.
4. Istamova.G., Babaeva K., Khudoyarova. Innovative methods of teaching as a second language. *Xorijiy Filologiya til, adabiyot, ta'lim (Foreign philology)* 2019/5/30. Bet 172-175.
5. Doniyor Dovronovich Ergashev (2021). TEACHING A FOREIGN LANGUAGE WITH ADVANCED TECHNIQUES. *Academic research in educational sciences*, 2 (1), 401-409. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00082
6. САЛАХУТДИНОВА МУБИНА, МУТАЛОВА ГУЛНОРА [МОРФОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ АРАБСКИХ ТЕРМИНОВ СВЯЗАННЫХ С ПАНДЕМИЕЙ COVID-19](#). 2022/4/28. E Conference Zone Page 22-25.
7. Shakirova, D. T. (2022). Algorithm of Formation S Strong Education Brand in Tertiary Education. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 1(6), 111-117.
8. Rakhimova, S., & Shakirova, D. (2022). DISTANCE LEARNING HAS ITS OWN IMPACT ON THE EDUCATION PROCESS AND ITS INTEGRITY. *Архив*

научных

исследований, 2(1).

извлечено

от

<https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2112>

9. Markhabo Rakhmonkulovna Abdullayeva. The appearance of the term "education dictionary" in world linguistics. "Chet tillarni o'qitishda dolzarb muammolar" mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2023/5/26 Volume 1. Issue 1 Pages 117-122.
10. Абдуллаева Мархабо Рахмонкуловна. Инсоннинг табиатга муносабатидаги миллий колоритни ифодаловчи феълли фраземалар (Агата Кристи таржималари талкинида). ТерДУ илмий хабарномаси, илмий услубий журнал. 2020/1/20 Volume 1. Issue 3 Pages 39-42
11. Sadiqova Shirin Bakhtiyorovna. The Method of syntactic-stylistic expression of respectful speech in the Uzbek Language. IJESC. 11/2021. Pp.28094-28095
12. Solievich T. N. Specific aspects of improving the quality of education in higher education institutions //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 9. – С. 31-34.
13. Temirov N. S. The school students of Uzbekistan: Image of the family //Russian Education & Society. – 1996. – T. 38. – №. 8. – С. 80-89.
14. TEMIROV N. S. SCHOOLCHILDREN OF UZBEKISTAN-THE IMAGE OF FAMILY //SOTSIOLOGICHESKIE ISSLEDOVANIYA. – 1995. – №. 7. – С. 53-56.
15. TEMIROV N. S. Question making without questionnaire //SOTSIOLOGICHESKIE ISSLEDOVANIYA. – 1992. – №. 12. – С. 104-105.

ANALYSES OF IMPROVING THE LEVEL OF COMMUNICATION DEVELOPMENT OF STUDENTS

NIGORA MAHMUDOVNA DJAMPULATOVA

*Lecturer The Institute of Uzbek National
Musical Art named after Yunus Rajabiy.*

Annotation.

In this article, we examine each component of the methodology for enhancing students' communicative competence in the context of coaching. We broke down this process into several stages, indicating the gradual application of techniques meant to raise students' level of communicative development.

Key words: *Discursive competences, method, communicative development, coach, experiments, paradoxical facts.*

Introduction. Considering the question of the communicative development of students in the context of coaching, we divided this process into several stages, which implies the gradual use of methods aimed at increasing the level of communicative development of students.

эришиш воситаси сифатида ишлатмаслиги керак, чунки ҳар бир инсон ўзи учун мақсаддир. Ва бу шуни англатадики, ҳар бир инсон ўз турининг ва миллатининг вакили сифатида индивидуал хусусиятларини, ўзига хослигини ривожлантириш эркинлигига эга бўлиши керак. Тенглик фарқларни инкор этишни эмас, балки уларни тўлиқ амалга ошириш имкониятини назарда тутати. Немис тилшунослигида гендерлингвистика социоллингвистиканинг бир қисми сифатида қаралади ва у жинслараро кечувчи тил муаммолари билан шуғулланади. Немис тилшунослигида гендер ҳақидаги дастлабки қарашлар эртакшунос, тилшунос ака-ука Гримлар даврида ҳам мавжуд бўлган. Якоб Грим фикрига кўра тилдаги учта грамматик жинсда қуйидаги хусусиятлар мавжуд бўлади.

Maskulinum (mj.rod – дастлабки, катта, қатъий, мўрт, тез, ишлайдиган, ҳаракатчан;

Femininum (ж. род) – кейинги, кичик, юмшоқ, тинч, азобли, қабул қилувчи;

Neutrum (sr.rod) – ишлаб чиқарувчи, йиғилган, ўтмас, ривожланмайдиган.

Академик А.Н.Кононов тадқиқ қилиши учун эса XIX аср манбалари тилида ҳозирги ўзбек тилидан фарқли равишда жинс категориясини шахс отлари билан бирга нарсалар номини билдирувчи айрим отларга ҳам кўшилган, деган фикрни ҳам билдиради. Шу жиҳатдан қуйдагиларни айтиш мумкиндир: айрим отлар ўзига боғланган аниқловчи билан жинс ва сонда мослашади. Шуларни ҳисобга олиб, XIX аср ўзбек тилида қисман бўлса-да грамматик жинс катигорияси мавжуд бўлган: = макулин (эркак) : мазкур элчи, мазкур қарған. = фемин (аёл): Санам мазкура, мазкура қизлар, мазкура, қала. Ҳозирги замон ўзбек тилида шоир-шоира, муаллим-муаллима, адиб-адиба каби айрим жинсни фарқловчи ҳолатлар учраб, улар фақат шахс отларигагина кўшилиб, кишиларнинг биологик жинси фарқланади. Шундан келиб чиқиб жинс катигориясини икки нуқтаи назардан баҳолаш мумкин: биологик жинс ва грамматик жинс. Грамматик жинс маъносини мавҳум грамматик маъно дейишимизга сабаб, унинг биологик жинсга ҳеч қандай алоқаси йўқ. М аълумки табиий, биологик жинс иккита, грамматик жинс эса кўпчилик тилларда учтагача. Грамматикадаги нейтрал жинсга табиатда мос келадиган жинс йўқ. Ундан ташқари, табиатда жинс тирик организмларга хос нарса, аммо грамматикада жинс категорияси ўз ичига жонсиз предмет ва ҳодисалага ажралади. Грамматик жинс категорияси кўпчилик ҳинд-европа тилларига, шу жумладан, немис, франсуз, рус тилларига хосдир. Бир сўзнинг баъзи турли тилларда турли грамматик жинсга кириши ҳам мумкин, масалан, рус тилидаги лошадь сўзи феминин жинсига кирса, немис тилида эса шу маънодаги Pferd нейтрал жинсга, франсуз тилидаги Cheval сўзи - маскулин жинсига киради.

Инсон жинсда нафақат физиологик жиҳатдан фарқланади, балки унинг атрофидагилар билан муомаласи, нутқи, ва ҳатто, дунёқарашида ҳам жинсдаги ўзига хос, фарқли ёки муштарак жиҳатлар намоён бўлади. Софя Бабаян бу ҳақда: “Гендер ижтимоий тушунча. Аёл ёки эркакнинг бенуқсон тимсоли берилган, хронологик ва географик муҳит ранг-баранглиги, миллий анъаналари, этнопсихологияси, дини, тарихи ва миллий менталитети ва бошқаларда ифодаланади” – деб ёзади. Гендер – умумий мазмунига кўра эркак ва аёллар ўртасидаги фарқ. Иккала жинс вакиллари нутқий ҳулқини жаҳон тилшунослигида немис олими Жоул Оатес ўзининг “аёл, эркак ва тил” асарида ҳам аёл ва эркакларнинг нутқидаги ўзаро фарқланувчи жиҳатларни очиб беради. У кўпроқ аёл ва эркаклардаги салбий ва ижобий конатассияларни олиб, ўзаро қийслаб гендер нуқтаи назардан тахмин қилади. Гендер – табиатан белгиланмаган, ижтимоий ҳодисалар ато этган хусусиятлар йиғиндисидир. Гендер – жинснинг маданий ниқоби, бизнинг ўз ижтимоий-маданий тасаввурларимиз доирасидаги жинс ҳақидаги қарашларимиздир. Бунинг устига жинс, фақат гендер демакдир, яъни унинг ижтимоийлаштирилиши натижасида жинсни ташкил этган нарсасидир. Жинс инсонга тегишли эмас, балки инсон жинсга оиддир, у эса ҳокимият ва тилга эга. Бадий асарлардаги жинс таржима жараёнида асл матндаги миллий ўзига хосликни сақлаш ва таржима қилинаётган тилда ҳам буни тўғри ва яққол намоён қилиш учун гендер факрларини тутган ўрни ва аҳамиятини ёритиб беришдан иборат. “Гендер” атамаси 1968-йилда америкалик олим Столлер томонидан илмий муомалага киритилган. Илмий адабиётларда гендер тушунчасининг бир неча талқини мавжуд. Гендер – инглизча “гендер” – “зот” сўзидан олинган бўлиб, жинс тушунчасини физиологик воқелик усткурмаси бўлган ижтимоий қуролма сифатида белгилайди.

Германияда аёллар тили ва уларнинг роли ҳақидаги дастлабки қараш 1974-йил Германиялик тилшунос Ингрид Гуэнтхерадтнинг Триер университетида ўқиган маърузасидан бошланган. Олим М.Кей ва Р.Лаккофнинг аёллар тили ҳақидаги назариясидан таъсирланган ҳолда ўз қарашларини баён қилган. Кейинчалик Цента Тромел-Плотз, Ф.Пуш ва Деборах Таннен Германияда аёллар тили тадқиқи билан шуғулланишди. Ф.Пуш ва Тромел Плотз немис феминистик тилшунослиги асосчилари сифатида талқин қилинади. Олимлар 1979-йил 5-февраль куни Констанз университетида талабаларга “**Лингвистика ва аёллар тили**” (**Linguistik und Frauensprache**) мавзусида маъруза ўқишади. Кейинчалик улар феминистик лингвистикани тадқиқ қилиш бўйича ишчи гуруҳ тузишади. Улар немис жамиятидан феминистик лингвистикани қўллаб қувватловчи ва унга ҳайрихоҳлик билдирувчи инсонларни тўплаш мақсадида Германиянинг Регенсбург ва Пассау шаҳарларида

ййғилиш ўтказишади. Бу ййғилишга нафақат тилшунослар, балки жамиятнинг бошқа соҳалари вакиллари: журналистлар, ёзувчилар, ўқитувчилар, диншунослар, сиёсатчилар ва юристлар ҳам келишади. Феминистик тилшунослик вакиллари, оғзаки ва ёзма матнларда аёлларни мустақил ва тенг ҳуқуқли инсон деб тан олиш мумкинми деб сўрашади. Ва бунда улар бир қанча тавсияларни таклиф қилишади:

Мурожаатда **“Fräulein”** сўзини мутлақо йўқотишни; **“Tennisdamen”** сўзини **“Tennispielerinnen”** сўзи билан алмаштиришни. Феминистик тилшунослик нафақат тил тизимлари ва тил нормаларини тавсифлаш ва танқид қилишни, балки сиёсий ва ижтимоий ўзгаришларни ҳам мақсад қилади. 1980-йилларнинг бошларида феминист тилшунослар биринчи марта таълим ва бошқа муассасаларда тарқатилган гендер хусусиятлардан келиб чиққан тилдан фойдаланиш бўйича кўрсатмаларни ишлаб чиқдилар. Унда келтирилган тавсиялар қуйидагиларни ўз ичига олади:

а) Шахс номларининг грамматик жинси шахснинг жинсига қараб шаклланиши керак. Масалан жинси нейтрал бўлган **“Lehrkraft”** сўзи ёки отлашган сифатлардан ва сифатдошлардан ясалган отлар. Масалан кўпликни ифодаловчи **“Studierende”** сўзи.

б) Аёллар қаерда қўлланса ҳам биринчи ўринда қўлланиши керак ва икки жинсни ифодаловчи сўзлар алоҳида алоҳида ёзилиши ва айтилиши керак.

в) Феминик кўшимчалар (Feminine Endungen) агар у янги сўз ясалишига олиб келса ҳам қўлланиши керак.

г) **“Dame”** ва **“Fräulein”** сўзлар мурожаатларда алмаштирилмасдан ўчирилиши лозим.

д) Эркаклар орқали берилиб, аслида унда аёллар келтирилган ифодаларни йўқотиш керак. М: **“Herr Müller und Gattin”**, **“Familie Hans Müller”**.

б) 1980-йилда ҳар иккала жинсни ифодалаган сўзларни **“I”** белгиси ёрдамида бир биридан ажратиш таклиф қилинган. М: **Lehrerinnen und Lehrer** ёки кўплик **Lehrer** сўзларининг ўрнига **LeherInnen** сўзини қўллаш.

Шундай қилиб, аёл ва эркак тенг ҳуқуқлилиги муаммоси доимо ҳур фикрли инсонлар диққат марказида бўлган. Бироқ айнан аёлнинг эркак билан тенг ҳуқуқли эканлигини эътироф этган мутафаккир қадимги юнон файласуф олими Пифагор эди. У одамларнинг турмуши ислоҳ қилиниши ҳамда фалсафанинг ҳуқуқ ва эркинлик тўғрисидаги хулосаларига мувофиқлаштирилиши кераклиги ҳақидаги тасаввурларни ривожлантирган. Ушбу нуқтаи назардан у ўзининг фалсафий қарашларида аёл ва эркакнинг тенг қилиб яратилиши ҳақидаги фикрни илгари суради. Пифагорнинг маслакдошлари эса бу ғояни давом эттирганлар. Улар инсон ҳаёти адолат ва маълум чегара, яъни ўз ўрнини билиш ва ҳис қилиш асосида қурилиши лозимлигини таъкидлайди. Ушбу мазмундаги ғояни яна бир

юнон мутафаккири Сукрот қонунларнинг объектив ахлоқий табиати тўғрисидаги фалсафий таълимотида ривожлантирган. Жумладан, у ҳам инсонларнинг табиий ҳуқуқлари тенглигини эътироф этар экан, полисинг мантиқан тўғри ва адолатли қонунларгагина бўйсунishi лозимлигини ва фақат шундай ҳолатдагина инсон эркинлигини таъминлаш мумкинлиги ғоясини илғари суради.

Файдаланилган адабиётлар

1. **Гвоздева А.А.** Языковая картина мира: лингвокультурологические и гендерные особенности: Автореф. диссертации на соискание степени кандидата филол. наук.-Краснодар, 2004.-15с.
2. **Егорова О.А.** Интонационные особенности женской разговорной речи (на материале Австралийского варианта английского языка): Автореф. дисс.на соис.уч. степен. канд.филол.наук.-Иваново, 2008.
3. **Ladd, D. R.** "Intonational phonology." Cambridge Studies in Linguistics 79. Cambridge: Cambridge University Press. - 1996.
4. **Lakoff, R.** Language and Women's Place. New York: Harper & Row.- 1975.
5. **Strand, E.A. & Keith, J.** Gradient and visual speaker normalization in the perception of fricatives. In Dafydd Gibbon (Ed.), Natural Language Processing and Speech Technology: Results of the 3rd KONVENS Conference.-Berlin: Mouton, 1996.
6. Samel I. Einführung in die feministische Sprachwissenschaft. Auflage E. Schmidt, Berlin., 2000, S.13
7. Lenz K., Adler M. Geschlechterverhältnisse: Einführung in die sozialwissenschaftliche Geschlechterforschung. Weinheim, Juventa, 2010, S. 100
8. Häberlin S., Reachel Sch. Wyass E.L. Übung macht die Meisterin. Ratschläge für einen nichtsexistischen Sprachgebrauch. München, Frauenoffensive Verlag, 2002, S.104
9. Grimm J. Deutsche Grammatik. Drittel Teil. Marburg, Max Niemer Verlag, 1831,S. 371
10. Kopcke M.K. Untersuchungen zum Genusystem der deutschen Gegenwartssprache. Tübingen, Niemeyer Verlag, 1982, S. 87.

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA STEAM TEXNALOGIYASINI
QO'LLASHNING AHAMIYATI.**

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

S.I.Tursunova

tel; 915886422

Nazarova Navbahor Zokir qizi

Termiz Davlat Pedagogika instituti talabasi

nazarovanavbahor751@gmail.com

+998993610632

Annotatsiya. Hozirgi kunda barcha e'tibor yoshlarga qaratilganligi bejizga emas, chunki yurt kelajagini ishonarli qo'llarga topshirish esa Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun asosiy vazifa va kasb maqsadidir. Yuksalish doim davr talabi bo'lib kelgan. Shuningdek, har sohada rivojlanish uchun dastlab kelajak avlodga universal ta'lim berish lozim. Bu boradagi chora tadbirlar yoshlarning intellektual salohiyatini har tomonlama rivojlantirish maqsadida STEAM texnologiyasidan foydalanish eng ma'qul yo'l ekanligi o'z isbotini topmoqda. Ushbu maqolada Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlari uchun STEAM texnologiyasidan foydalangan holda, intensiv usul va vositalar orqali dars jarayonlarini olib borish haqida tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar. STEAM, kreativ, texnologiya, science, technology, innovatsion, engineering, san'at, universal.

KIRISH.

STEAM - hozirgi kunda ta'lim tizimining innovatsion texnologiyasidan biri hisoblanadi. Bu tizimni tushuntirish bir qaraganda murakkab, ammo uni alohida bo'limlarda ko'rsak, sodda va aniq ekanligini bilib olamiz, ya'ni S-science, T-technology, E-engineering, A-art, M-mathematics. Ushbu so'zlar tagida tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika kabi tushunchalar bor. STEAM texnologiyasining vazifasi - Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning intellektual salohiyatini, kreativligini muhandislikda, san'atda, ijodda va aniqlikda o'stirishga qaratiladi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI.

Ta'lim sifatini yuqori bosqichga ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PP – 3931 - son qarori bilan tasdiqlangan. "2018-2021-yillarda O'zbekiston respublikasi xalq ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ning 2-bo'lim 11-bandida Umumiy

o'rta ta'limning yangi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish shu bilan birga STEAM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) metodlarini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilab berilgan. Quyida qonunda berilgan vazifalarni amalga oshirishda pedagog, ota-ona va o'quvchilarning STEAM texnologiyasi orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan metodlarni mukammal o'zlashirishi muhim hisoblanadi.

Jahon metodistlarining baholashlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, STEAM texnologiyasi ta'limdagi yangi, samarali yondashuv ekanligi aytilmoqda. Chunki ta'lim jarayonini integratsiyalashgan holda, fanlar aloqadorlik olib borish STEAM texnologiyasining asosiga aylanib qoldi. Huddi shu jarayon SSTEAMyexnologiyasi mavqeini oshirmoqda. Chunki STEAM nafaqat o'qitish usuli bo'lib qolmay, fikrlash tarzi hamdir. Bolalarni bu texnologiya bilan ulg'aytirsak, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda chuqur fikrlab chiqib keta oladi.

O'quvchilarda fikrlash bilan birgalikda ijodkorlik, ijtimoiy muhitga oson moslasha olishlik darajalarini ham o'stiradi. O'zingizni g'oyangizni topishga bilim yordam beradi, ammo haqiqiy ish bu g'oyani haqiqatga aylantiradi. Ushbu texnologiyaning hech qanday tushunarsiz joyi yo'q. Shunchaki fanlar bilan bog'la mukammal g'oya tuz va amalga oshir marra seniki.

TADQIQOT NATIJALARI.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM texnologiyasini qo'llasak, ularda tabiatni tushunish, dunyoni tubdan o'rganish, muhandislik, fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, o'zini ko'rsata olishlik darajalarini shakllantirishga tubdan yordam beradi.

Shunday ekan, "Fazoviy jism oy" mavzusini STEAM texnologiyasi asosida ishlab chiqamiz.

STEAMdagi S harfi fanni bildiradi. Bu degani nazariy ma'lumotlarga haqida tushunchaga ega bo'lamiz.

Nazariy ma'lumot: Oy shar shaklida. Oyning diametri-3,477,2 km. Oy sirti oq qora rangdagi jismlardan iborat.

T harfi texnologiyani bildiradi. Bu qismda biz oy haqida bir necha savollarga javob beriladi.

1. Oyning diametri qancha?
2. Oy sirti qanday jismlardan iborat?
3. Oydagi harorat necha gradus?
4. Oyni birinchi bor kim teleskopda kuzatgan?

E harfi muhandislikni bildiradi. O'quvchilar qog'oz va plastilin yordamida oy rasmi, shaklini yasash vazifa qilib beriladi.

A harfi san'atni bildiradi. O'quvchilar berilgan manbalar asosida she'r, hikoya, esse, yozadilar. Oy rasmini yaqindan kuzatadilar va rasmini chizadilar.

M harfi matematikani bildiradi. Bunda oy tezligi, aylanish o'qini va shu kabi hisob-kitob amallari bajariladi. Hamda oyni teleskop orqali kuzatilgan rasmlari o'quvchilarga videorolik orqali tushuntiriladi.

MUHOKAMA.

STEAM ta'limini joriy etishdan maqsad – bolalarda qiziqishlarini maktab yoshidayoq aniqlab, iqtidorini, ijodkorligini rivojlantirishga yo'naltirish, olgan bilimlarini hayotga tadbqiq etish, yaratuvchanlik qobiliyatiga ega kadrlarni tarbiyalash. STEAM orqali bola ongi har sohada o'sadi. Bitta mavzu biroq, besh sohada bilimga ega bo'lish. Bu jarayon o'quvchilarda qiziquvchanlik ilmiy dunyoqarashni o'stiradi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'rta maktab uchun STEAM texnologiyasi ahamiyati cheksizdir. STEAM bolalarga tajriba o'tkazish, dizayn modellarini yaratish, ijodkorligi bilan kino, musiqa yaratish, o'z g'oyalarini amaliy qo'llashga intilishini kuchaytiradi. Nazariy va amaliy ko'nikmalarga tez ega bo'ladi. Eng asosiysi oliy ta'limda o'qishni yanada osonlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'whikcha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PFRQ-55-38-son farmoni. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami", 2018-yil 10-sentabr 36-son 722-modda.
2. Ivanova O.L. Gigena polosti rta. Razdel. "Pravilnaya chistka zubov" – M: "Sofiya", Moskva. 2003.
3. X.M Baybayeva . "STEAM ta'limini mazmun mohiyati ahamiyati" ma'ruza matni.
4. www.edu.uz.
5. www.uzedu.uz.
6. <http://www.ztm.uz>.
7. SM Tokhtayevna, SI Tursunova - American Journal of ..., 2023 - americanjournal.org
American Journal of Pedagogical and Educational Research PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF USING NATIONAL HERITAGE IN EDUCATION OF SPIR Page 1 ...
8. M Cartopova - Interpretation and researches, 2023 - interpretationandresearches.uz
Sattarova Munjoat Tokhtayevna, & SI Tursunova.(2023). PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF USING NATIONAL HERITAGE IN EDUCATION OF SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES ...
9. Tursunova, S., & Kh, T. M. (2023). REGARDING THE DEVELOPMENT OF LINGUISTIC COMPETENCES IN PRIMARY EDUCATION. International Journal of Pedagogics, 3(04), 12-20.

10. Isakovna, T. S. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI TARBIYALASHDA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNI. PEDAGOGS jurnali, 36(1), 67-71.
11. Турсунова, С., & Чориева, Х. (2023). МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ОЛИШ ТАЛАБАЛАР УЧУН МУХИМ ВАЗИФА. Interpretation and Researches, 2(1).
извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1100>
12. Tursunova Saida Isakovna OILADA BOLA TARBIYASI SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH International scientific online conference 173-176
13. S.I. Tursunova. Boshlang'ich sinflar o'quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirish https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=8AGiuXwAAAAJ&citation_for_view=8AGiuXwAAAAJ:YsMSGlbcyi4C10.
14. S.I. Tursunova The development of oral speech of younger schoolchildren in extracurricular activities
<https://www.geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/2711>.
15. Bahodirovna, C. Z., & Tursunova, S. I. (2023). ON THE EXAMPLE OF RUSSIAN EXPERIENCE IN CREATING PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS. International Journal of Pedagogics, 3(04), 1-11.

**TRANSMISSIYA AGREGATLARI, RUL BOSHQARMASIGA SXX,
TORMOZ TIZIMIGA SXX**

Qarshi tuman 1- sonli kasb-hunar maktabi
Murodullayev Toshbolta Geldiyevich
maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada transmissiyaning vazifasi va tasniflanishi, avtomobillar transmissiyalarining asosiy tarkibiy qismlari va ularning takomillashtirish yo'nalishlari, diagnostikalash agregatlarning texnik holati, transmissiya agregatlarini asosiy ta'mirlash operatsiyalari haqida batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: transmissiya agregatlari, rul boshqarmasi, tormoz tizimi, diagnostikalash.

Kirish:

Avtomobilning har xil harakat tezliklari va yuklanishlari sharoitida dvigatel quvvatidan maksimal darajada samarali foydalanish uchun esa transmissiyaning uzatishlari sonini talabga qarab o'zgartirish lozim bo'ladi. Rul boshqarmasi old tomondagi boshqariluvchi g'ildiraklarni burish orqali avtomobilning harakatlanish yo'nalishini o'zgartirish uchun xizmat qiladi. U rul mexanizmi va rul yuritmasidan tashkil topgan. Yuk ko'taruvchanligi katta bo'lgan yuk avtomobillarining rul boshqarmasida kuchaytirgich qo'llaniladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Avtomobil transmissiyasi asosan ikkita funksiyani bajaradi: dvigateldan burovchi momentni yetakchi g'ildiraklarga uzatish va uzatilayotgan burovchi moment yo'nalishi va kattaligini o'zgartirib berish. Bundan tashqari burovchi momentni alohida g'ildiraklarga taqsimlab berish ham transmissiyaning vazifasidir. Keng ma'noda–transmissiya deganda dvigatel validan mashinaning ish organlariga aylanma harakat uzatuvchi barcha qurilmalar majmui tushuniladi. Masalan, avtomobil yoki traktoralar mexanik transmissiya tarkibiga kuch uzatmasi, ilashma, kardanli uzatma, differensial mexanizmi va boshqa qurilmalar kiradi.

Avtomobillarning energiya manbai sanalgan ichki yonuv dvigateli tirsakli validagi burovchi momentning maksimal qiymatiga dvigatel valining muayyan bir aylanishlar sonida erishiladi. Avtomobilning turli xil harakat tezliklari va yuklanishlari muhitida dvigatel quvvatidan maksimal darajada samarali foydalanish uchun esa transmissiyaning uzatishlari sonini talabga ko'ra o'zgartirish keram bo'ladi.

Natijalar:

Transmissiya agregatlarini muhim ta'mirlash quyidagi operatsiyalarni o'z ichiga oladi: dastlabki tozalash, yuvish va agregatlarni qisman bo'laklash; ularni qisman

bo'laklangan holatda yuvish; agregatni detallarga ajratish, yuvish, tozalash; nuqsonlarni aniqlash va detallarni yaroqli, yaroqsiz hamda ta'mir talablarga saralash; detallarni tiklash; uzellarni butlash; yig'ish, bo'yash, agregatlarni ishlatib moslashtirish va smash.

Qismlarga ajratish ishlari qayta foydalaniladigan detallarning sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bu ishlarni tegishli postlarda, sifatli yig'ish-ajratish asboblari hamda ko'tarish-tashish qurilmalari yordamida bajarish lozim. Dastlabki tozalash va yuvishdan so'ng agregatlar qisman bo'laklanadi.

Podship-niklarni o'rnatishda va sug'urib olishda po'latdan yasalgan urib chiqargichlarni ishlatish hamda zarb kuchlaridan foydalanish taqiqlanadi. Qisman bo'laklangan agregatlarni yuvish mashinasida yana yuviladi. Mayda detallarni qaynoq eritmada yuvib moysizlantiriladi. Detailarga yopishib qolgan smolasi-mon kirlarni maxsus uskunalarda danak zarrachalari bilan yo'qotiladi. Zoldirli va rolikli podshipniklar kerosinli vannada tozalanadi.

Rul boshqarmasining umumiy lyufti maxsus dinamometrli jihozlar yordamida rul chambaragini aylantirish kuchiga asosan o'lchanadi. Rul chambaragi (burchak bo'ylab siljishi) lyuftini aniqlash uchun uning hoshiyasiga 10N kuch bilan ta'sir etiladi. Bu detallarning taranglanish hisobiga behato, aniqroq o'lchashga imkon beradi.

Muhokama:

Rul boshqarmasining nosozliklari harakat havfsizligiga katta havf tug'diradi. Asosiy nosozliklar rul chambaragi erkin yurishini ko'payib ketishi, rul mexanizmining og'ir aylanishi yoki qotib qolishi, shovqin bilan ishlashi va zichliklikni buzilishi va h.k. dan iborat.

Buning uchun lyuftomer-dinamometr rul chambaragiga o'rnatiladi. U dinamometrda mahkamlangan 3-shkaladan, rul kolonkasiga 1-siqqichlar yordamida mahkam qotirilgan 2-ko'rsatkichdan tashkil topgan bo'lib, dinamometr 4-siqqichlar yordamida rul kolonkasiga qotiriladi. Dinamometr shkalalari 5-shtokda ko'rsatilgan bo'lib, u rul chambaragiga qanday kuch bilan ta'sir etilayotganini ko'rsatib turadi. Shtok yordamida 10 N kuch bilan chambarak o'ng tomonga, so'ng chap tomonga harakatlantiriladi. Strelka o'ng va chap tomonga og'ish kattaligi qo'shib umumiy erkin yurish yo'li aniqlanadi. O'rta sifatda erkin yurish 10°dan oshmasligi kerak. Agarda erkin yurish katta bo'lsa mexanizmning bo'ylama va tishlarning ilashish tirqishlari sozlanadi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, diagnostikalash agregatlarning texnik holati to'g'risida, shuningdek zarur rostlash ishlarini bajargandan keyin ularni yana ishlatish mumkinligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi. Transmissiya agregatlarini avtomobil harakatlanganda hamda maxsus jihozda tekshirish mumkin. Diagnostikalash jihozining konstruksiyasiga qarab, ilashma to'liq qo'shilmasligi,

uzatmalar qutisi, kardanli uzatma va orqa ko'prik shovqin bilan ishlashi, tishli ilashmalarni esa yeyilganlik darajasi aniqlanishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Avtomobillarning texnik ekspluatatsiyasi. Universitetlar uchun darslik. Ed. Prof. E.S. Kuznetsova. M: Fan, 2002.
2. Borovskix Y. U. Avtomobillarning texnik tuzilishi, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash. Toshkent: «Mexnat», 2001.
3. O.Hamraqulov, Sh.Magdiyev. Avtomobillarning texnik ekspluatatsiyasi. Toshkent, 2005.
4. Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish uchun qo'llanma. DEU avtomobillar uchun qo'llanma. Toshkent, 2000.

QANDSIZ DIABETNING KELIB CHIQISHI VA UNI DAVOLASH USULLARI.

Akbarova Mehrinigor

Farg'ona Davlat universiteti Magistratura bo'limi

Biotexnologiya yo'nalishi 1- bosqich magistranti

Davidov Maxmudjon Adxamovich

Farg'ona Davlat universiteti Biologiya fanlar nomzodi, dotsent.

Annotatsiya: Qandsiz diabet – antidiuretik gormon yetishmovchiligi yoki ushbu gormonga bo'lgan buyraklar sezuvchanligining pasayishi bilan yuzaga chiquvchi kasallik. Buning natijasida peshob bilan ajralib chiqayotgan suyuqlik miqdori ortadi, doimo chanqash hissi bemorni bezovta qilib turadi. Agar ajralib chiqayotgan suyuqlik hajmi qoplanmasa organizmda suvsizlanish kelib chiqadi (degidratatsiya), bunda peshob ajralishi ko'pligicha qolaveradi.

Kalit so'zlar: Qandsiz diabet, antidiuretik gormon, buyrak, peshob, ADG, chanqoq, gipotalamus, bemor, qondagi qand miqdori.

Qandsiz diabet diagnostikasida kasallikka xos bo'lgan belgilar va qondagi ADG (antidiuretik gormon) miqdorini o'lchash kerak bo'ladi. Kasallik kelib chiqish sababini aniqlash maqsadida bemor bir necha tekshiruvlardan o'tishi zarur. Qandsiz diabet – gipotalamus sabab bo'lgan ADG yetishmovchiligi (chin yetishmovchilik) yoki gipotalamusning ADG sintez bo'lishidagi roli (nisbiy yetishmovchilik) buzilishi reabsorbsiya jarayonini buzadi, ya'ni kamaytiradi, natijada buyraklar orqali ajraladigan suyuqlik hajmi ortadi, peshob zichligi ancha past bo'ladi. Qandsiz diabetning yana bir o'ziga xos belgisi bemorda doimiy chanqoq hissi hamda organizm suvsizlanish alomatlarining namoyon bo'lishidir. Qandsiz diabet kam uchraydigan kasallik, bu patologiyaning uchrash ehtimoli ayollar va erkaklarda bir xil nisbatda va yoshidan qat'iy nazar yuzaga chiqadi. [5] Kasallik ko'pincha neyroxirurgik aralashuv natijasida ikkilamchi patologiya sifatida rivojlanadi. Kasallik klassifikatsiyasi. Zamonaviy endokrinologiya sohasida qandsiz diabet rivojlanishidagi qaysi bir tizim o'zgarishga uchraganligiga asoslanadi. Markaziy (neyrogen, gipotalamo-gipofizar) va buyrak (nefrogen) qandsiz diabet turlari farqlanadi. Markaziy qandsiz diabetda gipotalamusda ADG sintezining kamayishi yoki uning qonga kam miqdorda ajralishi kuzatiladi. Buyrak bilan bog'liq qandsiz diabet nefronlar distal kanallarining ADG ga sezuvchanligining pasayishi ro'y beradi. Markaziy qandsiz diabetning o'zi ham idiopatik (nasliy ADG sintezining kamayishi) va simptomatik (boshqa kasallik natijasida rivojlanadi) turlarga bo'linadi. Simptomatik qandli diabet inson hayoti davomida rivojlanishi mumkin (orttirilgan), ko'pincha bunga bosh miya jarohatlari,

o'sma kasalliklari, meningoensofalit sabab bo'lishi mumkin.[4] Qandsiz diabetning buyrak bilan bog'liq turi juda kam uchraydi. Bunga sabab buyrak nefronlarining to'liq tuzilmaganligi yoki ularning ADG gormoniga sezuvchanligining pasayishidir. Bu patologiya tug'ma bo'lishi yoki nefronlarning dori preparatlari ta'siri, metabolik o'zgarishlar natijasida kelib chiqishi mumkin. Qandsiz diabet sabablari. Ko'pincha qandsiz diabetning markaziy turi uchraydi. Bunga sabab gipotalamo-gipofizar tizimdagi o'smalar, neyroxirurgik aralashuvlar, qon tomirlar bilan bog'liq muammolar, sil, malyariya, sifilis (zahm) sababli zararlanishi bo'lishi mumkin. Idiopatik qandsiz diabetda gipotalamo-gipofizar tizimda organik o'zgarishlar kuzatilmaydi, gormon sintez qiluvchi hujayralarga qarshi antitelolar ishlab chiqariladi va ular ushbu hujayralarni nobud qiladi. Qandsiz diabetning buyrak bilan bog'liq turi rivojlanish sabablariga tug'ma yoki orttirilgan buyrak kasalliklari (buyrak yetishmovchiligi, amiloidozi, giperkalsiyemiya) yoki litiy preparatlari bilan zaharlanish kabi omillar kiradi. Qandsiz diabetning tug'ma ko'rinishi ko'pincha autosom-retsessiv gen orqali o'tuvchi Volfram sindromi sabab bo'ladi, bunda qandsiz diabet bilan bir qatorda, qandli diabet, ko'ruv nervi atrofiyasi, karlik ham rivojlanishi mumkin. Qandsiz diabet belgilari. Qandsiz diabetning tipik belgilariga poliuriya (ko'p peshob ajralishi) va polidipsiya kiradi. Poliuriya – sutkalik peshob miqdorining ko'payishi (4-10 litr, ba'zida 20-30 litrgacha) bilan namoyon bo'ladi.[3] Bunda peshob rangsiz, kam miqdorda tuz saqlaydi va nisbiy zichligining pasayishi (1000-1003) ham kuzatiladi. Doimiy chanqoq hissi esa polidipsiya bilan namoyon bo'ladi, organizm suvsizlanadi, yo'qotilgan suyuqlik hajmi ajralayotgan peshob hajmi bilan teng bo'ladi. Qandsiz diabet belgilarining yuzaga chiqish darajasi qondagi ADG gormoni yetishmovchiligi darajasiga bog'liq bo'ladi. Idiopatik qandsiz diabet odatda o'tkir boshlanadi. Homiladorlik vaqtida rivojlanish ehtimoli yuqori bo'ladi. Tez-tez peshob ajratish uchun hojatga borish tungi uyqu ritmi buzilishiga sabab bo'ladi, bundan tashqari nevroitik holatlar, emotsional labillik ham bemorda yuzaga chiqishi mumkin. Bolalarda qandsiz diabet enurez (peshob tuta olmaslik) bilan namoyon bo'lib, keyinchalik bolada bo'y o'sishi va jinsiy yetilishida kamchiliklar kuzatiladi. Qandsiz diabetning kechki belgilariga buyrak jomchalari, siydik kanali, siydik pufagining kengayishidir. Qandsiz diabetdan aziyat chekadigan bemorda terisi quruq, ter ajralishi, so'lak ajralishi va ishtahaning pasayishi kuzatiladi. Keyinchalik suvsizlanish, ozib ketish, ko'ngil aynishi, bosh og'rig'i va arterial qon bosimining pasayishi ham kasallik belgilariga qo'shiladi. Bosh miya bilan bog'liq o'zgarishlar, ya'ni gipofizar yetishmovchilik belgilari ham rivojlanadi (pangipopituitarizm). Eraklarda potensiyaning pasayishi, ayollarda esa hayz siklining buzilishi kuzatiladi.[2] Qandsiz diabet asoratlari. Ushbu kasallik organizm suvsizlanishiga olib kelishi bilan xavflidir. Suvsizlanishda umumiy holsizlik, taxikardiya, ko'ngil aynishi, psixik o'zgarishlar, qonning quyuqlashib ketishi, kollaps holatiga tushish, arterial bosimning pasayishi hamda nevrologik

o'zgarishlar bilan kechadi. organizmda kuchli suvsizlanish ro'y bersa ham peshob ajralishi ko'pligicha qoladi. Diagnostikasi. Qandsiz diabetga shubha qilish uchun doimiy kuchli chanqoq hissi va sutkalik ajralayotgan peshob hajmining 3 litrda ko'pligidir. Sutkalik ajralayotgan peshob hajmini aniqlash uchun Zimnitskiy sinamasi o'tkaziladi. Peshob analizida siydikning nisbiy zichligi pastligi, giperkalsiyemiya va gipokaliyemiya holatlari aniqlanadi. Qandli diabetdan farqlash maqsadida och qoringa qondagi glyukoza miqdorini tekshirish kerak bo'ladi. Diagnostikani tasdiqlash uchun qonda ADG miqdori tekshiriladi va uning miqdori normadan past holatda ekanligi aniqlandi. Kasallik sababini aniqlash maqsadida rentgenografiya, psixonevrologik, oftalmologik tekshiruvlar o'tkaziladi. MRT yordamida bosh miyadagi o'zgarishlar hamda o'smalar aniqlanadi. Qo'shimcha sifatida buyraklar UTT (UZI) tekshiruvi va KT o'tkaziladi. Ba'zida buyraklardan biopsiya olinadi va mikroskop ostida uning hujayraviy o'zgarishari aniqlanadi. Qandsiz diabet davosi. Simptomatik qandsiz diabet davosi kasallikka sabab bo'luvchi asosiy patologiyani davolash orqali (masalan o'smalar) amalga oshiriladi. Qandsiz diabetning har qanday ko'rinishida ham ADG gormoni o'rnini bosuvchi preparatlar buyuriladi. Gipotalamo-gipofizar tizimdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun antidiuretik gormon sintezini kuchaytiruvchi dori preparatlar qabul qilish tavsiya etiladi. Tuz-suv balansini tiklash maqsadida infuzion terapiya o'tkaziladi. Buyraklar zo'riqmasligi uchun ovqatlanishda oqsilga boy bo'lgan mahsulotlar iste'moli kamaytiriladi, uglevod va yog'ga boy bo'lgan mahsulotlar iste'mol qilish ko'paytiriladi.[1]

Xulosa:

Qandsiz diabet oqibati. Biror bir kasallik natijasida rivojlangan qandli diabet ko'pincha asosiy kasallikni davolagandan so'ng o'tib ketadi. Idiopatik qandli diabet esa uzoq muddat davom etadi va kam holatlarda to'liq davolanadi. To'liq sog'ayish o'smalarni olib tashlaganda, sifilis, sil, malyariya sababli rivojlangan kasalliklarni bartaraf etganda kuzatiladi. To'g'ri buyirilgan gormonal terapiya yordamida bemorlarda mehnat faoliyati saqlanib qoladi. Bolalarda buyraklar bilan bog'liq bo'lgan qandli diabet oqibati ijobiy kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Biologiya. 9-sinf (2010, A.Zikirayev, A.To'xtayev, I.Azimov, N.Sonin)[1]
2. Odam va uning salomatligi. 8-sinf (2010, B.Aminov, T.Tilavov, O.Mavlonov)[2]
3. M.Tilovov.Ovqatlanish gigiyenasi Toshkent-2009[3]
4. M.Tilovov.Ovqat hazm qilish va ovqatlanish fiziologiyasi Toshkent-2011[4]
5. www.ziyonet.uz[5]

**QANDLI DIABET KASALLIGI VA UNING KELIB CHIQISH SABABLARI
HAMDA DAVOSI.****Akbarova Mehrinigor***Farg'ona Davlat universiteti Magistratura bo'limi**Biotexnologiya yo'nalishi 1- bosqich magistranti***Davidov Maxmudjon Adxamovich***Farg'ona Davlat universiteti Biologiya fanlar nomzodi, dotsent.*

Annotatsiya: Qandli diabet yoki qand kasalligi — bu moddalar almashinuvi buzilishi holati bo'lib, qonda qand miqdorining o'zgarishi bilan kechadi. Insulin gormoni qondagi qandni tegishlicha, energiya sifatida ishlatish yoki zaxira sifatida to'plash uchun xizmat qiladi. Qandi diabet kasalligida esa, xuddi o'sha insulin gormonini organizm yetarlicha ishlab chiqara olmaydi yoki undan samarali foydalanolmaydi. Natijada, qonda qandning miqdori normadan ko'payib, ko'z, buyrak, nerv va boshqa muhim a'zolarida turli patologik holatlar yuz beradi.

Kalit so'zlar: Qandli diabet, qondagi qand miqdori, insulin gormoni, glyukoza, shakar miqdori, og'iz qurishi va tez charchash.

Qandli diabet turlari.

1-tip diabetga chalingan odamlarda turli sabablarga ko'ra, oshqozon osti bezidagi insulin ishlab chiqaradigan hujayralari insulin ishlab chiqarmaydi. Insulin organizmda yetishmasligi sababli glyukozani qayta ishlay olmaydi. Natijada ovqatingiz tarkibidagi glyukoza hujayralarga kirib borolmaydi. Bu qonda glyukoza miqdori oshishiga olib keladi. Qonda shakarning yuqori darajasi esa, qisqa va uzoq muddatli muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

2-tip qandli diabet kasalligida organizmdagi tegishli hujayralarning insulinga nisbatan sezgirligi kamayib, yetarli miqdorda insulin ishlab chiqarilgan taqdirda ham qondagi glyukozani hujayralarga kiritishda muammo yuz beradi. Oqibatda, qon tarkibida qandning miqdori ko'p bo'lib qolaveradi. Bu esa, organizmda turli muammolarga ilk debocha bo'ladi.

Kasallikka ushbu davrda e'tiborsizlik qilinsa, keyingi bosqichlarida organizmda yetarlicha insulin ishlab chiqarmasligi ham mumkin. Nazorat qilinmagan 2-tip qandli diabet qonda glyukoza miqdorining yuqori darajada saqlanishiga olib keladi.

Qandli diabet belgilari.

Quyida 1-tip qandli diabetning alomatlari keltirilgan:

Tez och qolish;

Tez chanqash;

Ko'rish yomonlashishi;

Charchash;

Tez-tez siyish;[1]

Qisqa vaqt ichida keskin vazn yo‘qotish.

Shuningdek, diabetning asoratlari bo‘lgan bemorlarda ketoatsidoz rivojlanishi mumkin. Ushbu holatning belgilari quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

Nafas olish tezlashishi;

Teri va og‘iz qurishi;

Qizargan yuz;

Og‘izdan yomon hid kelishi;

Ko‘ngil aynishi;

Qusish yoki oshqozon og‘rig‘i.

Agar sizda diabetning bir yoki bir nechta alomatlari bo‘lsa, shifokorga tashrif buyurishingiz kerak. Ammo sizda ketoatsidoz belgilari bo‘lsa, darhol tibbiy yordamga murojaat qilishingiz shart. Ketoatsidoz — bu shoshilinch tibbiy yordam shart bo‘lgan holatdir.

2-tip diabet organizmda asta-sekin rivojlanadi. Shunga muvofiq ilk simptomlar ham bilinar-bilinmas, yashirin holatda bo‘lishi mumkin. 2-tip qandli diabet quyidagi belgilar bilan namoyon bo‘ladi:

Doimiy ochlik hissi;

Energiya yetishmasligi;

Doimiy charchoq hissi;

Ozish;

Tez chanqash;

Tez-tez siyish;

Og‘iz qurishi;

Teri qichishishi;

Ko‘rishning xiralashishi.[2]

Kasallik rivojlangan sari alomatlar yana-da kuchayib, hayot uchun xavfli belgilar ham kuzatilishi mumkin.

Agar qonda glyukoza miqdori uzoq vaqt davomida yuqori bo‘lsa, bemorlarda quyidagi belgilar kuzatilishi mumkin:

Jarohat yoki yaralarning sekin bitishi;

Teridagi to‘q rangli dog‘lar;

Oyoq og‘rig‘i.

Agar o‘zingizda ushbu yashirin alomatlarining yoki yaqqon belgilarning ikki yoki undan ko‘prog‘ini sezsangiz, shifokorga murojaat qiling. Qandli diabetning ushbu tipini nazoratsiz qoldirish hayot uchun xavfli holatlarni yuzaga keltirib chiqaradi.

Qandli diabet sabablari. Qand kasalligining kelib chiqish sabablari tiplariga ko‘ra, turlicha bo‘ladi. 1-tip qand kasalligi qanday kelib chiqishi haqida aniq ma’lumotlar

hozircha yo‘q. Lekin, bunga organizmda yuz bergan autoimmun reaksiya sabab bo‘lishi mumkin, degan fikrlar mavjud. Insonning immun tizimi oshqozon osti bezidagi insulin ishlab chiqaruvchi, beta hujayralarga hujum qilishi natijasida, uni ishdan chiqaradi va ushbu hujayralar asosiy vazifasini bajara olishmaydi.

Ikkinchi tip qandli diabet kelib chiqishida, genetik va hayot tarzi muhim faktor sifatida baholanadi. Noto‘g‘ri ovqatlanish, kamharakatlik, semizlik, oilada qandli diabet bilan kasallanganlarning bo‘lishi hujayralarning insulinga bo‘lgan turg‘unligiga ta’sir etishi mumkin. Natijada, qonda qandning miqdori sezilarli oshishi kuzatiladi.

Qand kasalligini aniqlash.

Kasallik belgilari sezilsa, albatta, qand kasalligi mavjudligini yoki mavjud emasligini aniqlash kerak. Buning uchun bir nechta laboratoriya va instrumental tekshiruvlar o‘tkazilishi kerak.

Qonda glyukoza miqdorini aniqlash. 8 soatlik ochlikdan so‘ng, och holatda glyukozaning qon plazmasidagi miqdori tekshiriladi.

Glyukozaga sezuvchanlik sinovi. Och holatda va ovqatdan keyin ikki soat o‘tib qondagi glyukoza miqdorini o‘zaro solishtiriladi.

Glikemik kuzatuv. Kun davomida qondagi qand miqdorini bir necha bor tahlil qilish. Davolash samarasini o‘rganish uchun qo‘llaniladi.

Siydikda glyukoza, oqsil, oq qon hujayralari mavjudligi tekshiriladi.

Siydikda atseton mavjudligini tekshiriladi.

Qonda glikolizlangan gemoglobin miqdorini aniqlanadi.

Qonning biokimyoviy tahlili.

Qandli diabet bilan kasallangan barcha bemorlar quyidagi mutaxassislar ko‘rigidan o‘tishlari shart:

Endokrinolog;[3]

Kardiolog;

Nevrolog;

Oftalmolog;

Jarroh.

Kasallik asoratlari

Qandli diabetning asoratlari organizmda asta-sekin rivojlanadi. Bemor qonda qand miqdorini nazorat qilmasa, kasallikka jiddiy ahamiyat bermasa, jiddiy asoratlar rivojlanish xavfi yuqori bo‘ladi. Oxir-oqibat diabetning asoratlari hayot sifatining yomonlashishiga, hattoki nogironlikka olib kelishi mumkin. Yurak-qon tomir kasalliklari. Qand kasalligi turli yurak-qon tomir muammolari, shu jumladan yurak ishemik kasalligi, yurak xuruji, ateroskleroz kasalligi xavfini keskin oshiradi. Agar bemor diabetga chalingan bo‘lsa, uning yurak kasalliklari yoki insult bilan kasallanish ehtimoli yuqori. Nervlar shikastlanishi (neyropatiya). Haddan tashqari yuqori qand mayda qon tomirlari (kapillyarlar) devoriga, ayniqsa oyoqlarni oziqlantiruvchi mayda

qon tomirlari devorlariga zarar yetkazishi natijasida nerv hujayralarining oziqlanishida buzilish yuz beradi. Bu bora-bora bemor oyoq va qo'llarining uch qismlarida turli bezovtaliklar, og'riqlar, achishish va sezgining pasayib ketishi bilan namoyon bo'ladi. Va keyinchalik bu holat qo'l va oyoqning pastki qismlaridan tashqari, yuqori qismlarda ham seziladi boshlaydi. [4]Davo chorasi ko'rilmasa, zararlangan oyoq-qo'llarda sezish to'liq yo'qolishi ham mumkin. Ovqat hazm qilish bilan bog'liq bo'lgan nervlarning shikastlanishi esa, ko'ngil aynish, qusish, diareya yoki ich qotishi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi. Erkaklar uchun bu erektile disfunktsiyaga olib kelishi mumkin. Buyrak shikastlanishi (nefropatiya). Buyraklar tarkibida qondagi chiqindilarni filtrlaydigan millionlab mayda tuzilmalar mavjud. Nazorat qilinmagan qandli diabet esa, bu nozik filtrlash tizimiga zarar yetkazishi mumkin. Qand kasalligi buyrak yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin, bu esa ba'zida bemordan dializ yoki buyrak transplantatsiyasini talab qiladi. Ko'zning shikastlanishi (retinopatiya). Qandli diabet ko'z to'r pardasining qon tomirlariga zarar yetkazishi (diabetik retinopatiya), bu esa bora-bora ko'rlikka olib kelishi mumkin. Qandli diabet, shuningdek, katarakta va glaukoma kabi boshqa jiddiy ko'rish kasalliklari xavfini ham oshiradi. Oyoq shikastlanishi. Oyoqlarda qon tomir va nervlar zararlanishi oyoqning turli xil ikkilamchi asoratlar rivojlanish xavfini oshiradi. Vaqtida davolash o'tkazilmasa, oxir-oqibat barmoq, tovon yoki oyoq amputatsiyasini talab qilishi mumkin. [5]

Oyoqlarda yuz berishi mumkin bo'lgan xavflarni oldini olish bo'yicha tavsiyalarimizni "Qandli diabet kasalligida oyoqlar parvarishi" maqolasi orqali o'qishingiz mumkin. Teri kasalliklari. Qandli diabet terining normal tuzilishiga ta'sir etib, turli muammolarga, shu jumladan bakterial va zamburug' kasalliklariga moyilligini oshiradi.

Qandli diabet davosi.

1-tip diabet kasalligida, yuqorida ta'kidlanganidek, organizm o'zi mustaqil insulin ishlab chiqara olmaydi. Shuning uchun qondagi qandni boshqarishda yordam berish uchun insulin qabul qilish kerak bo'ladi. Insulin 1-toifa diabetni davolashning asosiy usuli hisoblanadi. Kiritilgan insulin tana ishlab chiqara olmaydigan gormon o'rnini bosadi. Boshqa qo'shimcha davolash usullari, shuningdek, taomnoma asosida to'g'ri ovqatlanish, belgilangan jismoniy mashqlarni bajarish 1-tip diabetning alomatlarini nazorat qilishda foyda beradi. Insulinning eng ko'p ishlatiladigan to'rt turi mavjud. Ular qanchalik tez ishlashni boshlashlari va ularning ta'siri qancha davom etishi bilan farqlanadi:

Tez ta'sir ko'rsatadigan insulin 15 daqiqada ta'sir eta boshlaydi va uning ta'siri 3-4 soat davom etadi.

Qisqa ta'sirli insulin 30 minut ichida ta'sir eta boshlaydi va 6 dan 8 soatgacha davom etadi.

O'rta ta'sir etuvchi insulin 1 soatdan 2 soat ichida ta'sir eta boshlaydi va ta'siri 12 dan 18 soatgacha davom etadi.

Uzoq muddatli insulin inyeksiyadan bir necha soat o'tgach ta'sir eta boshlaydi va ta'siri 24 soat yoki undan ko'p davom etadi.

Bemor qandli diabetning ikkinchi turini samarali boshqarishi mumkin. 2-toifa diabetni boshqarish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish lozim:

Ratsioningizga klechatkaga va sog'lom uglevodlarga boy ovqatlarni qo'shing. Meva, sabzavot va donli mahsulotlarni iste'mol qilish qonda glyukoza miqdorini barqaror saqlashga yordam beradi.

Faqat to'yguncha ovqatlaning. Ortiqcha yemang!

O'z vazningizni me'yorda tuting.

Xulosa:

Yuragingizni sog'lom saqlashga yordam berish uchun har kuni taxminan yarim soatlik aerobik mashqlar qiling. Jismoniy mashqlar qon glyukozasini nazorat qilishga ham yordam beradi. Glyukozani nazorat qilish uchun mashqlarni to'g'ri bajarish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki qoidalarga amal qilmaslik aks ta'sir etib, qonda qand miqdorining keskin o'zgarishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Qandli diabet kasalligida tavsiya etiladigan mashqlar va ko'rsatmalar bilan "Qandli diabetda davolovchi mashqlar" maqolamiz orqali ma'lumot oling. Shifokoringiz qon shakarining juda yuqori yoki juda past bo'lgan dastlabki alomatlarini qanday aniqlashni va har bir vaziyatda nima qilish kerakligini tushuntiradi. Shuningdek, ular sizga qaysi ovqatlar foydali va qaysi ovqatlar foydali emasligini bilib olishga yordam beradi. Ikkinchi turdagi diabetga chalinganlarning hammasi ham insulinidan foydalanishlari shart emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Biologiya. 9-sinf (2010, A. Zikiryayev, A. To'xtayev, I. Azimov, N. Sonin)[1]
2. Odam va uning salomatligi. 8-sinf (2010, B. Aminov, T. Tilavov, O. Mavlonov)[2]
3. M. Tilovov. Ovqatlanish gigiyenasi Toshkent-2009[3]
4. M. Tilovov. Ovqat hazm qilish va ovqatlanish fiziologiyasi Toshkent-2011[4]
5. www.ziyonet.uz[5]

MILLIY TA'LIM TIZIMIDA XALQ MAORIFI – JADIDLAR TARIXI

*Madaminjonov Xojiakbar Saydamin o'g'li**Mirzo Ulug'bek nomli**O'zbekiston Milliy universiteti**Ijtimoiy Fanlar fakulteti magistranti*

ANNOTATSIYA

Maqolada o'zbek millati tarixida ro'y bergan muhim o'zgarishlar, siyosiy jarayonlar va kurashlar ko'rib chiqildi. Jadidlar harakatining boshlanishi, asosiy qahramonlar, ularning olib borgan ishlari haqida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar : jadid, xalq, din, tarix, ittifoq, siyosat, ma'rifat.

HISTORY OF THE PEOPLE'S ENLIGHTENMENT - JADIDS IN THE NATIONAL EDUCATION SYSTEM

ABSTRACT

The article examined the significant changes, political processes and struggles that have occurred in the history of the Uzbek nation. The beginning of the Jadid movement, the main characters, their work were mentioned.

Keywords : jadid, people, religion, history, union, politics, enlightenment.

Kirish. XIX asr oxiri - XX asr boshlariga kelib, Turkistonda millat taqdiriga tahdid soluvchi o'ta qaltis va og'ir ichki tarixiy muhit paydo bo'ldi. Bir tomondan, Rossiya imperiyasi musatamlakachiligi siyosiy jihatdan mustahkamlandi. Mustamalka va zo'ravonlikka mukkasidan ketgan rus bosqinchilari esa, endi o'z mafkurasini singdirish orqali ma'naviy ustunlikka ham ega bo'lishi uchun mahalliy xalqni ruslashtirish, uning g'ururini sindirish, o'zligini yo'qotishdek, o'ta razil shovinistik siyosatni kuchaytirdilar. Ikkinchi tomondan esa, millat va xalqimiz o'z siyosiy, ma'naviy huquqlari, erki va hohish-irodasini yo'qotdi. Uchinchidan, umuman musulmon mutaassibli (konservatizm va bid'at) kuchaydi. Millatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli hamda ma'naviyati tubanlashdi. Buning ustiga ustak, din peshvolari orasidagi mutaassiblarda yangilikka, dunyoviy ma'rifat va taraqqiyotga qarshilik ham avj oldi. Bu esa, Islom dini hamda shariatiga mutlaqo zid ravishda avj oldi.

Mutaassiblar bid'at botqog'iga botgan holatda, ijtimoiy majhul noaniqlikdagi g'aflat uyqusiga mast bo'lib, aql va fahm-farosatlari ojizligi evaziga, o'zlari sezmagan holda mustamlakachilar manfaati, mafkurasiga xizmat qila boshlaydilar.

Millat va xalqimiz mana shunday ikki tomonlama o'ta ayanchli va havfli ijtimoiy-siyosiy muhit hamda vaziyatga duch kelgan bir paytda musulmon ziyolilar din homiylari orasidan yangi bir taraqqiyparvar guruhning harakati paydo bo'ldi. Ular «jadid» (yangi) degan ulug' nomga muyassar bo'lgan holda, Millat va Vatan, musulmon xalqlari uchun ma'naviy qalqon bo'lib, kurash maydoniga otildilar. Jadidlar millatni bo'yin egishi va tanama-taqdir qilish havfidan qutqarishning birdan-bir to'g'ri yo'li avval tarbiya va ma'rifat, so'ng islohot ekanligini juda to'g'ri anglab yetdilar.

Shuning uchun ham jadidlar millat va xalqni g'alayon va qo'zg'olonga, inqilobiy buzg'unchilik kabi yovvoyilikka da'vat etmadi. Aksincha, ularni diniy-dunyoviy ma'rifat, ilm-fan, madaniyat va yangiliklar bilan qurollantirib tarbiyalash, o'zligini anglatish, ijtimoiy-ma'naviy g'aflat uyqusidan uyg'otib, turmush tarzi, tafakkuri, ma'naviyati, madaniyati, adabiyoti va maorifini o'zgartirishga bel bog'ladilar.

Asosiy qism. Abdulla Avloniyni ushbu hikmati jadidlar uchun asosiy e'tiqod va amaliy faoliyat dasturi bo'lib qoldi: «Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo najot, yo halokat – yo saodat, yo falokat masalasidir». [Darhaqiqat](#), bu paytda millatni halokat va falokatdan asrab, saodatga olib chiquvchi jadidlar tarbiyasi bilan millatni ma'nan tobe qilib, halokat va falokatga duchor etuvchi mustamlakachilar «tarbiya»si qarama-qarshiligi paydo bo'lgan edi.

Jadidchilik harakati ba'zi-bir tarixga oid adabiyotlarda aytilganidek, “oldin madaniy-ma'rifiy harakat bo'lib, keyin ijtimoiy-siyosiy harakatga o'sib o'tgani” yo'q. U o'z tabiati maqsad va mohiyatiga ko'ra, dastlabki kundanoq, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy va islohotchilik harakat bo'lgan. Ammo Vatanni ozod va obod qilish, millat va xalqni hurriyatga olib chiqish, to'q va farovon, madaniyatli qilish uchun jadidlar asosiy e'tiborni dastlab madaniy-ma'rifiy ishlarga qaratdilar.

Mustamlakachilarining asosiy maqsadi, xalqni mutlaq tobe va qaram qilish, Turkistonda siyosiy erksizlikni qaror toptirib, milliy o'limni amalga oshirish bo'lganligiga sharqshunos olim N. N. Veselovskiy (1848-1918) quyidagicha guvohlik beradi: «Biz Turkistonga madaniyat olib keldik deb o'ylaymiz. Bo'ysundirilgan osiyoliklarga tinchlik va osoyishtalik berdik deb o'zimizni ovutamiz. Ammo bularda bir oliy tuyg'u borki, bu millat va uning milliy iftixoridir...

Musulmonlar ahvolini tushunishimiz kerak. Siyosiy o'lim (milliy davlatni yo'qotib, siyosiy xalq-huquqdan ayrilish-muxarrir) og'ir, milliy o'lim esa undan ham og'irroqdir. Bizning hukmronligimizda ular (turkistonliklar) xuddi shunday ahvolga tushdilar. Shunday milliy manfaatlar borki, ular xalq och yoki to'qligidan qat'i nazar, bir kunmas bir kun o'zini namoyon etajak”.

Turkistonda ruslashtirish siyosatini amalga oshirish bilan ma'lum missionerlar guruhi muntazam ravishda ish olib boradi. N.Ostroumov, M.Miropiev, V.P.Nalivkin va boshqa ashaddiy shovinistlar mana shu guruhning eng ko'zga ko'ringanlari edilar. N.Ostroumov o'z missionerlik vazifasiga ko'ra, Turkistonda general-gubernatordan

ham yuqori mavqega ega bo'lgan. V.P.Nalivkin esa "Yarim yovvoyi osiyoliklarni hamisha qo'rquv va vahima ichida qaltirab turishga majburlash kerak" degan "dasturilamal" ishlab chiqib, uni mustamlakachi ma'muriyatga ijro uchun taqdim etadi.

XX asr boshiga kelib millatni milliy o'limdan saqlab qolish va istiqloлга olib chiqish uchun ma'rifat, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy tarbiya asosiy omil, eng muhim ma'naviy qurol darajasiga ko'tarildi. Buni esa jadidlar Vatan ozodligi yo'lidagi kurash harakatining asosi deb bildilar. Ular musulmon mutaassibligiga qarama - qarshi ravishda diniy va dunyoviy ma'rifatparvarlik g'oyalarini olg'a surdilar. Shariat qoidalari, "Qur'oni karim"ni yaxshi bilganlari uchun ham din peshvolari orasidagi qoloqlikka, "Taraqqiyot islomga zid" degan aqida va tushunchalarga qarshi kurashdilar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, jadidchilikning paydo bo'lishiga avvalo islomdagi diniy-dunyoviylikning, taraqqiyotparvarlik va ilm-fan, shariat amallarining o'rni katta bo'ldi.

Jadidlarning dadil yangilik yaratishi, dunyoviylikni targ'ib etishi uchun Payg'ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vasallamning mana bu ikki hadisi - shariflari ma'naviy asos va kuch-quvvat bo'ldi: "Oxiratini deb dunyosini tark qilgan ham, dunyosini deb oxiratini tark qilgan ham sizlarning yaxshingiz emas...", "Dinda o'rtacha yo'l tutinglar, o'rtacha yo'l tutinglar, o'rtacha yo'l tutinglar, chunki ushbu din amallarida kim og'irlashtirib yuborsa uni amal yengib qo'yadi".

Xulosa shuki, [birinchidan](#), jadidchilik islomdagi taraqqiyotparvarlik, ilm-fanga rag'bat va dunyoviylikning yangi davrdagi ko'rinishi sifatida paydo bo'ldi. Jadidlar islomni har xil mutassiblik bidatlardan asrab rivojlantirdi. Ikkinchidan, jadidchilikni paydo bo'lishi va rivojlanishiga Sharq va G'arb mamlakatlarida rivojlangan quyidagi demokratik, milliy-ozodlik, islohotchilik harakatlarining ta'siri ham kuchli bo'ldi:

1. Jamoliddin Afg'oniy (1839-1897) va Muhammad Abdolar (1848-1903) asos solgan musulmon dunyosidagi islohotchilik va "nahda" (uyg'onish) harakatlari.

2. XIX asrning 90-yillaridan boshlanib, 1905-1907 va 1917 yillarda katta g'alabalarga erishgan rus sotsial demokratik va inqilobiy harakatlari.

3. Turkiyadagi aksilmonarxistik, konstitutsion demokratik, ijtimoiy-milliy uyg'onish harakatlari: Tanzimot (1840-1860), Yosh usmonlilar (1865-yildan 80-yillargacha), Yosh Turklar (1889-1918) va 1908-1909 yillardagi demokratik-inqilobiy harakatlar.

4. Jadidchilik harakatining paydo bo'lib, rivojlanishida qrimlik Ismoilbek Gaspiralin (1851-1914) hissasi behad katta bo'ldi. U Qrimda XIX asrning 80-yillardayoq, Rossiya bosib olgan musulmon xalqlari orasida birinchi bo'lib jadidchilikka asos soldi. Uning rus va turkiy tillarda chop etilgan "Tarjimon" (1883-1914) gazetasi, "Rossiya musulmonligi" (1881), "Ovrupa madaniyatiga bir nazar muvozzini" (1885) va boshqa asarlari hamda jadid maktabi uchun yozgan darslik va qo'llanmalari Turkistonga tez kirib keldi.

Ismoilbek Gaspirali 1884-yilda “Tarjimon” gazetasi orqali musulmonlarga qarata shunday murojaat qiladi: “Suyukli do‘stlarim, bizning uchun eng go‘zal ish ilm va maorif ishidir. Eng muqaddas intilish ilmga, maorifga intilishdir. Chunki insonni inson etgan mehnat va bilimdir. Bilim madaniy turmush (sivilizatsiya) ga yetishish vositasidir.”

I. Gaspirali 1884-yilda o‘n ikkita bolani yangicha usul-”usuli jadid”-savtiya (tovush) usuli bilan o‘qitib, qirq kunda savodini chiqaradi. Ular o‘qish va yozishni mukammal o‘zlashtira boshladilar. U 1892-yilda Turkiston general-gubernatori A.B. Vryovskiye ga maxsus maktub yo‘llab, unda maktablarni isloh qilish, jadid maktablarini tashkil etish madrasalardan birini zamonaviy – dunyoviy oliy o‘quv yurtga moslab isloh qilishni taklif etadi. Ammo bu takliflar amalga oshmaydi. Shundan so‘ng Ismoilbek Gaspirali 1893-yilda Toshkentga keladi va ziyoli ulamolar bilan uchrashadi. Samarqandda bo‘ladi. U yerdan Buxoroga borib, amir Abdulahadni jadid maktabi ochishga ko‘ndiradi va bu maktabga “Muzaffariya” degan nomni beradi. Jadidchilik g‘oyasi Turkistonda XIX asr 80-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab tarqalib, shu asrning 90-XX asrning 5-yili oralig‘ida muntazam ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy harakat sifatida shakllandi.

Jadidchilik harakati asosan ikki davrga bo‘linadi: 1) XIX asrning 90-yillaridan-1917 yil fevralgacha; 2) 1917 yil fevraldan-1929 yilgacha. Birinchi davrning o‘zi uch bosqichga bo‘linadi: 1) Jadidchilik g‘oyasining paydo bo‘lishi va muntazam uyushgan harakat shakliga ega bo‘lishi (XIX asrning 90-yillari-1905-yil); 2) Jadidchilik harakatining nisbatan tez va qarshiliksiz rivojlanishi (1905-1909-yillar); 3) Jadidchilikning chorizm tomonidan ozodlik, demokratik va inqilobiy harakatlarga qarshi kurashni kuchaytirgan davrdagi rivojlanishi (1909-1916-yillar). Ikkinchi davr ham voqealar rivojlanishiga qarab uch bosqichga bo‘linadi: 1) 1917-yil fevral-oktabr; 2) 1917 yil noyabr – 1924-yil; 3) 1925-1929-yillar.

Xulosa. Buyuk millatparvar jadidlar, jadid matbuoti orqali millatni o‘z madaniy-iqtisodiy ahvoli, siyosiy qaram va huquqsizligini anglatishga, unda bosqinchilarga qarshi nafrat, milliy istiqloлга ishonch ruhini tarbiyalashga muvaffaq bo‘ldilar. Shuning bilan birga ular milliy muxtoriyat va jumhuriyat g‘oyasini, millatlararo tenglik va qon-qarindoshlikni targ‘ibot qilishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni// “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” kitobida. –T.: Sharq, 1997.
2. O‘zbek pedagogikasi tarixi. (Ko‘llanma. prof. A.Zunnunov taxriri ostida). T. „O‘kituvchi“. 1997.
3. Pedagogika. (Ko‘llanma. A Munavvarov taxriri ostida) T. „O‘kituvchi“. 1996.
4. Pedagogika. (Ko‘llanma. prof. A.Ilina taxriri ostida). M. 1984.

AXBOROT TIZIMLARINING FUNKSIONAL BO'LIMLARI

Muxtorov Doston Naim o'g'li*O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali, Assistant**dmuxtorov062@gmail.com***Amankulova Istamgul Toshtemir qizi***O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali, talaba**amankulovaistam@gmail.com***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada axborot tizimlarining funksional bo'limlari keng yoritilgan. Axborot tizimlarining funksional bo'limlari, tizimning ishlashi va foydalanuvchilar bilan aloqani ta'minlash uchun xizmat qiluvchi bo'limlardan iboradir. Bu bo'limlar tizimning ma'lumotlar bazasi, foydalanuvchi interfeysi, biznes logikasi, xabarlarini shakllantirish va tarqatish, ma'lumotlar analizi, xavfsizlik va ma'lumotlar integratsiyasi bilan bogliqdir. Bu bo'limlar tizimning muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarurdir.

Kalit so'zlar: Tizim, Telekommunikatsion tizim, Axborot, Abstrakt tizimlar,

KIRISH

Tizim – bu qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun o'zaro birlashtirilgan va ayni bir vaqtda yagona deb qaraluvchi turli elementlar to'plamidir. Tizimlar nafaqat tarkibi, balki qo'yilgan asosiy maqsadlari bo'yicha ham bir-birlaridan farqlanadi.

1-misol. Korxona tizim deb qaraladigan bo'lsa, uning elementlari sifatida binolar, texnik vositalar, xom-ashyo, xodimlar va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Korxonaning oldiga qo'yilgan asosiy maqsadi – bu mahsulot ishlab chiqarishdir.

2-misol. Telekommunikatsion tizim. Elementlari – aloqa tarmoqlari, modemlar, kompyuterlar, tarmoq dasturiy ta'minoti va boshqalar. Asosiy maqsadi – axborot uzatish.

3-misol. Axborot tizimi. Uning elementlari – kompyuterlar, kompyuter tarmoqlari, insonlar, axborot va dasturiy ta'minot va boshqalar. Axborot tizimining asosiy maqsadi professional axborot ishlab chiqarishdir.

Tizimni tashkil etuvchi elementlar soni ixtiyoriy bo'lishi mumkin, muhimi ularning o'zaro bog'langanligidir. Masalan, turli detallardan tashkil topgan texnik vosita; kletkalardan tashkil topgan tirik organizm; insonlar jamoasi; korxona; davlat va hokazolar. Lektor va talabalar bilan birga ma'ruzalar zali – tizim; har bir talaba – bu ham tizim; auditoriya jihozlari – tizim; alohida stol – tizim. Stolning oyog'i – bu tizim emas. Ammo, bu makro ifodalash nuqtai nazaridan. Agarda stol oyog'ini mikro ifodalash nuqtai nazaridan oladigan bo'lsak, bu ham molekula va

atomlarning bog'lanishidan tashkil topgan tizimdir. Bu misollardan ko'rinib turibdiki, tizimlar turlicha bo'lishi mumkin, ammo ular bir qator umumiy xossa va tushunchalarga ega. Turli belgilari bo'yicha tizim turlariga ko'plab misollar keltirish mumkin. Umumiy holda ularni material va abstrakt turlarga bo'lish mumkin. Material tizimlar material obyektlar mosligini ifodalaydi. Bunday tizimlar ichida noorganik (texnik, kimyoviy va h.k.), organik (biologik) hamda aralash (organik va noorganik tabiat elementlarini birlashtirgan) tizimlarni (masalan, inson-kompyuter (ergotexnik)) ajratish mumkin. Material tizimlar ichida insonlar o'rtasida umumiy munosabatlarni ifodalovchi ijtimoiy tizimlar muhim o'rin egallaydi. Bunday tizimlar tizimostlari ishlab chiqarish jarayonida insonlarning umumiy munosabatlarini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar hisoblanadi. Abstrakt tizimlar – bu insonlarning mahsuloti: nazariya, bilim, qarashlar va boshqalar. Tizimlarni vaqtga nisbatan statik va dinamik turlarga ajratish mumkin: statik tizimlarda vaqt o'tishi bilan tizimning holati o'zgarmaydi; dinamik tizimlarda esa, uning bajarilishi jarayonida tizim holatining o'zgarilishi kuzatiladi. Har qanday tizim katta tizim tarkibiga kiradi. Bu katta tizim uni o'rab turadi va berilgan tizimning tashqi muhiti bo'lib hisoblanadi. Shu sababli, tizim tashqi muhit bilan o'zaro bog'lanishda bo'ladi. Tizim tashqi muhit bilan aloqada bo'lganligi sababli ochiq va yopiq tizimlarni farqlash mumkin. Ochiq tizimlar o'zini o'rab turgan tashqi muhit bilan faol aloqada bo'ladi va bunday aloqa tizimga rivojlanish va murakkablashish imkonini beradi. Yopiq tizimlar tashqi muhit bilan aloqada bo'lmaydi, undagi barcha jarayonlar (energetikdan tashqari) tizim ichida amalga oshiriladi.

Axborot tizimi tushunchasi

Tizim tushunchasi keng tarqalgan va ko'plab ma'noviy qiymatlarga ega. Ko'pincha texnik vosita va dasturlar to'plamiga nisbatan qo'llaniladi. Kompyuterning apparat qismi tizim deb atalishi mumkin. Aniq amaliy masalani yechishga, hujjatlashtirishni yuritishning Qo'shimcha jarayonlari va hisoblashlarni boshqarish bilan to'ldirilgan dasturlar to'plami ham tizim deb qaralishi mumkin.

«Axborot» so'ziga «tizim» tushunchasini qo'shish uning yaratilishi va bajarilishini aks ettiradi. Axborot tizimlari har qanday sohada masalalar yechimlarini qabul qilish jarayonida axborotlarni qidirish, yig'ish, uzatishni ta'minlaydi. Axborot tizimlari muammolarni tahlil qilish va yangi mahsulotlar yaratishga yordam beradi. Axborot tizimi – bu qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida foydalanish uchun axborotlarni yig'ish, ishlov berish, saqlash va uzatish uchun qo'llaniladigan vositalar va usullarning o'zaro mutanosibligidir.

Axborot tizimining zamonaviy tushunchasi – shaxsiy kompyuterni axborotga ishlov berishning asosiy vositasi sifatida qo'llashdir. Katta tashkilotlarda shaxsiy kompyuterlar bilan bir qatorda axborot tizimi texnik bazasiga meynfreym yoki super

EHM kirishi mumkin. Bundan tashqari, ishlab chiqariladigan axborotda insonning o'zini hisobga olinmasa (insonsiz axborotni olish va taqdim etish mumkin emas), axborot tizimining texnik jihozlanishi hech qanday qiymatga ega emas. Kompyuterlar va axborot tizimlari o'rtasidagi farqni tushunish zarur. Maxsus dasturiy vositalar bilan jihozlangan kompyuterlar axborot tizimlari uchun texnik negiz va vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анарова, Ш., & Мухторов, Д. (2023). ТИББИЙ ТУЗИЛИШЛИ МУРАККАБ ОБЪЕКТЛАРНИНГ ФРАКТАЛ ЎЛЧОВЛАРНИ АНИҚЛАШ. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 196-200.
2. Doston, M., & Abdulatif, S. (2022). SUN'IY INTELLEKT TECHNOLOGIYALARI VA ULARNI SOHALARDA QO'LLANILISHI. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(5), 144-147.
3. Amanbayevna, A. S., & Naim o'g'li, M. D. (2022). GEOMETRIC MODELING AND VISUALIZATION OF SELF-SIMILAR STRUCTURES BASED ON FRACTAL THEORY. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 2(13), 187-188.
4. Javlon, X., & Obid ogli, S. J. (2022). Классификатор движения рук с использованием биомиметического распознавания образов с помощью сверточных нейронных сетей с методом динамического порога для извлечения движения с использованием датчиков EF. *Journal of new century innovations*, 19(6), 352-357.
5. Muxtorov, D., & Burxonova, Z. (2023). ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИНФОРМАТИКИ. *Молодые ученые*, 1(1), 54-56.
6. Javohir, M., & Doston, M. (2023). SUN'IY NEYRON TARMOQLARINI O'RGATISH ALGORITMLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 125-130.
7. Sherali, Q., & Doston, M. (2023). BERILGANLARNI KLASTERLASH MASALASI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 268-273.
8. Akbar, Q., & Doston, M. (2023). BIR QATLAMLI SUN'IY NEYRON TO'RLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 214-219.
9. Naim o'g'li, M. D., & Shokir o'g'li, B. Z. (2023). МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИСКУССТВЕННЫХ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ С УЧИТЕЛЕМ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(9), 1260-1264.
10. Naim o'g'li, M. D., & Xasan o'g'li, A. M. (2023). CLASSIFICATION OF CRISP-DM METHODOLOGY IN DATA ANALYSIS. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(19), 220-222.

11. Naim o'g'li, M. D., & Abdishukur o'g'li, S. A. (2022). THE NUMPY LIBRARY OF THE PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE IS AN OPTIMAL SOLUTION FOR WORKING WITH ARRAYS. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 2(13), 195-197.
12. Naim o'g'li, M. D., & Baxtiyor o'g'li, E. S. (2022). DATA SCIENCE METHODOLOGY IN LEARNING PROGRAMMING. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 2(13), 207-210.
13. Naim o'g'li, M. D., & Baxtiyor o'g'li, E. S. (2022). KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISHDA CRISP-DM USULLARINI QO'LLASH. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 2(13), 211-216

**ELEKTRON BIZNES VA ELEKTRON TIJORAT MAQSADLARI VA
ASOSIY YO'NALISHLARI****Muxtorov Doston Naim o'g'li***O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali, Assistent
dmuxtorov062@gmail.com***Baratov Aziz Turaboy o'g'li***O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali, talaba
azizjonbaratov7777@gmail.com***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning muhim yo'nalishi hisoblanmish elektron biznes va elektron tijorat sohasini rivojlantirish yuzasidan fikr va mulohazalar yuritiladi. Raqamli iqtisodiyot shuningdek, elektron tijorat tushunchasi mamlakatimizdagi yosh va jadal rivojlanayotgan sohalardan biri ekanligi sababli, ushbu yonalish haqida manbalar afsuski yetarlicha topilmaydi. Joriy yetishmovchiliklarni to'ldirishda o'z xissamizni qo'shish maqsadida, maqolada turli mulohaza va takliflar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, internet, elektron biznes, elektron tijorat.

KIRISH

Bugungi kunga kelib jahondagi barcha rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini raqamlashtirdi desak noto'g'ri bo'lmaydi. Tabiiyki XX asrning 60-yillarida g'arb davlatlarida kompyuter texnologiyalarining tarqalishi, raqamli iqtisodiyot bilan bir qatorda elektron tijorat sohasi ham rivojlanishining bosh me'zoni bo'ldi. Albatta bizning yurtimizda ham soha rivoji uchun keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. So'zimizning isboti sifatida yurtboshimizning: "Tarmoq va hudud rahbarlari raqamlashtirishsiz natija, rivojlanish bo'lmasligini tushunib yetishi shart. Barcha darajadagi rahbarlar buni o'ziga kundalik vazifa sifatida belgilab, raqamlashtirish sohasini alifbosidan boshlab chuqur o'rganishi kerak"¹ degan fikrlarini keltirishimiz mumkin. Berilayotgan e'tiborga qaramasdan mazkur yo'nalishda o'z faoliyatlarini boshlamoqchi bo'layotgan tadbirkorlar o'zbek segmentida yetarlicha ma'lumotlar topishlarida muammolarga duch kelishmoqda. Raqamli iqtisodiyot hamda, elektron tijorat borasida qilingan nazariy va amaliy ishlarni tahlil qilgan holda yangidan-yangi takliflar va metodlarni yaratish borasida bir qancha ilmiy izlanishlar qildik. Zero

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 22-sentyabr kuni tarmoq va hududlarda raqamli iqtisodiyot hamda elektron hukumatni joriy qilish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidan

qilingan ilmiy izlanish davomida ko'plab masalalarga yechimlar topishni maqsad qildik.

MUHOKAMA

Elektron biznes kelib chiqishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, XX asrning ikkinchi yarmi boshlarida axborot texnologiyalari sohasi taraqqiy eta boshlagani bunga turtki bo'lganini kuzatishimiz mumkin. Tabiiyki, korxonalar o'rtasida va ularning ichida ma'lumotlar almashuvini soddalashtirish va arzonlashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) roli beqiyos. Yirik korporatsiyalar pulni, vaqtni, binolarni va kuchni tejash maqsadida hujjatli ishlarni qog'ozsiz texnologiyalarda amalga oshira boshladilar. Bu jarayon albatta ma'lumot almashinuv tezligini ortishiga ham ko'maklashdi. Shuni ta'kidlash kerakki, elektron tijorat kontseptsiyasi tushunchasi hali internet globallashtirishdan oldin paydo bo'ldi. Ammo faqat 2000-yillarga kelibgina elektron biznes bank sektori va elektron ma'lumotlar almashuvidan tashqariga chiqdi va biznesni yuritishning samarali vositasi sifatida keng rivojlandi. Yurtimizda soha rivojining ilk uchqunlari XX asr oxiri va XXI asr boshlariga to'g'ri keladi. Shunga qaramasdan ushbu qisqa muddat ichida elektron tijorat yo'nalishi ancha rivojlandi. So'ngi besh yillikda O'zbekistonda internet tezligining oshishi hamda, chekka chekka hududlarga ham yetib borishi, soha rivojini jadallashtirdi. Mamlakatimiz prezidenti o'z qaror, farmon va farmoishlari bilan raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratga bo'lgan e'tiborni oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3-iyuldagi PQ-3832-sonli qarori ² ga binoan iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida davlat tomonidan keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'rilmogda, elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy etilmogda, elektron to'lovlar rivojlantirilmogda va elektron tijorat sohasidagi normativ-huquqiy baza takomillashtirilmogda.

Ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyalari, "sun'iy aql", superkompyuterlar imkoniyatlaridan foydalanish, shuningdek, kripto-aktivlar bo'yicha faoliyat jahonning ko'plab mamlakatlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyalari nafaqat iqtisodiyotning ko'plab sektorlariga, balki davlat boshqaruvi tizimiga va boshqa jamoatchilik munosabatlariga asta-sekin joriy etilmogda.

O'z navbatida keng qamrovli xizmat - korporativ mijozlarga ham, oxirgi iste'molchiga ham xizmat ko'rsatadigan Internet-vositachilar paydo bo'lmoqda. Ular avtomatlashtirilgan axborot kanallari orqali mijozlariga xizmat ko'rsatish boyicha ishlarni olib boradi:

- sotishdan oldin ishlar potensial xaridorlar va buyurtmachilar bilan ishlash, onlayn marketing;

² (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2018-y., 07/18/3832/1452-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2021-y., 06/21/6268/0700-son; 28.04.2022-y., 06/22/121/0354-son)

- onlayn buyurtmalar (bevosita bitim bilan bog‘liq vazifalari) - xizmat xaridorlar va iste’molchilar, maxfiy axborotni muhofaza qilish;
- moliyaviy xizmatlar – buyurtmalarni bajarish bilan bog‘liq onlayn-tranzaksiyalarning tarkibiy qismlari;
- sotishdan keyingi ishlar – buyurtma, hisob-kitob, almashtirish, nizolarni hal qilish holatini kuzatish.

Bundan tashqari taqdim etilgan ma’lumotlarga o’zgarish kiritish osonligi va shu tariqa vaqt va harajatlarni tejab qolinishi raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratning inson hayotida naqadar muhim o’rin egallaganligini ko’rsatadi. Sohaning izchil rivojlanayotgani va keng ommaga tarqalayotganining sababi ham aynan shu.

NATIJA

Kuzatishlar shuni ko’rsatadiki elektron tijorat sodda qilib aytganda ijtimoiy tarmoqlar hamda boshqa internet sahifalari kabi elektron vositalar ko’magida ehtiyojlarimizni qondiradigan xizmatlar va tovarlarni sotib olish yoki aksincha sotish kabi online tijorat amaliyotidir. Mamlakatimizda bozor munosabatlari hukmronlik qilar ekan siz kabi tadbirkorlarning faoliyati rivojlanishi davlat rivojlanishi hamdir desak mubolag’a bo’lmaydi. Demak jahon standartlarida ishlashimiz biznesimizni takomillashtirib tovarlarimizni jahon bozorlariga milliy brend tarzida olib kirishimizda raqamli texnologiyalarning o’rni beqiyos. Ammo har qanday raqamli biznesni boshlashdan oldin, u qaysi modelga kirishini bilishingiz kerak. Siz tushunganingizdek, elektron tijoratni amalga oshirishdan oldin uni qayerda shakillantirishingizni bilishingiz kerak. Avvalam bor ichki bozorda o’zingizni sinab ko’rib, keyinchalik faoliyatingizni kengaytirishingiz mumkin. Har qanday holatda ham ular bir xil boshqaruv modeliga ega bo’ladi va bunga faqat o’zingiz tanlagan biznes modelining o’ziga xos xususiyatlari ta’sir qiladi.

Elektron tijorat quyidagilardan iborat³:

- Elektron malumot almashish (Electronics Data Interchange, EDI);
- Elektron kapital harakati (Elektronic Funds Transfer, EFT);
- Elektron savdo (inglizcha e-trade);
- Elektron pullar (e-cash);
- Elektron marketing e-marketing);
- Elektron bank (e-banking);
- Elektron sug’urta xizmatlari (e-insurance).

Elektron tijorat amaliyotida shuni ko’rish mumkinki, aksariyat holatlarda elektron tijoratning yuqori samaradorligi muomaladagi xarajatlarni minimallashtirish orqali ta’minlanadi. Ushbu sohada elektron tijorat samaradorligini baholashga uslubiy yondashuv quyidagicha bo’lishi mumkin:

³ (G‘.M. Porsaev, B.SH. Safarov, D.Q. Usmanova “Raqamli iqtisodiyot asoslari” (darslik))

- elektron tijoratning samaradorligini baholash uchun o'rganilayotgan obyekt sohasini aniqlash;
- ushbu sohadagi tadbirkorlik subyektining maqsadli funktsiyasini aniqlash;
- maqsadga erishish uchun ishlanish ko'rsatkichlarini aqlash;
- ishlash mezonlarini shakllantirish;
- samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash uchun zarur statistik va Boshqa ma'lumotlarni olishni tashkil etish;
- ko'rsatkichlar va ishlash mezonlarini hisoblash; □ natijalarni tahlil qilish va qarorlar qabul qilish.

Elektron tijorat dasturlari tobora keng qamrovli yo'nalishlarni taqdim qilib bormoqda, qo'llanilishning ham yangi yo'nalishlari paydo bo'la boshladi. Buguni kunda bir necha to'liq shakllangan elektron tijorat tizimlarini sanab o'tishimiz mumkin.

Kompaniyaning bozor strategiyasiga qarab, Internetdagi quyidagi shakllari mavjud:

- elektron biznes karta; □ elektron katalog;
- elektron do'kon;
- internet do'kon.
- savdo internet-tizimlar;

Elektron biznes kartasi bir necha sahifalardan iborat bo'lgan kompaniya va uning faoliyati haqida ma'lumot. Bunday saytning asosiy vazifasi – potensial mijozga oddiy biznes ma'lumotnomasi yoki reklama e'loniga o'xshash bo'lib kompaniyaning xizmatlari bilan tanishish uchun imkoniyat berish.

Mijozni xabardor qilishning yanada rivojlangan shakli – bu tovarlar va xizmatlar haqida batafsil ma'lumot beruvchi va ko'pincha hozirgi narxlar bilan xabardor qiluvchi **elektron katalog**.

Elektron do'kon sizga nafaqat mahsulot yoki xizmatni tanlash, balki Internet orqali Buyurtma berish va xarid qilish imkoniyatini beradi.

REFERENCES

1. Анарова, Ш., & Мухторов, Д. (2023). ТИББИЙ ТУЗИЛИШЛИ МУРАККАБ ОБЪЕКТЛАРНИНГ ФРАКТАЛ ЎЛЧОВЛАРНИ АНИҚЛАШ. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 196-200.
2. Doston, M., & Abdulatif, S. (2022). SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA ULARNI SOHALARDA QO'LLANILISHI. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(5), 144-147.
3. Amanbayevna, A. S., & Naim o'g'li, M. D. (2022). GEOMETRIC MODELING AND VISUALIZATION OF SELF-SIMILAR STRUCTURES BASED ON FRACTAL THEORY. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 2(13), 187-188.

4. Javlon, X., & Obid ogli, S. J. (2022). Классификатор движения рук с использованием биомиметического распознавания образов с помощью сверточных нейронных сетей с методом динамического порога для извлечения движения с использованием датчиков EF. *Journal of new century innovations*, 19(6), 352-357.
5. Muxtorov, D., & Burxonova, Z. (2023). ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИНФОРМАТИКИ. *Молодые ученые*, 1(1), 54-56.
6. Javohir, M., & Doston, M. (2023). SUN'IY NEYRON TARMOQLARINI O'RGATISH ALGORITMLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 125-130.
7. Sherali, Q., & Doston, M. (2023). BERILGANLARNI KLASTERLASH MASALASI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 268-273.
8. Akbar, Q., & Doston, M. (2023). BIR QATLAMLI SUN'IY NEYRON TO'RLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 214-219.
9. Naim o'g'li, M. D., & Shokir o'g'li, B. Z. (2023). МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИСКУССТВЕННЫХ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ С УЧИТЕЛЕМ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(9), 1260-1264.
10. Naim o'g'li, M. D., & Xasan o'g'li, A. M. (2023). CLASSIFICATION OF CRISP-DM METHODOLOGY IN DATA ANALYSIS. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(19), 220-222.
11. Naim o'g'li, M. D., & Abdishukur o'g'li, S. A. (2022). THE NUMPY LIBRARY OF THE PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE IS AN OPTIMAL SOLUTION FOR WORKING WITH ARRAYS. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 2(13), 195-197.
12. Naim o'g'li, M. D., & Baxtiyor o'g'li, E. S. (2022). DATA SCIENCE METHODOLOGY IN LEARNING PROGRAMMING. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 2(13), 207-210.
13. Naim o'g'li, M. D., & Baxtiyor o'g'li, E. S. (2022). KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISHDA CRISP-DM USULLARINI QO'LLASH. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 2(13), 211-216.

AXBOROT TIZIMLARIDA MASOFAVIY TA'LIM

MUXTOROV DOSTON NAIM O'G'LI*O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali, Assistent**dmuxtorov062@gmail.com***BARATOVA SEVINCH DONIYOR QIZI***O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali, talaba***Annotatsiya**

Axborot tizimlarida masofaviy ta'lim, elektron tarqatma va internet asosida ta'lim olish imkonini ta'minlayan usuldir. Bu usul o'quvchilarga o'z vaqtlarida va o'z joylarida ta'lim olish imkonini beradi. Masofaviy ta'limning muhim komponentlari interaktivlik, shaxsiyligi va global aloqalarni ta'minlashdir.

Kalit so'zlar: Masofaviy ta'lim, Platforma tanlash, elektron tarqatma

Axborot tizimlarida masofaviy ta'lim (inglizcha: distance learning yoki online learning) shakllanishi o'quvchilar uchun internet orqali elektron darslar, resurslar va tarqatmalar orqali o'qish imkoniyatini ta'minlaydi. Bu shaklda ta'lim, o'quvchilar uchun o'zlarining qulayliklari va jadvali boyicha birnarsa o'rganish imkoniyatini beradi. Masofaviy ta'lim, video darslar, interaktiv onlayn ma'lumotlar, veb-saytlar, webinarlar, forumlar va onlayn muhitlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Bu usul orqali o'quvchilar o'zlarining iqtidorlariga va imkoniyatlariga qarab o'z vaqtida o'rganishlari va ta'limlarni baholashlari mumkin. Masofaviy ta'limning qulayligi, global o'quvchilar uchun tarqatilgan resurslarga ham kirish imkonini beradi. Bu shu bilan birga, o'qituvchilar va o'quvchilar o'zaro aloqalarni o'zlashtirishlari va ko'proq tarmoqlashishlari uchun onlayn kommunikatsiya vositalaridan foydalana oladilar. Masofaviy ta'limning bir nechta foydalari mavjud, ammo qayta ko'rib chiqish zarur bo'lgan muammo va cheklovlari ham bo'lishi mumkin. Bu usulda o'qishda disiplin va o'z-ozgina motivatsiyaga e'tibor berish kerak bo'ladi. Umuman olganda, masofaviy ta'lim bugungi kunda keng qo'llanilayotgan bir ta'lim usuli bo'lib, global o'qish tizimlarida katta o'rnatilgan va o'tkazilayotgan onlayn kurslar, veb-saytlar va platformalar mavjud. Axborot tizimlarida masofaviy ta'lim (MT) - elektron tarqatma, internet va boshqa kommunikatsiya texnologiyalari orqali o'quvchilarga ta'lim berish usuli. MT dasturlari, kurslar, darslar, testlar va boshqa ta'lim materiallari onlayn formatda taqdim etiladi. MT, o'quvchilarga joriy ma'muriyat jadvaliga bog'liq bo'lmagan va geografik cheklanishlarni ortidan qoldirmoqda. Uning muhim komponentlari interaktivlik va shaxsiylikni ta'minlashdir. O'quvchilar, o'z belgilariga mos ravishda ta'limni o'zlashtirishlari va o'zlariga qulay vaqt rejimi yaratishlari mumkin. MT orqali o'quvchilar bilimlarini oshirish uchun o'z vaqtlarini boshqarishlari

va qulay ta'lim resurslariga erishishlari imkoniyatini beradi. MT, tarqatuvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi aloqalarni ta'minlaydi. O'quvchilar, onlayn muhitda o'qituvchilar bilan muloqot qilish, vebinarlarga qatnashish, forumlarda fikrlarni almashtirish va jamoat bilan tarmoqlashish imkoniyatlariga ega bo'ladi. MT muhiti o'quvchilarga o'zlashtirishni rag'batlantirish va tarqatishning qulay va qisqa yo'llarini taklif qilishi mumkin. Shuningdek, MT ta'lim materiallarini o'z vaqtingizda va o'zingizning tempingizda o'rganishingiz imkonini beradi. Bundan tashqari, MT-ni to'liq amalga oshirish uchun qo'shimcha resurslar va texnologiyalar (masalan, internetga kirish, kompyuter, veb-kamera, mikrofon va boshqalar) talab qilinadi. MT-da yuqori sifatli ta'limning ta'minlanishi, global o'qish imkoniyatlari va hayot boyicha o'quvning davom etishi uchun qulayliklar keltirib chiqaradi. Uning shunchaki muammo va cheklovlari, insonlar orasidagi shaxsiy aloqalarning qismlarini yo'qotishi va o'qish jarayonidagi motivatsiyani saqlashga ehtiyoj duyishlari mumkin. Axborot tizimlarida masofaviy ta'limga kirish uchun odatda quyidagi jarayonlarni amalga oshirish zarur bo'ladi:

Platforma tanlash: Masofaviy ta'lim kurslari va dasturlari ko'p qatlamli platformalarda o'tkaziladi. O'quvchilar uchun kerakli platformani tanlash, saytda ro'yhatdan o'tish yoki ulanish bo'lishi mumkin.

Ro'yhatdan o'tish: Tanlangan platformada o'quvchilar uchun ro'yhatdan o'tish talab qilinadi. Bu ma'lumotlarni (ism, familiya, elektron pochta manzili, parol kabi) kiritishni o'z ichiga oladi. Ro'yhatdan o'tgandan so'ng, foydalanuvchi hisobingizni o'z ichiga olasiz.

Kursni tanlash: Platformada kurslar, darslar va dasturlar katalogi mavjud bo'ladi. O'quvchilar o'z huvishlariga, talablariga va qiziqishlariga mos keladigan kurslardan birini tanlashlari mumkin. Kurs haqida to'liq ma'lumotlar, kursning maqsadi, mavzusi, davomiyligi, o'qituvchilar tomonidan taqdim etiladigan materiallar va boshqa tafsilotlar kuzatilishi mumkin.

Kursga kirish: Tanlangan kursga kirish uchun odatda to'lov amalga oshirish talab qilinadi. To'lov jarayoni odatda bank karti, kredit karta yoki boshqa elektron to'lov vositalari orqali amalga oshiriladi. To'lovni amalga oshirgandan so'ng, kursga kirish uchun foydalanuvchi hisobingizni o'z ichiga olasiz.

Darslarga kirish: Kursga kirgandan so'ng, platforma orqali darslarga kirish imkoniyati beriladi. Bu darslar o'quvchilar uchun onlayn videolar, elektron darsliklar, testlar, vazifalar va boshqa ta'lim materiallari shaklida taqdim etilishi mumkin. Darslarni o'qish, hisob kitoblari, ilova yuklab olish va o'quv jarayonida ishtirok etish imkoniyatlari mavjud bo'ladi.


Axborot tizimlarida masofaviy ta'limga kirish jarayoni platformalar va kurslar asosida o'zgarishi mumkin. Har bir platforma o'zining o'zgartirishlarini va tartibini o'z ichiga oladi, shuningdek, har bir kurs o'z ma'lumotlari va talablari bilan ajralib turadi.

Buning uchun, kerakli kurs yoki platformaning o'zgartirish va talablari haqida to'liq tushuntiruvchi ma'lumotlarini taklif qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анарова, Ш., & Мухторов, Д. (2023). ТИББИЙ ТУЗИЛИШЛИ МУРАККАБ ОБЪЕКТЛАРНИНГ ФРАКТАЛ ЎЛЧОВЛАРНИ АНИҚЛАШ. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 196-200.
2. Doston, M., & Abdulatif, S. (2022). SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI VA ULARNI SOHALARDA QO 'LLANILISHI. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(5), 144-147.
3. Amanbayevna, A. S., & Naim o'g'li, M. D. (2022). GEOMETRIC MODELING AND VISUALIZATION OF SELF-SIMILAR STRUCTURES BASED ON FRACTAL THEORY. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 2(13), 187-188.
4. Javlon, X., & Obid ogli, S. J. (2022). Классификатор движения рук с использованием биомиметического распознавания образов с помощью сверточных нейронных сетей с методом динамического порога для извлечения движения с использованием датчиков EF. *Journal of new century innovations*, 19(6), 352-357.
5. Muxtorov, D., & Burxonova, Z. (2023). ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИНФОРМАТИКИ. *Молодые ученые*, 1(1), 54-56.
6. Javohir, M., & Doston, M. (2023). SUN'IY NEYRON TARMOQLARINI O'RGATISH ALGORITMLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 125-130.
7. Sherali, Q., & Doston, M. (2023). BERILGANLARNI KLASTERLASH MASALASI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 268-273.
8. Akbar, Q., & Doston, M. (2023). BIR QATLAMLI SUN'IY NEYRON TO'RLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 214-219.
9. Naim o'g'li, M. D., & Shokir o'g'li, B. Z. (2023). МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИСКУССТВЕННЫХ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ С УЧИТЕЛЕМ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(9), 1260-1264.
10. Naim o'g'li, M. D., & Xasan o'g'li, A. M. (2023). CLASSIFICATION OF CRISP-DM METHODOLOGY IN DATA ANALYSIS. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(19), 220-222.
11. Naim o'g'li, M. D., & Abdishukur o'g'li, S. A. (2022). THE NUMPY LIBRARY OF THE PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE IS AN OPTIMAL SOLUTION FOR WORKING WITH ARRAYS. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 2(13), 195-197.

12. Naim o'g'li, M. D., & Baxtiyor o'g'li, E. S. (2022). DATA SCIENCE METHODOLOGY IN LEARNING PROGRAMMING. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 2(13), 207-210.
13. Naim o'g'li, M. D., & Baxtiyor o'g'li, E. S. (2022). KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISHDA CRISP-DM USULLARINI QO'LLASH. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 2(13), 211-216.



AXBOROT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI

Muxtorov Doston Naim o'g'li*O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali, Assistent**dmuxtorov062@gmail.com***Inatov Omonjon Olimjon o'g'li***O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali**inatovomonjon8@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada kompyuter tizimi va tarmoqlarida axborotlarni himoyalash vositalari, havf xatarlar va hujum turlari, konkret tashkiliy, texnikaviy yoki uskunaviy, dasturiy, huquqiy, jismoniy, kriptografik, kompyuter tarmoqlarining aloqa kanallarida axborotlarni himoyalash va viruslardan himoyalash vositalari keng yoritilib berilgan. Turli xildagi axborotlar hududiy joylashishidan qat'iy nazar bizning kundalik hayotimizga Internet xalqaro kompyuter tarmogi orqali kirib keldi. Axborotlashgan jamiyat shu kompyuter tarmog'i orqali tezlik bilan shakllanib bormoqda. Axborotlar dunyosiga sayohat qilishda davlat chegaralari degan tushuncha yo'qolib bormoqda. Jahon kompyuter tarmog'i davlat boshqaruvini tubdan o'zgartirmoqda, ya'ni davlat axborotlarning tarqalishi mexanizmini boshqarishdagi muammolari hamda zamonaviy kompyuter tizimlarini yaratilishi va global axborot tarmoqlarini paydo bo'lishi axborotni himoya qilish muammolari batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kompyuter, texnologiya, internet, biometrik, onlayn, konfidentsial, elektron, texnik, sertifikat, administrator, resurs, versiya, blok, brandmauer.

Kirish

Yaqin o'tgan yillarda, Kompyuter texnologiyalari hayotimizga chuqur singib ketgan. Bizning zamonamizda odamlar kompyutersiz qanday ishlaganliklarini tasavvur qilishlari juda qiyin, ular ularga juda ko'nikib qolgan. Kompyuterlar mavjudligi bilan odamlar Internet - elektron pochta, World Wide Web, Internet-banking xizmatlaridan ham faol foydalana boshladilar. Endi, oddiy odamning har kuni ertalab yangiliklar lentasini standart ko'rish, shaxsiy pochta mazmunini tekshirish, turli mashhur ijtimoiy tarmoqlarga tashrif buyurish, onlayndo'konlarda xarid qilish, turli xizmatlar uchun haq to'lash. bilan boshlanadi. Internet asta-sekin, lekin shubhasiz aylandi. kundalik ishlarimizda doimiy yordamchi. Internet muloqotni osonlashtiradi va til to'siqlarini yo'q qiladi, endi sizning do'stingiz sizdan ming kilometr uzoqda boshqa shaharda yoki hatto boshqa davlatda yashasa ham, agar xohlasangiz, u bilan hech bo'lmaganda kun bo'yi muloqot qilishingiz mumkin. Ammo Internetning barcha afzalliklari bilan birga, u juda ko'p xavf-xatarlarni ham o'z ichiga oladi. Avvalo, bu shaxsiy va davlat

xavfsizligiga tahdiddir. Internet-bu shaxsiy ma'lumotlar, bank kartalari ma'lumotlarini osongina o'g'irlash mumkin bo'lgan, Internetda axborot urushlari olib boriladigan, ma'lumot to'qnashuvlari yuzaga keladigan bo'sh joy.

Shunday qilib, axborot xavfsizligiga tahdid eng muhim muammolardan biridir zamonaviy hayot inson va biz bu qaerdan kelib chiqqanligini va o'zimizni qanday himoya qilishimiz mumkinligini bilishimiz kerak.

